

DILRABO ANDANIYOZOVA  
GULNOZA JO'RAYEVA  
MA'RUFJON DO'STMURODOV

**ONA TILI  
VA  
ADABIYOTDAN  
TESTLAR  
TO'PLAMI**

ONA TILI  
VA  
ADABIYOT



D.R. ANDANIYOZOVA  
G.A. JO'RAYEVA  
M.M. DO'STMURODOV

# ONA TILI VA ADABIYOTDAN

T E S T L A R

TO'PLAMI

(soha bilan qiziqqan barcha kitobxonlar uchun)



5837

«Navro'z» нашриёти  
Тошкент – 2015 й  
PUBLISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSMOQ-TAU  
AXBOROT-KESURS MARKAZI

KBK 81455-16/8

M80

YKK: 165.5.2

Ona tili va adabiyotdan testlar to'plamida qoshidagi RAPTEV, NAZIRA G'ULOMOVA hammuallifligidagi «Ona tili va adabiyot» darslikiga bayanildi. To'plamdagi I qism test savollari darslikning ona tili qiziqqa mo'vofiq. «Ona tili — jon-u dilim», «To'g'ri yozish — savodxonlik asosini», «So'z ichra — mazsalalar uchun yozishni», «Ifoda aniqligi — fikr ravshanligi» nomli bo'limlardan, II qism esa faslida muvofiq mavzulashtirilgan savollardan tashkil topgan. Bu esa foydalanuvchiga qiziqlik yaratadi.

To'plam ona tili va adabiyot fanining ayrim bo'limlarini qamrab olgan bo'lib, akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'qituvchilarini va o'quvchilarini, olimpiada qamashchilarini, olyi o'quv yurtlariga kirish uchun tayyorlanuvchilar, shuningdek, soha bilan qiziqqan barcha kitobxonlarga mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir:**

**Taqrizchilar:**

f.f.d. professor, I.J.Yo'ldashev

O'zR FA Til va adabiyot instituti katta ilmiy xodimi, f.f.n. S.O'tanova

O'zR FA Til va adabiyot instituti katta ilmiy xodimi, f.f.n. G.M.Ismailov  
f.f.n. M.Rahmatov

TDYU qoshidagi akademik litseyning O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri, f.f.n. G.Xo'janova

TDYU qoshidagi akademik litseyning O'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi Z.Rahmonova

Toshkent Turizm va Biznes kasb-hunar kolleji ona tili va adabiyoti fani katta o'qituvchisi, M.A.Hasanova

Usbu to'plam Nizomiy nomidagi TDPU O'zbek tili va adabiyoti fakulteti O'quv-metodik ilmiy kengashi yig'ilishining 2015-yil 28-yanvardagi 4-sonli yig'ilish bayonnomasi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Mazkur to'plam haqidagi fikr-mulohazalaringizni +99 894 622-58-64 telefoni orqali bayon qilishingiz mumkin.

Barcha huquqlar qonun bilan himoyalangan. Mazkur qo'llanmani qalbakilashtirish, undagi matnlarni to'liq yoki qisman ko'chirib bosish va undan tijorat maqsadida foydalanish qat'yan taqiqlanadi.

ISBN 978-9943-3815-7-5

© D.R. ANDANIYOZOVA G.A. JO'RAYEVA  
M.M. DO'STMURODOV  
© «Navro'z», 2015 й.

**ONA TILI**

**I**

**QISM**



## ONA TILIM — JON-U DILIM

- Tafakkur va til
- So'z deganda nima tushuniladi
- Nutqiy faoliyat
- O'zbek tilining taraqqiyoti
- O'zbek tili — davlat tili

1. "Tafakkur"-so'zi qaysi tildan olingan va qanday ma'no anglatadi?

- A) arabcha-“til”  
B) fors-tojikcha-“fikrlamoq”  
C) arabcha-“fikrlamoq”  
D) forscha-tojikcha-“til”

2. "Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadurg'on oyinayi hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo'qotmak millatning ruhini yo'qotmakdir".

Til haqidagi ushbu fikrlar muallifini aniqlang?  
A) A. Avloniy . B) K.D.Ushinskiy  
C) A.Navoiy D) A.Fitrat

3. Hayroq so'zining moddiy belgisi nimada?

- A) so'zning hissiy-ruhiy timsoli  
B) so'zning ma'nosi  
C) so'zni tashkil etgan harflar, tovushlar  
D) so'zda moddiy belgi mavjud emas

4. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirda “Davlat tili haqida”gi qonuni necha moddadan iborat?

- A) 29 B) 24 C) 27 D) 18

5. Til bilan nutqning qiyoslanish xususiyatlari to'g'ri berilgan qatorlarni aniqlang.

1. Til aloqa shakli bo'lsa, nutq aloqa materialidir.  
2. Til aloqa materiali bo'lsa, nutq aloqa shaklidir.  
3. Tilni xalq, millat yaratadi, nutqni esa harbir shaxs yaratadi.  
4. Tilning hayoti xalq, millatning hayotiga bog'liq holda uzoq bo'ladi, nutqning hayoti esa qisqa, xususan, og'zaki nutq so'zlangan paytdagina mavjuddir. Ammo yozma nutq nisbatan uzoq davr saqlanishi mumkin.

5. Til nisbatan harakatda bo'lib, o'zgaruvchan bo'lsa, nutq doim turg'un, barqaror hodisa sanaladi.

6. Tilning hajmi noaniq, nutqning hajmi esa aniq. U dialog, monolog, matn shaklida bo'lishi mumkin.

7. Til nisbatan turg'un, barqaror bo'lsa, nutq doim harakatda bo'lib, o'zgaruvchan hodisa sanaladi.

- A) 1,2,3,4,6 B) 2,3,4,5,7  
C) 1,3,4,5,6 D) 2,3,4,6,7

6. "Ki har nenı bilmish odamizot, Tafakkur birla qilmish odamizot". Berilgan dono satrlar muallifini aniqlang.  
A) M.Bedil B) Z.M.Bobur  
C) A.Navoiy D) M.Ulug'bek
7. Og'zaki nutqning turi qaysi qatorda to'g'ri berilgan?  
A) oddiy so'zlashuv nutqi va adabiy so'zlashuv nutqi  
B) yozma va og'zaki so'zlashuv nutqi  
C) faqat oddiy so'zlashuv nutqi  
D) faqat adabiy so'zlashuv nutqi
8. "Insonni so'z ayladi judo hayvondin, Bilkim, guhari sharifroq yo'q andin". Satr muallifini aniqlang?  
A) Kaykovus B) A.Navoiy  
C) Ogahiy D) Yusuf Hos Xojib
9. Nutq shakllari ko'rinishlari to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.  
A) bir kishining nutqi (monologik), ikki kishi o'rtasida (dialogik) va bir necha shaxslar orasidagi (polilogik)  
B) bir kishining nutqi (monologik), ikki kishi o'rtasida (dialogik) va bir necha shaxslar orasidagi (monologik)  
C) bir kishining nutqi (dialogik), ikki kishi o'rtasida (monologik) va bir necha shaxslar orasidagi (monologik)  
D) bir kishining nutqi (monologik), ikki kishi o'rtasida
- (polilogik) va bir necha shaxslar orasidagi (dialogik)
10. "Tili bo'lsa uning shakardan shirin, Ulug' ham, kichik ham beradi bo'yin". Bayt muallifini aniqlang.  
A) A.Navoiy B) A.Yugnakiy  
C) Yusuf Xos Hojib  
D) A.Yassaviy
11. "Tillarning eng yaxshisi so'zga usta til, so'zlarning eng yaxshisi bilib va oxirini o'ylab so'zlangan so'zdir" misralari qaysi asardan olingan?  
A) A.Navoiy- "Hayrat-ul abror"  
B) A.Avloniy- "Turkiy guliston yoxud axloq"  
C) N.Ganjaviy- "Panj Ganj"  
D) Yusuf Xos Hojib- "Qutadg'u bilig"
12. Nutq uslubi turlari to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.  
A) so'zlashuv, badiiy, ommabop, rasmiy idoraviy, yozma so'zlashuv  
B) so'zlashuv, ilmiy, ommabop, rasmiyidoraviy  
C) so'zlashuv, ilmiy, badiiy, ommabop, rasmiy-idoraviy  
D) so'zlashuv, ilmiy, badiiy, ommabop, rasmiy- idoraviy, publitsistik

13. "Tang tangri kalti, Tang tangri o'zi kalti. Turunglar, qamug' beklar, qardashlar, Tang tangrig'a o'galim....". Ushbu gap til taraqqiyotining qaysi bosqichida yozilgan?  
 A) Qadimgi turkiy til B) Eski turkiy til  
 C) Eski o'zbek tili D) Hozirgi o'zbek tili
14. «Til arslan turur, ko'r, eshikda yatur.  
 Aya evlug, arsiq bashingni yeyur». Hikmatli so'z til taraqqiyotining qaysi bosqichida bitilgan va uning muallifi kim?  
 A) Qadimgi turkiy til-M.Qoshg'ariy  
 B) Eski turkiy til-Yusuf Hos Hojib  
 C) Eski o'zbek tili-A.Navoiy  
 D) Eski turkiy til-A.Yugnakiy
15. Qaysi qatordag'i so'z noto'g'ri yozilgan?  
 A) buzrugmehr B) iztehzoomuz  
 C) tassavvuf D) duogo'y
16. "So'zkim dard choshnisidin harorati bo'lmag'ay va nazmkim ishq haroratidin hirqati bo'lmag'ay, nursiz sham' bil va sarvarsiz jam' gumon qil". Nutq namunasi til taraqqiyotining qaysi davriga oid va nutq muallifi kim?  
 A) Eski turkiy til-A.Yassaviy  
 B) Eski turkiy til-M.Qoshg'ariy  
 C) Eski o'zbek tili-Mirzo Bedil

- D) Eski o'zbek tili-A.Navoiy
17. O'zbek (turkiy) tilda yozilgan dastlabki yozma yodgorliklar nechanchi asrlarga tegishli?  
 A) XII-XIII asrlarga B) X-XII asrlarga  
 C) VI-VII asrlarga D) IV-V asrlarga
18. Quyidagilardan X-XII asrda yaratilgan asarlarni aniqlang?  
 A) "Devonu lug'otit turk", "Qutadg'u bilig", "Hibat-ul Haqoyiq", "Devoni hikmat", "Muqaddimat-ul adab"  
 B) "Devonu lug'otit turk", "Qutadg'u bilig", "Hibat-ul Haqoyiq", "Devoni hikmat", "Og'uznama"  
 C) "Devonu lug'otit turk", "Qutadg'u bilig", "Hibat-ul Haqoyiq", "Muhabbatnama"  
 "Muqaddimat-ul adab"  
 D) "Me'rojnama", "Qutadg'u bilig", "Hibat-ul Haqoyiq", "Devoni hikmat", "Muqaddimat-ul adab"
19. Qachondan boshlab o'zbek adabiy tilining uslublari ham shakllana bordi va o'zbek milliy tilida me'yorlashish jarayoni barqarorlashish bosqichiga kirdi?

- A) XX asrning 20-30-yillaridan boshlab  
 B) XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab  
 C) XX asrning 50-60-yillaridan boshlab  
 D) O'zbekiston mustaqilligidan boshlab
20. Quyidagilardan XIII-XIV asrlarda yaratilgan asarlarni belgilang.
- 1) "0'g'uznama"; 2) "Qutadg'u bilig"; 3) "Hibat ul-Haqoyiq"; 4) "Devoni hikmat"; 5) "Qissasi Rabg'uziy"; 6) "Muhabbatnoma"; 7) "Me'rojnama"; 8) "Muqaddimat-ul adab"; 9) "Yusuf va Zulayho"; 10) "Devoni lug'otit turk"
- A) 1,2,5,6,7 B) 1,5,6,7,8  
 C) 1,5,6,7,9 D) 1,5,7,8,9
21. "...Eli sorttur va mushtzan va purshar-u sho'r eldur. Ovi qushi yaxshidur, oq kiyik youuqta bo'lur".
- Z. M. Bobur, "Boburnoma"da qaysi shaharga ta'rif bermoqda?
- A) Samarqand B) Marg'inon  
 C) Balx D) Farg'ona
22. Quyidagilardan qay birini rivojlangan, ijtimoiy mavqeyi yuksalgan, sayqal topgan, fonetik va leksik-grammatik jihatdan me'yorlashgan milliy til deyish mumkindir?
- A) Eski o'zbek tilini B) Eski turkiy tilni  
 C) Qadimgi turkiy tilni  
 D) Hozirgi o'zbek adabiy tilini
23. "Yana biri ... . Andijonning g'arbidadur. Andijondin yetti yig'och yo'dur. Yaxshi qasaba voqe bo'lubtur. Bir jins anor bo'lur, "dona kalon" derlar, chuchukligida zardolu mayxushligidin andak choshni bor. Samnon anorlarig'a tarjeh qilsa bo'lur. Yana bir jins o'ruk bo'lurkim, donasini olib, ichig'a mag'z solib quruturlar, "subhoniy" derlar, bisyor lazizdур". "Boburnoma"da qaysi shahar haqida gap ketmoqda?
- A) Samarqand B)  
 Marg'inon  
 C) Balx D) Farg'ona
24. Z.M.Bobur "Boburnoma"da "pur ne'mat: ... va ... asru ko'p xo'b bo'lur" deya Marg'inonning qaysi mevalarni maqtaydi?
- A) tarvuzi va qovunini B) olmasi va uzumini  
 C) o'rugi va anorini D) zardolu va magizini
25. O'zbek xalqi tilining takomillashuvida qaysi davr muhim rol o'ynaydi?
- A) XIV asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan tarixiy davr  
 B) XIII asrdan XIX asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan tarixiy davr

- C) XIII asrdan XX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan tarixiy davr
- D) X asrdan XX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan tarixiy davr
26. Z.M.Bobur "Boburnoma"da qaysi shaharning xalqi juda mushtzan-urushqoq, purshar-serg'alvo va sho'r-tashvishli ekanligini aytadi?
- A) Samarqand B) Kobul  
C) Balx D) Margilon
27. "Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili- bu millatning ruhidir". Ona tili haqida aytilgan ushbu fikrlar muallifi kim?
- A) Ch.Aytmatov  
B) I. A. Karimov  
C) O.Sharafiddinov  
D) Tohir Malik
28. Qachon "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida" qonun qabul qilindi?
- A) 1989-yil 21-oktabr  
B) 1995-yil 21-dekabr  
C) 1993-yil 2-sentabr  
D) 1995-yil 24-avgust
29. "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari" to'g'risidagi qonun qachon qabul qilingan?
- A) 1989-yil 21-oktabr  
B) 1995-yil 21-dekabr  
C) 1993-yil 2-sentabr  
D) 1995-yil 24-avgust

30. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirda "Davlat tili haqida"gi qonuni qachon e'lon qilindi.
- A) 1989-yil 21-oktabr  
B) 1995-yil 21-dekabr  
C) 1993-yil 2-sentabr  
D) 1995-yil 24-avgust
31. O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirda "Davlat tili haqida"gi Qonuning 1- moddasida nima deb yozib qo'yilgan?
- A) "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir"  
B) "O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o'z ona tilini qo'llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi"  
C) "O'zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko'rsatadigan, milliy guruuhlar zinch yashaydigan joylarda esa — ularning tillarida faoliyat ko'rsatadigan muktabgacha tarbiya, bolalar muassasalarini tashkil etish ta'minlanadi"  
D) Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish

davlat tilida yuritiladi va zaruriyatga qarab boshqa tillarga tarjima qilinishi ta'minlanadi.

anori va "subhoniy" o'rigi haqida ma'lumot berilgan?  
A) Samarqand B) Andijon  
C) Marg'ilon D) Buxoro

32. "Boburnoma"da qaysi shaharning "donayi kalon" nomli

### TO'G'RI YOZISH — SAVODXONLIK ASOSI

- Talaffuz va imlo
- Unli tovushlar talaffuzi va imlosi
- Qo'sh unlilar
- Undosh tovushlar talaffuzi va imlosi
- Qo'sh undosh

1. 1995-yilning 24-avgustida tasdiqlangan "O'zbek tilining asosiy imlo qoidalari"ning bo'limlari to'liq berilgan qatorni aniqlang.

- A) "Harflar imlosi", "Asos va qo'shimchalar imlosi", "Chiziqcha bilan yozish", "Ajratib yozish", "Bosh harflar imlosi" va "Ko'chirish qoidalari"  
B) "Harflar imlosi", "Asos va qo'shimchalar imlosi", "Qo'shib yozish", "Chiziqcha bilan yozish", "Ajratib yozish", "Bosh harflar imlosi" va "Ko'chirish qoidalari"  
C) "Harflar imlosi", "Asos va qo'shimchalar imlosi", "Qo'shib yozish", "Chiziqcha bilan yozish", "Ajratib yozish", "Bosh harflar imlosi"  
D) "Harflar imlosi", "Asos va qo'shimchalar imlosi", "Qo'shib yozish", "Chiziqcha bilan

yozish", "Bosh harflar imlosi" va "Ko'chirish qoidalari"

2. a unlisi bilan tugagan fe'l asoslariga qaysi qo'shimchalar qo'shilsa a unlisi o ga aylanadi va shunday yoziladi?  
A) -v, -q, -m B) -sh, -ish  
C) -v, -q, -qi D) -ga, dan

3. i unlisi bilan tugagan fe'llarga ayrim qaysi qo'shimchalar qo'shilsa i unlisi u ga aylanadi va shunday yoziladi?  
A) -v, -q B) -sh, -ish  
C) -v, -q, -qi D) -ga, dan

4. *saylov, sinov, o 'quv, qazuv, sayroqi, taroq* kabi so'zlarda qanday fonetik o'zgarish ro'y bergan?

- A) tovush almashishi B) tovush ortishi C) tovush tushishi  
D) tovush almashishi, tovush tushishi
5. Tilshunoslikda to'g'ri talaffuz qoidalari to'plami ... deb ataladi.  
A) orfogarafiya B) orfoepiya  
C) fonetika D) grafika
6. Tilshunoslikda to'g'ri yozuv qoidalari to'plami ... deyiladi.  
A) orfogarafiya B) orfoepiya  
C) fonetika D) grafika
7. Unli tovushlar xususiyati to'g'ri berilgan qatorni aniqlang.
- 1) Unli tovushlar ovoz paylarining o'pkadan chiqayotgan havo oqimi ta'sirida tebranib, og'iz bo'shlig'ida hech qanday to'siqqa uchramaydi;
  - 2) Unli tovushlar ovoz paylarining o'pkadan chiqayotgan havo oqimi ta'sirida tebranib, og'iz bo'shlig'ida to'siqqa uchraydi;
  - 3) Ovoz (un) paychalarining titrashidan bo'g'iz bo'shlig'ida sof ovoz yuzaga keladi;
  - 4) Unlilarni talaffuz qilganda og'iz bo'shlig'i ochiq bo'ladi, asosiy vazifani esa ovoz paychalarini, til va lablar bajaradi;
  - 5) Unlilarni talaffuz qilganda og'iz bo'shlig'i ochiq bo'ladi, asosiy vazifani esa og'iz bo'shlig'i, bo'g'iz bo'shlig'i va burun bo'shlig'i bajaradi;
  - 6) Ovoz paychalarining harakati musiqiy ohangni vujudga

- keltiradi. Shuning uchun unli tovushlarda musiqiylik, ohangdorlik kuchli bo'ladi;
- 7) Unlilarni cho'zib talaffuz etish mumkin emas;
- 8) Unlilarni nutq talabiga ko'ra istagancha cho'zib talaffuz etish mumkin;
- 9) Hozirgi o'zbek adabiy tilida oltita unli tovush mavjud: A, O, I, U, 0', E.
- A) 1,3,4,6,8,9 B)  
1,2,3,4,6,7,9  
C) 1,3,4,6,7,9 D)  
1,2,3,4,6,8,9
8. Unlilarni talaffuz qilganda og'iz bo'shlig'i ochiq bo'ladi va asosiy vazifani qaysi nutq a'zolari bajaradi?
- A) o'pka, tishlar va pastki lab  
B) og'iz bo'shlig'i, bo'g'iz bo'shlig'i va burun bo'shlig'i  
C) ovoz paychalarini, til va lablar  
D) yuqori tanglay, patki jag' va lablar
9. Quyidagi qaysi harf lablanmagan, til oldi, keng unli tovushni ifodalaydi?
- A) i B) u C) o D) a
10. a unlisi o'zakdagagi qaysi undoshlar bilan yonma-yon kelganda old qator, ochiq tovush sifatida aytildi?

- A) til orqa k, g va chuqur til orqa undoshlari bilan  
B) til orqa k, g va boshqa til oldi undoshlari bilan  
C) chuqur til orqa q, g' va boshqa til oldi undoshlari bilan  
D) sonorlar bilan

11. a unlisи qaysi undoshlardan so'ng kelganda orqa qator unlidек aytildi, ammo asliga muvofiq yoziladi?

- A) til orqa k, g va chuqur til orqa undoshlardan  
B) til orqa k, g va boshqa til oldi undoshlardan  
C) chuqur til orqa q, g' , x undoshlardan  
D) ovozdlardan so'ng

12. Qaysi so'zlarda a unlisи o ga moyil aytildi, ammo a yoziladi?  
A) bahor, zamon, palov, tamom  
B) qand, qarz, g'aliz, xamir, xat  
C) aka, man, olam, kalla, gala  
D) mutolaa, mudofaa, manfaat, taalluqli, taajjub

13. Qaysi so'zlarda tutuq belgisi unlini cho'ziqroq aytishishi uchun xizmat qilgan?  
A) is'hoq, as'hob  
B) qal'a, mas'ul, mash'um  
C) a'lo, a'zo, ma'no, ta'na  
D) mo'tabar, mo'tadil, mo'jiza

14. Qaysi qatordagi so'zlar to'g'ri yozilgan?  
A) mutola, mudofa, manfat, talluqli, tajjub  
B) mutolaa, mudofaa, manfaat, taalluqli,taajjub

- C) mutolaa, mudofaa, manfaat, taaluqli,taajjub  
D) mutoola, mudoofa, maanfat, taalluqli,taajjub

15. To'g'ri yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.

- A) istakan, istol, istul  
B) metal, gram, kontekst  
C) Ernest, Engls, Charls  
D) disk, bank, tank

16. Qaysi so'zlarda a unlisи o ga moyil aytilsa, asliga ko'ra yoziladi?

- A) mutolaa, mudofaa, manfaat, taalluqli, taajjub  
B) qand, qarz, g'aliz, xamir, xat  
C) aka, man, olam, kalla, gala  
D) xavf, gavda, navbat, vafo, varaq

17. To'g'ri yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.

- A) sentabr, oktabr, flaga  
B) sentyabr, oktyabr, flyaga  
C) sentabr, oktabr, flyaga  
D) sentyabr, oktyabr, flaga

18. Quyidagi qaysi harf lablangan, til orqa keng unli tovushni ifodalaydi va yondosh tovushlardan qat'i nazar so'zlarning barcha bo'g'inlarida kelib, cho'ziq unli sifatida talaffuz qilinadi va asliga ko'ra yoziladi?

- A) u B) o C ) i D) e

19. Quyidagi qaysi so'zlarning urg'usiz bo'g'inlarida o unlisiga kabi talaffuz qilinadi, ammo o yoziladi?
- A) opera, bolt, nota, rol, tok (elektr)  
 B) botanika, fonetika, vokzal, futbol  
 C) traktor, direktor, ekspeditor, kartoshka  
 D) maorif, jamoa, ziroat, soat, kakao
20. Qaysi so'zlarga egalik qo'shimchasi orfografik qoida asosida qo'shilgan?
- A) parvoim, parvoing, parvoi, avzoimiz, avzoingiz, avzoi  
 B) parvom, parvong, parvosi, avzomiz, avzongiz, avzosi  
 C) parvoyim, parvoying, parvoyi, avzoyimiz, avzoyingiz, avzoyi  
 D) parvoyim, parvoying, parvosi, avzoyimiz, avzoyingiz, avzosi
21. -q, -v, -qi qo'shimchalari a unlisiga bilan tugagan so'zlarga qo'shib, qaysi so'z turkumlarini yasaydi?
- A) fel B) ot va ravish  
 C) ot, sifat va ravish D) ot va sifat
22. To'g'ri yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.
- A) televizor, inkubator, ekvator, stabilizator, attor, gavjum, kavush, muomala, muallaq  
 B) televizyor, inkubatyor, ekvatyor, stabilizatoryor, attor, gavjum, kavush, muomala, muallaq
- C) televizor, inkubator, ekvator, stabilizator, attor, gavjim, kavish, muomala, muallaq  
 D) telivizor, enkubator, ekvador, stabilizatir, attor, gafjum, kafush, muomala, muallaq
23. Qaysi qatorda qo'shunli to'g'ri qo'llanilgan?
- 1) manfaat; 2) muomala; 3) matbaa; 4) mutolaa; 5) ma'rifaat; 6) mudofaa; 7) murojaat; 8) mutaassib; 9) mushoira; 10) taajjub; 11) taalluq; 12) taassub; 13) taassurot; 14) taassuf
- A) 1,3,4,5,6,7,8,10,11,12,13  
 B) 1,3,4,6,7,8,10,11,12,13,14  
 C) 1,2,4,6,7,8,10,11,12,13,14  
 D) 1,2,3,4,6,7,8,10,11,12,13
24. *"Bisyor bo'lsa agar bol ham beqadr,  
 Takror aytiganda  
 rangsizdir kalom.  
 Bu yorug' olamda Vatan  
 bittadir,  
 Bittadir dunyoda Ona  
 degan nom!"*  
 She'r muallifi kim va she'rda nechta bo'g'in mavjud?
- A) A.Oripov, 43 ta B)  
 E.Vohidov, 42 ta  
 C) I.Mirzo, 43 C)  
 S.Yesenin, 42
25. Quyidagi qaysi so'zlarda talaffuzda bir muallaq

tovush orttiriladi, ammo aslicha yoziladi?  
1) soat; 2) dialog; 3) mushoira; 4) fojia; 5) shoир; 6) nainki; 7) voqea; 8) doimo; 9) doimiy  
A) 1,2,4,5,6,8,9 B) 1,2,3,4,6,7,9  
C) 1,3,4,5,6,8,9  
D) barchasida tovush orttiriladi

26. Quyidagi qaysi so'zlarda talaffuzda bir tovush tushiriladi, ammo aslicha yoziladi?  
1) maorif; 2) jamoa; 3) sayramoq;  
4) badiiy; 5) baobro'; 6) vakuum;  
7) voqea  
A) 1,2,4,5,6 B) 1,2,3,4,5 C)  
2,4,5,6,7 D) barchasida tovush tushiriladi

27. Qaysi qatordagi so'z noto'g'ri yozilgan?  
A) e'tiqod B) mas'ul  
C) tamoil D) emotSIONAL

28. Quyidagi qaysi harf lablanmagan, til oldi, yuqori tor unli tovushni ifodalaydi?  
A) e B) a C) i D) o

29. i harfi bilinar-bilinmas talaffuz qilinuvchi so'zlar qatorini aniqlang?  
A) tilak, bir, tish, dil  
B) mohir, shoир, ilmiy, adabiy, lirika  
C) qish, qir, g'ilof, xizmatchi, xil  
D) bilim, iliq, etik, beshik, sariq, vakil

30. Qaysi qatordagi so'zlarda i unli urg'uli bo'g'inidagi cho'ziq i o'rnida ishlatilgan?

A) tilak, bir, tish, dil  
B) bilim, iliq, etik, beshik, sariq, vakil  
C) qish, qir, g'ilof, xizmatchi, ilmiy  
D) mohir, shoир, ilmiy, adabiy, lirika

31. Qaysi qatordagi so'zlarda i unli qisqa va qattiq i unli o'rnida ishlatilgan?  
A) tilak, bir, tish, dil  
B) mohir, shoир, ilmiy, adabiy, lirika  
C) qish, qir, g'ilof, xizmatchi, xil  
D) bilim, iliq, etik, beshik, sariq, vakil

32. Qaysi qatordagi so'zlarda i unli ruscha "ы" tovushi o'rnida ishlatilgan?  
A) vimpel, bilina, vishka, richag  
B) sirk, kiks, litr, lirik  
C) qish, qir, g'ilof, xizmatchi, xil  
D) richag, etik, sikl, vakil

33. Qaysi so'zlarning o'rtasida qisqa i tovushi talaffuz etiladi, ammo yozilmaydi?  
A) jalb, aysh, arz, aft, nafs  
B) fikr, ilm, ufq, matn, litr  
C) bahs, irq, kaft, art, asht  
D) archa, ertak, go'sht, barg, mast

34. Quyidagilardan qaysi harf lablangan, til orqa, yuqori tor unli tovushni ifodalaydi?  
A) o' B) o C) e D) u

35. Qaysi qatordagi so'zlarda u unlisi i tovushiga moyilroq aytiladi, ammo u yoziladi?  
1) jodu; 2) ovul; 3) janub; 4) tovuq; 5) sovuq; 6) tarvuz; 7) quvur; 8) chuvur-chuvur; 9) qovun  
A) 1,2,4,5,7,8,9 B) 2,4,5,6,7,8,9  
C) 1,3,4,5,6,7,8 D) 2,3,4,6,7,8,9

36. Qaysi qatordagi gapda faqat yuqori tor unlilardan tashkil topgan so'z ot kesim vazifasida kelgan?

A) Bilimli kishi kerakli so'zni so'zlaydi, keraksiz so'zni ko'mib tashlaydi.  
B) Itni qopag'on qilgan egasidir.  
C) Bag'rim yoniq, yuzim qora, ko'nglim siniq, bo'yim buzik, sening ziyoratingga keldim, sultonim.  
D) Asl farzand merosiga pospon bo'lg'ay,  
Ozod elning orzulari osmon bo'lg'ay.

37. Qaysi qatordagi so'zlarda ikkinchi unli i tovushiga moyilroq aytiladi, ammo u yoziladi?  
1) uzun; 2) intuitsiya; 3) uzum;  
4) chumchuq; 5) yetuk; 6) tushuncha;  
7) yulduz; 8) yutuq; 9) yumush  
A) 1,3,4,6,7,8,9 B) 2,3,4,6,7,8,9  
C) 1,2,3,4,5,6,7 D) 2,3,4,5,6,7,8

38. Quyidagi qaysi so'zda bir til undoshi lab undoshi sifatida talaffuz qilinsa, so'z ma'nosi o'zgaradi?  
A) shanba B) tanbal  
C) saranjom D) tanbur

39. Qaysi qatordagi so'zlarda ikkinchi unli i tovushiga moyilroq aytiladi, ammo u yoziladi?  
1) oqsuyak; 2) og'u; 3) bug'u; 4) urg'u; 5) uyqu; 6) lash-lush; 7) tuyg'u; 8) qayg'u; 9) yog'du  
A) 1,3,4,5,6 B) 3,4,5,7,9  
C) 1'4,5,7,9 D) 3,4,5,7,8

40. Quyidagi qaysi so'zlarda so'zlarining oxirgi ikki undoshi o'rtasida u aytiladi, ammo u yozilmaydi?  
1) umr; 2) sarf; 3) uzr; 4) kibr; 5) rukn; 6) keks; 7) hukm  
A) 1,3,5,7 B) 1,2,4,6 C)  
2,3,5,7 D) 2,4,6,7

41. Qaysi qatordagi so'z noto'g'ri yozilgan?  
A) nufus B) nufuz C) naqd  
D) naqt

42. Quyidagi qaysi harf lablangan, til orqa, o'rta-keng unli tovushni ifodalaydi va so'zning ochiq bo'g'inlarida nisbatan kengroq, yopiq bo'g'inlarda esa torroq talaffuz qilinadi?

A) o' B) u C) o D) e

43. Quyidagi qaysi so'zlarda o' unlisi nisbatan torroq talaffuz qilinadi?

A) so'lim, qo'riq B) to'plam, ko'krak C) mo'jiza, mo'tabar D) yo'riq, zo'rlik

44. Quyidagi qaysi so'zlarda o' unlisi nisbatan kengroq talaffuz qilinadi?

A) so'lim, qo'riq B) to'plam, ko'krak C) mo'jiza, mo'tabar D) A va C javoblar

45. O'zbek tilida asosan so'zlarning birinchi bo'g'inida o' tovushi kelsa, ikkinchi bo'g'inida qaysi unli uchraydi?

A) i B) u C) o D) e

46. Quyidagi qaysi rus tilidan o'zlashgan so'zlarda o' unlisi o'zbek tilidagi o' ga moyil aytildi, ammo asliga ko'ra o yoziladi?

1) kongress; 2) tort; 3) tok; 4) kubok; 5) monitor; 6) bochka; 7) polietilen; 8) nota; 9) monarch  
A) 1,2,3,6,8 B) 2,3,4,6,8  
C) 1,2,4,5,7 D) 2,4,6,8,9

47. "Ular sakrashib, chuvillashib tangalarni dam kaftlariga qisib, dam bir-birlariga ko'zko'z qilishardi". Ushbu gapda lablanmagan, til oldi, quyi keng unli tovush bilan tugagan nechta ochiq bo'g'in bor?  
A) 6 ta B) 7 ta C) 8 ta D) 9 ta

48. "Navoiy kuzning so'lg'in nafosati bilan nafas olgan xiyobonlarni oralab, kechinmalar, hislarga to'lib yurarkan, navkar kelib, safar uchun otni tayyorlab qo'yganini bildirdi". Ostiga chizilgan so'zda qanday fonetik hodisa ro'y bergan?  
A) assimilatsiya B) dissimilatsiya  
C) eliziya D) singarmonizm

49. Tilimizdagi tarkibida qo'sh unli kelgan so'zlar asosan qaysi tildan o'zlashgan?

A) fors-tojik B) arab-fors  
C) uyg'ur-sog'd D) rus tilidan

50. To'g'ri yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.

A) mushoira, badiy, inshoot, matbaa, mutolaa, manfaat, murojaat, taalluqli, taassurot, taassuf  
B) mushoyira, badiy, inshoot, matbaa, mutoola, manfaat, murojaat, talluqli, tassurot, tassuf  
C) mushoira, badiy, inshoot, matbaa, mutolaa, manfaat, murojaat, taalluqli, taassurot, taassuf  
D) mushoyira, badiy, inshoot, matbaa, mutolaa, manfaat, murojaat, taaluqli, taasurot, taasuf

51. Undosh tovushlar tarkibida shovqin miqdori ovozga nisbatan ko'p bo'lsa yoki ovoz mutlaqo qatnashmasa, bunday tovushlar . . . deb nomlanadi.

- A) sonorlar B) ovozdorlar  
C) shovqinlilar D) sirg'aluvchilar

52. Sonorlar (ovozdorlar) berilgan qatorni aniqlang.

- A) m,n,ng,l,r B) b,p,m,v,f  
C) g,k,ng D) q,g',x

53. Shovqinli undoshlar ovozning ishtirokiga ko'a qanday turlarga bo'linadi?

- A) jarangli va jarangsiz  
B) qorishiq va portlovchi  
C) til, lab va bo'g'iz undoshlariga  
D) shovqinlar faqat sirg'aluvchilardir

54. Qaysi qatordagi so'zlarning jarangli undoshini jarangsiz juftiga almashtirganda yangi so'z hosil bo'ladi?

- A) bayt,dod B) dud, bob  
C) dori, dog' D) barchasini

55. Qaysi qatorda ovoz mutlaqo qatnashmaydigan, faqat shovqindangina paydo bo'ladigan tovushlardan hosil bo'lgan so'z berilgan?

- A) xushchaqchaq B)  
po'shtpo'shtlamoq  
C) qorishiq D) susaymoq

56. Qaysi qatorda faqat jarangli undoshlardan tashkil topgan so'z berilgan?

- A) ayniyat B) munavvar

C) farrux D) mubtalo

57. Qaysi qatordagi so'zlarda bir jarangli tovush ikkinchi bir jarangsiz jufti kabi talaffuz etiladi, ammo aslicha yoziladi?

- A) shanba, o'n besh, tanbur  
B) go'sht, metall, sust  
C) sabab, maqsad, miting  
D) doim, mushoira, soat

58. Ikki nutq a'zosining jipslashuvi natijasida o'pkadan chiqayotgan havo oqimining zarb bilan portlab o'tishidan qanday undoshlar hosil boladi?

- A) jarangli undoshlar  
B) jarangsiz undoshlar  
C) sonorlar D)  
portlovchilar

59. Faqat sirg'aluvchilar dan tashkil topgan so'z berilgan javobni aniqlang.  
A) sayyora B) sayyod C)  
ulfat D) dabdaba

60. Quyidagi qaysi harf lab-lab, portlovchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi?

- A) p B) d C) m D) ng

61. Qaysi qatordagi so'zlarda bir jarangli tovush ikkinchi bir jarangsiz jufti kabi talaffuz etiladi, ammo aslicha yoziladi?

1) javob; 2) zarb; 3) baxt; 4)  
shahodat; 5) mubtalo; 6) ibtido  
A) 1,2,5,6 B) 1,3,5,6 C) 2,3,4,5 D)  
2,4,5,6

62. b va p undoshlari qaysi  
xususiyatiga ko'ra farqlanadi?  
A) hosil bo'lish usuliga ko'ra  
B) hosil bo'lish o'rniga ko'ra  
C) un psychalarining ishtirokiga  
ko'ra D) ular barcha  
xususiyatiga ko'ra bir guruhg'a  
mansub

63. p tovushi qaysi undoshlar  
o'rnida talaffuz qilinishi  
mumkin?  
A) v,f B) b,f C) v,b D) y,b

64. "Pomirga borish yo'li menga  
besh qo'ldek ravshan edi".  
Gapda qanday ma'no ko'chishi  
yuz bergen?  
A) metafora B) metonimiya  
C) sinekdoha D) vazifadoshlik

65. Qaysi qatorda bir jarangli  
tovushni ikkinchi bir jarangsiz  
jufti bilan almashtirganda  
ma'no o'zgaradigan so'z  
qatnashgan gap berilgan?  
A) Nopok odamlar uning  
buloqdek tiniq, musaffo  
muhabbatiga og'u soldilar  
B) Obro' misqollab keladi,  
qadoqlab ketadi.  
C) Pomirga borish yo'li menga  
besh qo'ldek ravshan edi.  
D) Otni tepmaydi, itni  
qopmaydi,dema.

66. Quyidagi qaysi harf  
lab-tish, sirg'aluvchi,  
jarangli undosh tovushni  
ifodalaydi?  
A) f B) b C) p D) v

67. v tovushi qaysi  
undoshlar o'rnida talaffuz  
qilinishi mumkin?  
A) b,f B) u,f C) p,f D) p,u

68. Quyidagi qaysi harf  
lab-tish, sirg'aluvchi,  
jarangsiz undosh tovushni  
ifodalaydi?  
A) f B) b C) p D) v

69. Qaysi qatordagi so'z  
noto'g'ri yozilgan?  
A) sapsargul B) koperativ  
C) safsata D) sapyor

70. "Men Vatanni bog' deb  
aytsam,  
Sensan unda bitta gul,  
Men Vatanni ko'z deb  
aytsam,  
Bitta mujgon, o'zbegim".  
(Erkin Vohidov) Sherdag'i  
ostiga chizilgan so'zning  
ma'nosи qaysi qatorda  
to'g'ri izohlangan?  
A) ko'z qorachig'i B) quyosh  
yanglig' yuz C) kiprik D)  
qanot misoli qosh

71. Quyidagi qaysi harfi til  
orqa, portlovchi, jarangli  
undosh tovushni  
ifodalaydi?

ALIA) k B) g' C) g D) b

427 587  
AKBOROT-RESURS MARKAZI

72. Qaysi qatordagi so'zlarda jarangli g tovushi jarangsiz k kabi eshitiladi, ammo yozuvda g tarzida yoziladi?
- 1) belgi; 2) barg; 3) kongress; 4) galma-gal; 5) tug; 6) pedagog; 7) eg
- A) 2,5,6,7 B) 1,2,3,5 C) 1,3,5,7 D) 2,3,5,7
73. Quyidagi qaysi qatorda so'z qo'llashda xatolikka yo'l qo'yilgan?
- A) Ona yurting omon bo'lsa, Rang-u ro'ying somon bo'lmas.
- B) Yaxshi bo'lgin, hatto dushmaning oson, Seni deyolmasin yaramas-yomon.
- C) Tamburning ovozi soz chiqib tursa, Qulog'in buramas sozchi hech qachon
- D) Hamma qobiliyatlarning sarvari sog'lom fikrdir.
74. Undosh tovushlar tarkibida ovoz miqdori shovqinga nisbatan ko'p bo'lsa yoki shovqin mutlaqo qatnashmasa, bunday tovushlar . . . deb nomlanadi.
- A) sonorlar B) porlovcilar C) shovqinlar D) sirg'aluvchilar
75. O'zbek tilida jarangsiz juftiga ega bo'lgan jarangli undoshlar soni qancha?
- A) 6 ta B) 7 ta C) 8 ta D) 9 ta
76. Qaysi qatorda faqat portlovchilardan tashkil tpgan so'z berilgan?
- A) jingalak B) nigora C) bug'doy D) anjuman
77. "U Muhabbatning shifixonada yotganini bilgan, o'z jigarbandlari axtarib kelib-ketishganidan xabardor edi". Ushbu gapda nechta sirg'aluvchi tovush mavjud?
- A) 24 B) 25 C) 26 D) 27
78. "*Men buyuk yurt o'g'lidurman, Men bashar farzandiman, Lekin avval senga bo'lsam Sodiq o'g'lon, o'zbegim*". Ushbu she'rda jarangli juftiga ega bo'lgan jarangsiz undoshlar soni nechta?
- A) 7 ta B) 8 ta C) 9 ta D) 10 ta

## IMLO QOIDALARI (DAVOMI)

- Asos va qo'shimchalar imlosi
- Qo'shma va juft so'zlar imlosi
- Bosh harflar va qisqartma so'zlar imlosi
- Bo'g'in ko'chirilishi
- Tinish belgilari imlosi

1. Oxiri g bilan tugagan so'zlarga g undoshi bilan boshlanuvchi -ga, -gacha, -gach, -gan, -gina kabi qo'shimchalar qo'shilganda ushbu so'zlar qay yo'sinda yoziladi?

- A) g harfi bilan boshlangan affiksning bosh harfi k ga o'zgaradi va shunday yoziladi
- B) so'zning oxiridagi g harfi k ga o'zgaradi va shunday yoziladi
- C) so'z oxiridagi va affiks boshidagi g harfi k kabi talaffuz etiladi va shunday yoziladi
- D) so'z oxiridagi va affiks boshidagi g harfi k kabi talaffuz etiladi, ammo g yoziladi

2. Quyidagi qaysi harf til orqa, portlovchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi?

- A) g
- B) k
- C) ng
- D) g'

3. Quyidagi qaysi tovushlar undoshlarning uch tomonlama tasnifiga ko'ra bir guruhg'a mansub?

- A) g, k
- B) g, ng
- C) ng, k
- D) b, p

4. Oxiri k bilan tugagan so'zlarga qanday qo'shimchalar qo'shilganda k jaranglashadi va

- g tarzida aytildi hamda shunday yoziladi?
  - A) jo'nalish kelishigi qo'shimchasi
  - B) shaxs-son qo'shimchalari
  - C) egalik qo'shimchalari
  - D) qaratqich kelishigi qo'shimchasi

5. Hozirgi o'zbek tilida nechta tovush mavjud?

- A) 31
- B) 30
- C) 29
- D) 28

6. Tilning yetukligi uning go'zalligini va undan foydalanuvchining, ya'ni so'zlovchining yoki yozuvchining nutqiy mahoratini ta'minlaydi. Ushbu gapda nechta so'zda fonetik hodisa ro'y bergan va fonetik hodisaning nechtasi til orqa, jarangsiz, portlovchi undoshida hosil bo'gan?

- A) 3 ta fonetik hodisa, 3 tasi til orqa, jarangsiz, portlovchi undoshida hosil bo'lgan
- B) 3 ta fonetik hodisa, 1 tasi til orqa, jarangsiz, portlovchi undoshida hosil bo'lgan
- C) 4 ta fonetik hodisa, 2 tasi til orqa, jarangsiz, portlovchi undoshida hosil bo'lgan
- D) 5 ta fonetik hodisa, 2 tasi til orqa, jarangsiz,

portlovchi undoshida hosil  
bo'lgan

7. Quyidagi qaysi harflar til oldi,  
portlovchi, jarangli undosh  
tovushlarni ifodalaydi?  
A) n,d,j B) n,z,j C) d,l,n D) n,d,r

8. Quyidagi qaysi harf til oldi,  
portlovchi, jarangsiz undosh  
tovushlarni ifodalaydi?  
A) d B) t C) s D) l

9. Quyidagi qaysi undosh bilan  
tugagan so'zlarga qo'shimchalar  
qo'shilganda talaffuzda ushbu  
undosh eshitilmay qoladi,  
ammo bu hol imloda aks  
etmaydi?

A) d,t B) b,p C) v,f D) j,ch

10. Jonli nutqda t bilan tugagan  
so'zlarga ch undoshi bilan  
boshlanuvchi qo'shimchalar  
qo'shilganda t ning ham ch  
ga aylanish hodisasi yuz beradi:  
sutchi-suchchi, yigitcha-  
yigichcha, uyatchan-uyachchan  
kabi. Ushbu jumlanib bir so'z  
bilan qanday hodisa deyish  
mumkin?

A) dissimilatsiya hodisasi  
B) assimilatsiya hodisasi  
C) singarmonizm hodisasi D)  
metateza

11. Qaysi qatordagi so'zlarda  
qo'sh undoshlarning biri  
tushirilsa ushbu so'z  
boshqa ma'no anglatadi?  
A) hatto B) g'addor C) yetti D)  
qattiq

12. Qo'sh undoshli so'zlar  
berilgan qatorni aniqlang.  
1) mad..oh; 2) qat..iq  
(mustahkam); 3) qat..iq (sut  
mahsuloti); 4) mod..a (urf);  
5) tarad..ud; 6) sat..in; 7)  
it..ifoq  
A) 1,2,5,7 B) 2,3,6,7  
C) 1,3,4,6 D) 2,4,6,7

13. Qo'sh undoshli so'zlar  
berilmagan qatorni  
aniqlang.  
1) hat..o; 2) g'ad..or; 3)  
shat..irlmoq; 4) pat..ak; 5)  
bud..izm; 6) but..oq; 7)  
jad..id; 8) bat..ar  
A) 1,2,5,8 B) 3,5,7,8 C)  
3,4,6,7 D) 1,3,4,7

14. Quyidagi qaysi harf til  
oldi, sirg'aluvchi, jarangli  
undosh tovushni ifodalaydi  
va jonli nutqda so'z oxirida  
jarangsizlanib talaffuz  
qilinadi, biroq asliga  
muvofig yozilaveradi?  
A) t B) d C) b D) z

15. s harfi qaysi unlilaridan  
oldin kelganda yumshoq  
talaffuz etiladi?  
A) a,o B) o',u C) e,i D) o',o

16. Quyidagi qaysi harf til  
oldi, sirg'aluvchi, jarangsiz  
undosh tovushni ifodalaydi?  
A) ch B) s C) t D) n

17. "Ko'p sozning ozi  
yaxshi, oz sozning o'zi  
yaxshi".

Gapda eng ko'p qo'llanilgan tovushga xos belgilar to'g'ri ko'rsatilgan javob variantini aniqlang.

- A) til oldi, sirg'aluvchi, jarangli undoshi  
B) lablangan, orqa qator, keng unli  
C) til o'rta, sirg'aluvchi, jarangli undoshi  
D) lablanmagan, old qator, tor unli

18. "Agar siz menga shu go'zallikni ko'rsatganingizda edi, sizdan xuddi mana shunday baxtga meni ham sazovor qiling, deb tiz cho'kib yolvorgan bo'lurdim".

Ushbu gapda o'z jarangsiz juftiga ega bo'lgan nechta jarangli tovush bor?

- A) 24 B) 25 C) 26 D) 27

19. Quyidagi qaysi harf til oldi, qorishiq, jarangli undosh tovushni ifodalaydi va sof o'zbekcha so'zlarda qorishiq tovush tarzida, forscha-tojikcha va ruscha o'zlashmalarda sirg'aluvchi tovush kabi talaffuz qilinadi?

- A) ch B) j C) sh D) z

20. Quyidagi qaysi so'zlarda j tovushi ch tovushiga moyil aytiladi, ammo asliga muvofiq yoziladi?

- 1) toj; 2) boj; 3) ijtimoiy; 4) g'ijjak; 5) massaj; 6) jon; 7) ajoyib; 8) jajji; 9) ajdar; 10) mujda; .

- 11) janr  
A) 1,3,5,9,10,11, B)  
1,2,4,6,7,8  
C) 2,3,4,5,6,8,10 D)  
2,4,5,8,9,11

21. Quyidagi qaysi harf til oldi, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi. Til oldi undoshlari bilan kelganda yumshoq, orqa qator unlilar bilan yonmay kelganda esa qattiq talaffuz qilinadi va shunday yoziladi?  
A) t B) ch C) r D) sh

22. Quyidagi qaysi so'zlarda j tovushi sh tovushiga moyil aytiladi, ammo asliga muvofiq yoziladi?  
1) toj; 2) boj; 3) ijtimoiy; 4) garaj; 5) massaj; 6) jon; 7) ajoyib; 8) jajji; 9) ajdar; 10) mujda; 11) janr  
A) 3,4,5,9,10,11 B)  
1,2,4,6,11 C) 1,2,3,5,9,10 D)  
2,4,5,9,11

23. sh harfi qanday so'zlarda yumshoq va cho'ziqroq aytiladi va doim sh yoziladi?  
A) bir bo'g'inli so'zlarda  
B) rus tilidan o'zlashgan so'zlarda  
C) ko'p bo'g'inli so'zlarda  
D) arab-fors tilidan o'zlashgan so'zlarda

24. To'g'ri yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.  
 1) sharshara; 2) ash'or; 3) boshboshdoqlik; 4) govmish; 5) yondashuv; 7) ishshaymoq; 8) maishiy  
 A) 2,3,4,6,7 B) 1,4,6,7,8 C)  
 1,3,5,7,8 D) barchasi to'g'ri yozilgan
25. Qaysi qatordagi so'zlar imlo qoidasiga muvofiq to'gri yozilgan?  
 1) mushkulkushod; 2) nisholla;  
 3) neytron; 4) oshiq-ma'shuq; 5) pishpishlamoq; 6) ushoq (musiqiy termin); 7) ta'jub; 8) hash-pash  
 A) 1,2,4,6,7 B) 2,3,5,7,8 C)  
 1,3,4,5,8 D) barchasi to'g'ri yozilgan
26. g' undoshiga to'g'ri ta'rif berilgan qatorni aniqlang.  
 1. Chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangsiz undosh tovushni ifodalaydi;  
 2. Chuqur til orqa, sirg'aluvchi, jarangli undosh tovushni ifodalaydi;  
 3. So'z oxirida ba'zan x tarzida ham aytlishi mumkin;  
 4. Oxiri g' bilan tugagan so'zlarga jo'naliш kelishigi qo'shimchasi -ga qo'shilganda, o'zakdag'i g' va qo'shimchadagi g undoshlari q tarzida talaffuz etiladi va shunday yoziladi;  
 5. Oxiri g' bilan tugagan so'zlarga jo'naliш kelishigi qo'shimchasi -ga qo'shilganda, o'zakdag'i g' va qo'shimchadagi g
- undoshlari q tarzida talaffuz etiladi, ammo aslicha yoziladi;  
 6. Oxiri g' bilan tugagan so'zlarga g bilan boshlanuvchi boshqa qo'shimchalar qo'shilganda, o'zakdag'i g' va qo'shimchadagi g undoshlari q tarzida talaffuz etiladi, ammo aslicha yoziladi;  
 7. So'z oxirida q shaklida talaffuz qilinishi mumkin;  
 A) 2,3,5,6,7 B) 1,3,4,6,7  
 C) 2,3,4,5,7 D) 1,2,4,5,6
27. "Atmosfera yo'qligi sababli Oy yuzasi yo haddan ziyod issiq yoki nihoyatda souuq bo'ladi." Ushbu gapni tashkil etgan nechta so'z tarkibida fonetik hodisa yuz bergen?  
 A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta
28. Chuqur til orqa, portlovchi, jarangsiz undosh tovushiga qaysi qatorda to'g'ri ta'rif berilgan?  
 1) Jonli nutqda so'z tarkibida g' va x ga moyil aytildi va shunday yoziladi;  
 2) Nutqda so'z tarkibida g' va x ga moyil aytildi, ammo imloda asliga ko'ra yoziladi;  
 3) So'z oxirida kelib, egalik qo'shimchalari

qo'shilganda jaranglashib g' ga  
o'tadi va bu  
hodisa imloda aks etadi;  
4) Bir bo'g'inli so'zlarda, chetdan  
o'zlashgan so'zlarda so'z oxirida  
kelib egalik affiksi qo'shilsa,  
undosh jaranglashadi va  
shunday yoziladi;  
5) Bir bo'g'inli so'zlarda, chetdan  
o'zlashgan so'zlarda so'z oxirida  
kelib egalik affiksi qo'shilsa,  
aslicha aytildi va shunday  
yoziladi;  
6) so'z oxirida kelib jo'nalish  
kelishigi -ga, va g bilan  
bosqlanuvchi boshqa  
qo'shimchalar qo'shilganda, g  
undoshi q tarzida aytildi va  
bunday so'zlar qo'shaloq  
q bilan yoziladi;  
A) 1,4,5,6 B) 2,3,5,6 C) 2,3,4,6 D)  
2,4,5,6

29. Quyidagi qaysi harf chuqur  
til orqa, sirg'aluvchi, jarangsiz  
undosh tovushni ifodalaydi va  
o'zbek tilida, asosan, e dan  
boshqa unlilar bilan yonma-yon  
kelib, ularning qattiqroq talaffuz  
qilinishiga sababchi bo'ladi?  
A) q B) g' C) x D) h

30. Bo'g'iz undoshiga to'gri ta'rif  
berilgan javob variantini  
aniqlang.

1. Sirg'aluvchi, jarangsiz  
undoshni ifodalaydi;
2. O'zbek tilida bu tovush undov  
so'zlarda va, asosan, arab-fors  
tillaridan o'zlashgan so'zlarda  
uchraydi;

3. x tovushiga nisbatan  
qattiqroq talaffuz etiladi;
4. x tovushiga nisbatan  
yumshoqroq talaffuz  
etiladi;
5. Jonli nutqda ba'zan  
o'zidan keyingi undosh  
kabi aytildi yoki butunlay  
talaffuz etilmaydi;
6. Jonli nutqda ba'zan  
o'zidan keyingi undosh  
kabi aytilishi mumkin,  
ammo doimtalaffuz etiladi;
7. So'zlashuvda x tarzida  
aytilishi mumkin va bu  
adabiy talaffuz me'yori  
hisoblanadi;
8. So'zlashuvda x tarzida  
aytilishi mumkin, ammo  
bu adabiy talaffuz me'yori  
hisoblanmaydi;
9. Talaffuzda "x" tarzida  
aytilganda, so'z ma'nosi  
butunlay o'zgarishi  
mumkin  
A) 1,2,4,5,8,9 B) 1,2,3,6,7,9  
C) 1,2,4,5,8 D) 1,3,5,7,8,9
31. Qaysi qatordagi so'z  
to'g'ri yozilgan?  
A) shox (hukmdor) B) hoi  
(nor)C) xil-xil (ezilib  
pishgan)  
D) xattot (chiroyli yozuv  
egasi)
32. Qaysi qatordagi  
so'zlarda nuqtalar o'rniga  
bo'g'iz undoshi yozilishi  
kerak?  
1) ishta..a; 2) sa..iy; 3)  
ji..oz; 4) jo..il; 5) ..attot; 6)

ba..odir; 7) e..son; 8) ..orij; 9)  
..azil

- A) 2,3,5,7,8,9 B) 1,2,3,4,6,9  
C) 1,3,4,6,7,9 D) 2,3,4,6,7,8

33. Qaysi qatorda lab-lab,  
jarangli, burun undosh  
tovushini ifodalovchi va e, i old  
qator unlilaridan oldin kelganda  
yumshoq orqa qator unlilar,  
chuqur til orqa undoshlari bilan  
yonma-yon kelganda esa  
qattiq talaffuz qilinuvchi tovush  
berilgan?  
A) p B) m C) n D) ng

34. Til oldi, jarangli, portlovchi,  
burun tovushi qaysi undoshlar  
oldidan kelganda m tarzida  
aytiladi, ammo asliga muvofiq  
yozilaveradi?

- A) v,f B) d,t C) b,m D) n,ng

35. "Xayrli ishni o'zi kifoya  
emas, bu ishni vaqtida va  
mavridi bilan bajarmoq lozim"  
(U. Metyuz).

Ushbu gapda qaysi affiks bilan  
bog'liq uslubiy xato mavjud?  
A) egalik affiksi B) kelishik  
affiksi  
C) nisbat affiksi D) shaxs-son  
affiksi

36. Qaysi qatordagi so'zlarda til  
oldi, jarangli, portlovchi, burun  
tovushi lab-lab, jarangli, burun  
undosh tovushi tarzida aytiladi,  
ammo asliga muvofiq yoziladi?  
1) tanburchi; 2) tanga; 3)  
mamnuniyat; 4) minbar; 5)

yomon; 6) yonbosh; 7)

manmanlik

- A) 1,4,6,7 B) 2,3,5,7 C)  
1,2,3,6 D) 2,4,6,7

37. Qaysi so'zlarda  
nuqtalar o'rniga n undoshi  
qo'yiladi?

- 1) sara..jom; 2) su..bul; 3)  
ta..bur (cholg'u asbobi); 4)  
ta..beh

A) 1,2,4 B) 3,4 C) 1,2,3,4 D)  
4

38. Qaysi qatorda til oldi,  
qorishiq portlovchi,  
jarangsiz undoshni  
ifodalovchi tovush  
berilgan?

- A) sh B)j C) ch D) d

39. chuchvara so'zida  
nechta tovush va nechta  
harf mavjud?

- A) 7 ta tovush, 9 ta harf  
B) 7 ta tovush, 9 ta harf  
C) 7 ta harf, 9 ta tovush  
D) 9 ta tovush, 9 ta harf

40. Til orqa, portlovchi,  
jarangli, burun undosh  
tovushiga qaysi qatorda  
to'g'ri ta'rif berilgan?

- 1) Bu tovush so'z boshida  
uchramaydi;

2) So'z boshida uchrashi  
mumkin;

3) So'zning o'rtasi va  
oxirida kela oladi;

4) So'zlarni bo'g'inlarga  
ajratganda ng harfiy  
birikmasi n va g harflariga  
ajratilmaydi va alohida

tovushlar sifatidatalaffuz qilinmaydi;  
5) Kongress, tangens, bugungi kabi so'zlarda yaxlit ng tovushini ifodalaydi va bo'g'in ko'chirishda qo'shib yoziladi;  
6) Kongress, tangens, bugungi kabi so'zlarda ng alohida tovushlar n va g ni ifodalaydi, shu sababli bo'g'in ko'chirishda ajratib yoziladi;  
7) ng tovushi ikki unli o'rtasida kelganda ikkinchi unli bilan bo'g'in hosil qiladi va bir satrdan boshqasiga shunday ko'chiriladi;  
8) Agar ng tovushidan so'ng undosh kelgan bo'lса, ng tovushi birinchi unli bilan bo'g'in hosil qiladi;  
A) 2,3,4,5,7,8 B) 1,3,4,6,7,8  
C) 2,4,6,7,8 D) 1,3,5,7,8

41. Quyidagi qaysi so'zlarda ng harfiy birikmasi bir tovushni ifodalaydi?  
1) ingichka; 2) ingramoq; 3) singil; 4) dengiz; 5) opangiz; 6) singlim; 7) tengqur; 8) anglagan;  
9) so'nggi  
A) 1,2,4,6,7,8 B) 2,3,5,7,8,9  
C) 2,3,5,7,8,9 D) barchasida

42. Quyidagi ijodkorlardan qay biri "Yo'qotganlarim va topganlarim" nomli risola yozgan?  
A) Tog'ay Murod B) Said Ahmad  
C) Abdulla Oripov D) Erkin Vohidov

43. Qaysi qatorda qo'sh undoshli so'zlar berilgan?  
A) malla, do'ppi, go'sht  
B) tizza, barg, shovvoz  
C) shovvoz, malla, tizza  
D) tizza, sust, malla

44. Oxiri qo'sh undosh bilan tugagan so'zlarga o'zakdagи qo'sh undoshlar kabi ayni tovush bilan boshlanuvchi qo'shimcha qo'shilganda qo'sh undoshlar qay holda yoziladi?  
A) qo'sh undoshlarning ikkalasi ham yozilmaydi  
B) qo'sh undoshlarning bittasi yozilmaydi  
C) qo'shimcha boshidagi harf yozilmaydi  
D) o'zak ham, qo'shimcha ham hech qanday o'zgarishga uchramaydi  
45. Quyidagi qaysi so'zlarda qo'sh undoshlardan biri tushirilsa, so'z yangi ma'no anglatadi?  
A) malla, tizza, oddiy  
B) sodda, modda, billur  
C) oppoq, bitta, satta  
D) gramm, metall, salla

46. "*Bebaho naslsiz, hayot va mehnat,*  
*Olam qalbingizga sut bilan kirgan.*  
*Sizning xamiringiz shu ulug' xalqqa,*  
*Vatanga muhabbat bilan yo'g 'rilgan.*"

Ushbu she'rdagi qo'sh va qator undoshli so'zlar miqdori qancha?  
A) 3 ta qator undosh, 1 ta qo'sh undosh  
B) Ita qator undosh, 1 ta qo'sh undosh  
C) 2 ta qator undosh, 2 ta qo'sh undosh  
D) 2 ta qator undosh, 1 ta qo'sh undosh

47. a unlisi bilan tugagan fe'llarga qaysi qo'shimchalar qo'shilganda a unlisi o ga o'zgaradi va shunday yoziladi?  
A) -v, -q, -qi B) -k, -q, -g'  
C) -il, -ov, -ala  
D) -ni, -ning, -niki

48. -illa qo'shimchasi orqali taqlidiy so'zlardan fe'l yasalganda asos so'z tarkibida qanday tovush bo'lsa, bu qo'shimcha -ulla tarzida aytiladi va shunday yoziladi?  
A) u, v B) i, u C) v, i D) 1, i

49. parvo, avzo, obro', mavzu, mavqe kabi fors-arab tillaridan o'zlashgan so'zlarga I va II shaxs egalik qo'shimchalari qay tarzda qo'shiladi?  
A) I va II shaxs qo'shimchalari qo'shilganda ushbu so'zlardan so'ng y tovushi qo'shib aytiladi, ammo bu yozuvda aks etmaydi  
B) I va II shaxs qo'shimchalari ushbu so'zlarga to'gridan-to'g'ri qo'shiladi, va shunday yoziladi  
C) I va II shaxs qo'shimchalari qo'shilganda ushbu so'zlardan

so'ng y tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziladi  
D) bu so'zlarga I va II shaxs egalik qo'shimchalari qo'shilishi turlichadir

50. Quyidagi qaysi fellardan sifat yasalganda asosda tovush almashishi yuz beradi?  
1) ili; 2) qayna; 3) sana; 4) qizi; 5) sovi; 6) yumsha; 7) qot; 8) tin  
A) 1,2,3,4,5,8 B) 2,5,6,7  
C) 1,3,5,6,7 D) 2,3,6,7,8

51. parvo, avzo, obro', mavzu, mavqe kabi fors-arab tillaridan o'zlashgan so'zlarga III shaxs egalik qo'shimchasi qay tarzda qo'shiladi?  
A) III shaxs egalik qo'shimchasi parvo, obro', avzo, mavqe so'zlariga -yi shaklida qo'shiladi, mavzu, orzu so'zlariga -si shaklida qo'shiladi  
B) III shaxs egalik qo'shimchasi parvo, obro', avzo, mavqe so'zlariga -si shaklida qo'shiladi, mavzu, orzu so'zlariga -yi shaklida qo'shiladi  
C) III shaxs egalik qo'shimchasi parvo, avzo, mavqe so'zlariga -yi shaklida qo'shiladi, mavzu, orzu, obro' so'zlariga -si shaklida qo'shiladi

D) III shaxs egalik qo'shimchasi obro', avzo, mavqe so'zlariga -yi shaklida qo'shiladi, mavzu, orzu, parvo so'zlariga -si shaklida qo'shiladi

52. Quyidagi qaysi gapda ikkita yasama so'z mavjud emas?

- A) So'z bilan o'ynovchilardan yuragim bezillaydi  
B) Bolaning ko'ngli o'ksimasin deb yumshoq o'rindiqqa o'tqazdi  
C) So'roq qilingan kishining ayblarini sanab berdik  
D) Xalq botir o'g'lonlarini hech qachon unutmaydi

53. "Odob urugini ekkan odamning hosili javohir bo'ladi. Odobli va g'ozal xulqli odamlar kopayaversa, xalqning do'stligi, ularning bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbati borgan sari rivoj topadi"

(Alisher Navoiy, "Mahbub ul-qulub"dan)

Ushbu gapda nechta so'z fonetik tamoyil asosida yozilgan?

- A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta

54. -k, q bilan tugagan so'zlarga qaysi qo'shimchalar qo'shilganda k undoshi g ga, q undoshi esa g' ga o'zgaradi va shunday yoziladi?

- A) egalik, kelishik B) egalik C) kelishik  
D) felning ravishdosh, sifatdosh shakli qo'shimchalari

55. tok, kichik, soliq so'zlariga jo'naliш kelishigi qo'shimchasi qay tarzda qo'shiladi?

- A) tokga, kichikga, soliqqa shaklida  
B) tokka, kichikka, soliqqa shaklida  
C) tokka, kichikga, solig'ga shaklida  
D) togga, kichigga, solig'ga shaklida

56. "Har kimki chuchuk so'z elga izhor aylar,  
Har nechaki ag'yor durur yor aylar,

So'z qattigi el ko'ngliga ozor aylar,  
Yumshog'i ko'ngullarni giriftor aylar".

She'r muallifi kim va sherda jami nechta fonetik hodisa yuz bergen?

- A) Z.M.Bobour, 4 ta B)  
A.Navoiy, 4 ta C)  
K.Xorazmiy, 3 ta D)  
H.Xorazmiy, 3 ta

57. Quyidagi qaysi ayni bir qo'shimcha uch xil shaklga ega emas?

- A) -guncha(payt ravishdoshi)  
B) -ga(jo'naliш kelishigi)  
C) -gani(maqsad-sabab ravishdoshi)  
D) -dir (kesimlik qo'shimchasi)

58. "Orzum shul, o'chmasin yongan Charog'ing,

*Yulduzday nur sochsin  
chashming qarog'ing,  
Magar chinor bo'lsang,  
chinorday yasha,  
Bevaqt uzilmasin biror  
yaproging."*

(Abdulla Oripov)

Ushbu sherda nechta fonetik  
hodisa yuz bergen?

A) 1 ta B) 2 ta C) 3 ta D) 4 ta

59. Quyidagi qaysi qo'shimchlar  
ikkinchi bo'g'ini yopiq bo'lgan  
ayrim (asosan ikki bo'g'inli) otlar  
va fe'llarga qo'shilganda  
o'zakdag'i ikkinchi unli  
aytilmaydi va yozilmaydi?  
A) egalik va - i l nisbat  
qo'shimchasi  
B) -ga jo'nalish va - i l nisbat  
qo'shimchasi  
C) egalik va -dan kelishik  
qo'shimchasi  
D) -ga jo'nalish va —il nisbat  
qo'shimchasi

60. -ov, -ala qo'shimchalari qaysi  
turkum so'zlarga qo'shilganda  
tovush tushish hodisasi yuz  
beradi?

- A) ot so'z turkumi B) olmosh so'z  
turkumi  
C) son so'z turkumi D) fel so'z  
turkumi

61. "Tarixing bitmakka, xalqim,  
Mingta Firdavsiy kerak.  
Chunki bir bor chekkan ohing  
Mingta doston, o 'zbegim".  
(Erkin Vohidov)

Sh'eriy parchada tovush  
o'zgarishiga uchragan  
so'zlar sonini aniqlang.  
A) 4 ta B) 3 ta C) 2 ta D) 1  
ta

62. meni, seni, mening,  
sening, meniki, seniki  
so'zlarida qanday tovush  
o'zgarishi yuz bergen?  
A) qo'shimchalardagi bir n  
tovushi tushirilgan  
B) o'zakdag'i n tovushi  
tushirilgan  
C) o'zak va qo'shimcha  
o'rtasida bitta n tovushi  
orttirilgan  
D) so'zlar hech qanday  
tovush o'zgarishiga  
uchramagan
63. "Sening tugilib o 'sgan  
qishlogmdan  
ayrilmasingni bilar  
edim."

Ushbu gapdag'i so'zlar  
tarkibida nechta tovush  
o'zgarishi sodir bo'lgan?  
A) 2 ta B) 3 ta C) 4 ta D) 5  
ta

64. "Meniki-seniki deb  
tortishib, necha marta  
burni qonadi hamki, ogzini  
tiyolmaydi".  
Berilgan gap tarkibida  
nechta so'zda tovush  
o'zgarish hodisasi yuz  
bergan?  
A) 1 ta B) 3 ta C) 4 ta D) 6  
ta
65. Qaysi kelishik shakli  
badiy adabiyot -im,-n

shaklida qo'llanishi mumkin?

- A) tushum kelishigi
- B) qaratqich kelishigi
- C) bosh kelishik
- D) chiqish kelishigi

66. 'Yo'lchi arava... nimasi shikastlangani... payqamay, hayron bo'lib turar ekan, arava... tagidan dehqon... ayanchli tovushi eshitildi."

(Oybek)

Berilgan gapda nuqtalar o'rniga kerakli kelishik

qo'shimchalarini joylashtiring.

- A) -ni, -ni, -ning, -ni
- B) -ni, -ni, -ni, -ning
- C) -ning, -ni, -ning, -ning
- D) -ning, -ning, -ni, -ni

67. Qaysi kelishik shakli she'riy til va og'zaki nutqda -n, -di, -ti, -i shakllarida qo'llanishi mumkin?

- A) tushum kelishigi
- B) qaratqich kelishigi
- C) bosh kelishik
- D) chiqish kelishigi

68. Qaysi kelishik

qo'shimchalari ba'zan belgisiz ham qollanishi mumkin?

- A) qaratqich, tushum
- B) chiqish, tushum
- C) jo'nalish, qaratqich
- D) o'rinnayt, tushum

69. "Kechalar bedor o 'tkazib, har bir sitora, har bir yulduz burji, ya 'ni harakatidagi chambar yo'lini kuzatdi".

Ushbu gapda jami nechta kelishik shakli qo'llanilgan?

- A) 3 ta
- B) 4 ta
- C) 5 ta
- D) 6 ta

70. Quyidagi birliklardan qay birlari qo'shib yoziladi?

- 1) Quyi Chirchiq;
  - 2) Amu daryo;
  - 3) Sharqiy Turkiston;

*Hatto o'zimizning mard Ostonqul,  
Fashistni titratgan  
Rahimovichgacha,  
To'chi Eryigitov, Hakimovgacha-  
Hammamiz shu yer da o'q tomir  
bo'lib  
Yerni yelkamizda tutib  
yotibmiz... ”  
misralari kimning she'ridan  
olingan?  
A) Zulfiya B) S.Zunnunova  
C) G'.G'ulom D) H.Olimjon*

5. Qaysi ijodkorlar o'z ijodida  
surat bilan suhbat qurib asar  
yaratgan?

- A) Zulfiya, Mirtemir
- B) Mirtemir, S.Zunnunova
- C) I.Yusupov, Mirtemir
- D) H.Olimjon, Zulfiya

6. S.Zunnunovaning “Ruh bilan  
suhbat” asari qaysi janrda?  
A) ballada B) lirkı doston  
C) muxamma D) g'azal

7. “Yetimlik nima gap, shu  
murgak jonlar Ko'ksiga  
beayov otishgan-ku o'q.  
(Joningdan aylanay, oh,  
bolajonlar,  
Unutib bo'larmi u  
kunlarni? Yo'q!”)  
misralari qaysi she'rдан  
olingan?  
A) “Sen yetim emassan”  
B) “Sog'inish”  
C) “Surat”  
D) “Ruh bilan suhbat”

8. S.Zunnunovaning “Ruh  
bilan suhbat” she'rida kim  
bilan kim suhbat quradi?  
A) ona urushda halok  
bo'lgan o'g'li bilan  
B) ona urushda shahid bo'lgan  
turmush o'rtog'i bilan  
C) urushdan qaytgan jangchi  
o'z bevafo yori bilan  
D) urushdan qaytgan  
jangchi o'z onasi bilan

## XX ASR ADABIYOTI NAMUNALARI

### ERKIN VOHIDOV

1. “Otam frontda ekanida onam  
qishloq kengashida kotiba bo'lib  
ishlar, qiyinchilik bilan kun kechirar  
edik. Jo'xori poyasini shimbil tilimni  
qonatganim, bolalarga qo'shilib  
kunjara yeganim uchun onam  
yuzimga shapaloq urgani va  
o'zi kechgacha yig'laganini  
unutmayman”  
Ushbu parcha kimning tarjimayi  
holidan olingan?

A) O'tkir Hoshimov B) Er...  
Vohidov C) Tohir Malik D...  
G'afur G'ulom

2. “1936-yili Farg'ona vil...  
Oltiariq tumanida o'qit...  
oilasida tug'ilgan. Otasi  
Oltiariqning o'qimishli,  
odamlaridan  
bo'lib, dilkash, so'zga ch...  
kishi bo'lgan. Urush tu...  
otasidan barvaqt judo be...  
1945-yilda onasi bilan

*Toshkentga keladi. Dastlabki she'ri "Mushtum" jurnalida, u 7-sinfda o'qiyotgan davrida chop etilgan".*

Ushbu parcha kimning tarjimayi holidan olingan?

- A) O'tkir Hoshimov B) Erkin Vohidov C) Tohir Malik D) G'afur G'ulom

3. Quyidagi shoirlardan kim o'zining mumtoz adabiyot janrida go'zal, betakror g'azallar bitishiga qaramay kitobxonlaridan

*"Kulmangiz ne bor deb senga, Mir Alisher yonida"* deya kamtarona o'tinch qiladi?

- A) O'tkir Hoshimov B) Erkin Vohidov C) Tohir Malik D) G'afur G'ulom

4. "Tun bilan yig'labdi bulbul,  
G'uncha hajri dog'ida.

*Ko'z yoshi shabnam bo'lib  
Qolmish uning yaprog'ida"*  
misralari muallifi kim?

- A) O'tkir Hoshimov B) Erkin Vohidov C) Tohir Malik D) G'afur G'ulom

5. "Shoir ukparday mayin bu so'zlarni zo'zg'itib o'ynaydi-yu, ulardan go'zal,  
■ynoqi ohanglar yaratadi, so'ngra esa  
■lar asta o'rni-o'rniiga tushadi. Ona  
■limizdag'i ipakdek mayin,  
■amalakdek rangbarang, g'oyat nozik  
butf, beozor qochirimlar, goh hazin,  
goh samimiyl tabassum uyg'otuvchi  
tashbehtar, o'tkir xulosalar— bular  
■ari ulkan shoirimiz qalamiga  
■ansub betakror fazilatlardir".

Ushbu parcha kimning tarjimayi holidan olingan? Ushbu parcha kimning tarjimayi holidan olingan?

- qarata aytgan qiziqsiz be'lih  
kitobga kirdi?  
A) O'tkir Hoshimov B) Erkin Vohidov C) Tohir Malikning E.Vohidovga  
D) A.Oripovning E.Vohidovga

6. Qaysi asar tarkibida "Jaholat haqida rivoyat" keltiriladi?

- A) "She'r dunyosi" B) "Ishq savdosi"  
C) "Ko'ngil nidosi" D) "Ruhlar isyoni"

7. "Tog'am kasbi yurist bo'lsa ham adabiyot va san'atga qiziqqan kishi edi. Uyimizga tez-tez kelib turadigan shoirlar xonandalar, buyuk olim va tarjimonlar, pochta xizmatchlari, savdo xodimlarining zukko bahslariga mahliyo bo'lib o'tirardim. Ular Hofiz, Navoi, Bedil, Fuzuliy baytlarini tahlil qilishardi. Suhbatlar she'r va qo'shiq kayfi, askiya zavqi bilan muzayyan bo'lardi". Ushbu parcha kimning tarjimayi holidan olingan?

- A) O'tkir Hoshimov B) Erkin Vohidov C) Tohir Malik D) G'afur G'ulom

8. E.Vohidovga shuhrat keltirgan "Oltin devor" asari qaysi janrda yozilgan?  
 A) drama B) ballada  
 C) komediya D) lirik doston
9. E.Vohidov kimning asarlarini tarjima qilgan?  
 A) I. Gyote B) S. Yesenin  
 C) L. Ukrainka, M. Svetlov  
 D) A,B va C javoblar
10. 2000-yilda E. Vohidov ellik yillik ijod mahsulini saralab to'rt kitob tartib etdi. Shulardan o'smirlik va yoshlilik asarlari jamlangani qaysi?  
 A) "Ishq savdosi" B) "She'r dunyosi"  
 C) "Umr daryosi" D) "Ko'ngil nidosi"
11. E.Vohidovning "Ruhlar isyonii" asari qaysi janrda yozilgan?  
 A) drama B) roman C) qissa D)  
 doston
12. 2000-yilda E. Vohidov ellik yillik ijod mahsulini saralab to'rt kitob tartib etdi. Shulardan turli yillarda yozilgan risola, badiiy lavha va tahlillari jamlangani qaysi?  
 A) "Ishq savdosi" B) "She'r dunyosi"  
 C) "Umr daryosi" D) "Ko'ngil nidosi"
13. Quyidagi qaysi asar o'zining isyonkor she'rлari bilan butun Hindistonni erk uchun, ozodlik uchun kurashga ruhlantirgan otashin bengal shoirining orzu-armonlari, jasorati, fojiaviy qismati haqida?  
 A) "She'r dunyosi" B) "Ishq savdosi"  
 C) "Ko'ngil nidosi" D) "Ruhlar isyonii"
14. 2000-yilda E. Vohidov ellik yillik ijod mahsulini saralab to'rt kitob tartib etdi. Shulardan ellik yoshdan keyingi bitiklar jamlangani qaysi?  
 A) "Ishq savdosi" B) "She'r dunyosi" C) "Umr daryosi" D) "Ko'ngil nidosi"
15. *"Asar garchi Nazrul Islom haqida bo'lsa-da, unda me shoir hayoti bahonasida o'zimning umuman shoirligi inson hayotining ma'nosi, hayotning ham shafqatsiz, adolatli haqiqati haqidagi o'y-mulohazalarimni aks ettirdim"*  
 misralari qaysi asar haqidaligini aytинг.  
 A) "Vijdon erki" B) "Inson sadoqati"  
 C) "Ruhlar isyonii" D) "Bengaliya"
16. E.Vohidov quyidagi nashriyotlarda faoliyat ko'rsatgan?  
 A) "Yosh gvardiya" B) "G'ulom" C) "Yoshlik" D) javoblar
17. "Tug'ilgansan ozod, Ozod bo'lib qol!" misralari muallifi kim?  
 A) E.Vohidov B) Fitrat Hamza  
 D) Nazrul Islom
18. Qaysi asarga "Tug'ilgansan ozod,"

mudom Ozod bo'lib qol!" misralari  
epigraf qilib olingan?  
A) "Vijdon erki" B) "Inson sadoqati"  
C) "Ruhlar isyoni" D) "Bengaliya"

19. Quyidagi qaysi asarda dinlar  
o'rtasidagi nizolarga olib kelgan  
fojialar tasvirlanadi?

- A) "Mubayyin" B) "Ruhlar isyoni"  
C) "Shaytonning tangriga isyoni"  
D) "Vaqfiya"

20. "Ruhlar isyoni"da yozilishicha,  
hind va musulmonlar orasidagi  
urushda kim sababchi qilib qamoqqa  
olinadi?

- A) bir ko'zi ojiz chol  
B) bir fatvochi imom C) N.Islom  
D) bir gulax hind

21. Qaysi asarda tirikligida xalqdan  
muruvvat ko'rмаган, gulkanda  
yondirilgandan so'ng esa  
donishmand deya ulug'langan hakim  
haqida rivoyat keltiriladi?

- A) "Vijdon erki" B) "Inson sadoqati"  
C) "Ruhlar isyoni" D) "Hayotga  
muhabbat"

22. Nazrul Islom necha yil yashagan  
va necha yoshida zindonda aql-u  
nushidan ayrilgan edi?

- A) 75 yil yashagan, 37 yoshida  
aqlidan ayrilgan  
B) 77 yil yashagan, 37 yoshida  
aqlidan ayrilgan  
C) 65 yil yashagan, 37 yoshida  
aqlidan ayrilgan  
D) 75 yil yashagan, 32 yoshida  
aqlidan ayrilgan

23. "Bu dunyoning quvonchi  
kam,Dard-u g 'ami — ziyoda  
Kalkuttani quchdi g'ulu, Bos  
ko'tardi olomon. Qutlug' jang  
deb turdi hindu, G'azot, dedi  
musulmon."

Quyidagi qaysi asar ushbu  
so'zlar bilan boshlanadi?

A) "Vijdon erki"  
B) "Inson sadoqati"  
C) "Ruhlar isyoni" D)  
"Bengaliya"

24. Quyidagi qaysi asar  
tarkibida "Shohi Jahon va  
Avrangzeb haqida rivoyat"  
keltiriladi?

A) "She'r dunyosi" B) "Ishq  
savdosi"  
C) "Ko'ngil nidosi" D) "Ruhla  
isyoni"

25. "Ruhlar isyoni"da  
keltirilgan "Shohi Jahon va  
Avrangzeb haqida rivoyat"da  
Shohi Jahonning bir bedavo  
dardi bor edi. Rafiqasi Shohi  
Jahondan bu qanday dardligi  
so'raganda u qanday javob  
beradi?

A) farzand dog'i dardi B) ishq  
dardi  
C) bobo yurt Andijon dardi  
D) befalokat taxtni tark etish  
dardi

26. "Aslida-ku hayot og'u,  
Tur mush o'z i— zimiston.  
Bosqinchining qadimdan oq  
Falsafasi ayondir.  
El ichida bo'lsa nifoq,  
Demak, zolim omondir.

*Ular Mazlum vatanida Bo'lmasin der sobitlar.*

*Eldan omad ketsa, dastlab Hamjihatlik yo'qolgay" misralari qaysi asardan olingan?*

A) "Vijdon erki" B) "Inson sadoqati" C) "Ruhlar isyon D) "Hayotga muhabbat"

## O'TKIR HOSHIMOV

1. Quyidagi yozuvchilardan qaysi biri o'z tarjimayi holiga "Mashaqqatli safar" deya nom bergen?  
A) Tohir Malik B) O'tkir Hoshimov C) Abdulla Oripov D) M.Yusuf

2. "Bolaligimni eslasam, iliq yoz kechalari ko'z oldimga keladi...", degan so'zlar bilan boshlanuvchi asar berilgan qatorni aniqlang?  
A) "To'rt maktub"  
B) "Qalbingga qulqoq sol"  
C) "Dunyoning ishlari" D)  
"Kvazarlar"

3. "Menga qolsa, ijod jarayonida qandaydir ilohiyot bor, degan bo'lur edim. Haqiqiy ijodkor Xudo ko'nningliga solganda qo'liga qalam oladi. Chinakam badiiy asar yozilmaydi, tug'iladi" so'zлari muallifi kim?  
A) Tohir Malik B) O'tkir Hoshimov  
C) Abdulla Oripov D) M.Yusuf

4. Quyidagi yozuvchilardan qaysi biri "Inson sadoqati" nomli asar yozgan?  
A) Jek London B) O'.Hoshimov  
C) Said Ahmad D) Najib Mahfuz

5. "Mening bobom Abulqosimxon eshon Turkiston tarixida chuqur iz qoldirgan ulug' shaxslardan bo'lgan, o'zbek tilidan tashqari arab, fors, rus tillarini mukammal bilgan". Ushbu so'zlar kimning tarjimayi holidan olingan?  
A) Tohir Malik B) O'tkir Hoshimov  
C) Abdulla Oripov D)  
M.Yusuf

6. Turkistonning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishiga.qarshi kurashning g'oyaviy rahnamolaridan biri bo'lib, 1892-yilgi "Vabo isyonini daf qilishda jonbozlik ko'rsatgan Abulqosimxon eshon avlodni hisoblangan yangi o'zbek adabiyoti nomoyondasi qaysi qatorda berilgan?  
A) Tohir Malik B) O'tkir Hoshimov C) Abdulla Oripov D) M.Yusuf

7. "Men Toshkentning Do'mbirobob qishlog'iда tug'ilgan ekanman. Otam Atouulloxon eski kitoblarni

*ham, zamonaliviy adabiyot va gazetalarni ham muntazam o'qib borar, o'ta haqparast, nohaqlikni ko'rsa yonib ketar edilar. Onam Hakima aya esa otamning aksicha, nihoyatda yuvosh, juda mehribon edilar. Oilamizda bir qiz, tort o'g 'il bor edik. Men uchinchi o'g 'il edim..." misralari kimning tarjimayi holidan parcha hisoblanadi?*

A) Tohir Malik B) G'afur G'ulom  
C) E.Vohidov D) O'tkir Hoshimov

8. "Qissaga atoqli adib Abdulla Qahhor nihoyatda xayrixohlik bilan xat yo'zganidan keyingina o'zimga ishonch paydo bo'ldi. Menden yozuvchi chiqishi mumkin ekan, degan xayolga bordim. 1966-yildan 1982-yilgacha «Toshkent oqshomi» gazetasida bo'lim mudiri, 1982-yildan 1985-yilgacha Gafur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida bosh muharrir o'rinnbosari bo'lib "hladim" Ushbu so'zlar kimning tarjimayi holidan olingan?"

A) O'tkir Hoshimov B) Tohir Malik C) Abdulla Oripov D) M.Yusuf

9. O'tkir Hoshimovning birinchi shikoyasi qaysi?

A) "To'rt maktub"  
B) "Qalbingga qulqoq sol"  
C) "Kvazarlar qissasi" D) "Inson sadoqati"

10. O'tkir Hoshimovning qissalari qaysi qatorda berilgan?

1) "Nur borki, soya bor"; 2)  
"Bahor qaytmaydi"; 3)  
"Qalbingga qulqoq sol";  
4) "Tushda kechgan umrlar"; 5) "Kvazarlar"; 6)  
"Ikki karra ikki — besh".  
A) 1,2,3,4,5,6 B) 1,2,3,5,6  
C) 2,3,5,6 D) 2,3,4,5,6

11. O'tkir Hoshimovning romanlari qaysi qatorda berilgan?

1) "Nur borki, soya bor"; 2)  
"Bahor qaytmaydi"; 3)  
"Ikki eshik orasi";  
4) "To'ylar muborak"; 5)  
"Tushda kechgan umrlar"; 6) "Ikki karra ikki — besh"; 7) "Inson sadoqati"; 8) "Vijdon dorisi".  
A) 1,2,3,5 B) 1,3,7,8  
C) 2,3,4,5,7,8 D) 2,3,5,8

12. O'tkir Hoshimovning sahna asarlari qaysi qatorda berilgan?

1) "Nur borki, soya bor"; 2)  
"Bahor qaytmaydi"; 3)  
"Ikki eshik orasi"; 4)  
"To'ylar muborak"; 5)  
"Tushda kechgan umrlar"; 6) "Ikki karra ikki — besh"; 7) "Inson sadoqati"; 8) "Vijdon dorisi".  
A) 4,5,8 B) 1,4,7,8 C) 4,7,8  
D) 2,3,5,8

13. "Har gal yangi kitobim chiqishi bilan bиринчи нусхасини Onamga taqdim etardim, «Bиринчи устозим Oyimga» deb yozib berardim" misralari kimning tarjimayi holidan parcha hisoblanadi?
- A) Tohir Malik B) G'afur G'ulom  
C) E.Vohidov  
D) O'tkir Hoshimov
14. "Nurli dunyo", "Umr savdosi", "Daftar hoshiyasidagi bitiklar", "Osmondan tushgan pul" kabi asarlar muallifi kim?
- A) Tohir Malik B) O'tkir Hoshimov C) Abdulla Oripov D) M.Yusuf
15. 1985-yildan 1995-yilgacha «Sharq yulduzi» jurnalida bosh muharrir bo'lib ishladim. Jurnal sahifalarida muqaddas Qur'oni karimning ma'no tarjimasi tarixda bиринчи marta o'zbek tilida bosildi... Ushbu so'zlar kimning tarjimayi holidan olingan?
- A) O'tkir Hoshimov B) Tohir Malik C) Abdulla Oripov D) M.Yusuf
16. Quyidagi adiblardan qaysi birlari aynan bir nomli asar yozgan?
- A) T. Malik va O'.Hoshimov  
B) O'. Hoshimov va E.Vohidov  
C) A. Oripov va O.Matjon  
D) M.Yusuf va O'tkir hoshimov
17. "Xudoga shukr, shu paytgacha 50 dan ortiq kitobim
- turli tillarda 2 milliondan ko'proq nusxada chop etildi. Qalamkash, avvalo, inson bolasining quvonch va iztiroblarini, muhabbati va nafratini, buyukligi va tubanligini haqqoniy tasvirlamog'i lozim. Shundagina uni kitobxon tan oladi, kitobini bag'riga bosib o'qiydi". Ushbu fikrlar muallifi qaysi qatorda berilgan?
- A) Said Ahmad B) Chingiz Aytmatov C) E.Vohidov D) O'tkir Hoshimov
18. "Dunyoda odamlarni yaxshi ko'rishdan ham kattaroq baxt yo'q"-degan so'zlar qaysi asarda uchraydi?
- A) "To'rt maktub" B)  
"Qalbingga quloq sol" C)  
"Bahor qaytmaydi" D)  
"Inson sadoqati"
19. "Aslida har qanday asarda ham ma'lum ma'noda qalamkash biografiyasining bir bo'lagi aks etadi (hatto tarixiy romanlarda ham)... Yozuvchi o'zi yozayotgan asarga qalbini bag'ishlaydi" Ushbu so'zlar kimning tarjimayi holidan olingan?
- A) O'tkir Hoshimov B)  
Tohir Malik C) Abdulla Oripov D) M.Yusuf

20. O'tkir Hoshimovning bobosi  
Abulqosimxon eshonning  
Toshkentda hukm surgan vabo  
kasalini o'zi bilan birga olib  
ketib butun xalqni ofatdan  
qutqargani haqida kim

"Turkiston viloyatining gazeti"-  
dagi bir maqolasida hayratlanib  
vozadi?

- A) Veryovkin B) Vyatkin  
C) Barsov D) Ostroumov

21. "... Hamisha bir orzu bilan  
yashayman. Shunaqa kitob  
yozsangki, uni o'qigan kitobxon  
hamma narsani unutsa, asarni  
o'qib bo'lgan kuni kechasi bilan  
uxlolmay, to'lg'onib chiqsa.  
Oradan yillar o'tib asarni  
qaytadan qo'liga olganida tag'in  
hayajonlansa... ". Ushbu so'zlar  
kimning tarjimayi holidan  
olingan?

- A) O'tkir Hoshimov B) Tohir  
Malik C) Abdulla Oripov D)  
M.Yusuf

22. "Bahor qaytmaydi"  
missasidagi Alimardonning  
ushlog'i qanday nomli edi?  
A) Bo'ston B) Baxtniso  
C) Galatepa D) Guliston

23. "Birovning go'riga birov  
shmas" maqoli quyidagi  
sarlarning qaysi birida  
chraydi?  
A) "To'rt maktub"  
B) "Hayotga muhabbat"  
C) "Bahor qaytmaydi" D) "Inson  
sadoqati"

24. "Bahor qaytmaydi"  
qissasida Anvarning  
onasining ismi nima?  
A) Mehri xola B) Iqbol xola  
C) Saodat xola D) Safiya  
xola

25. Xadicha, Huri opa,  
Anvar, Klara, Mutual  
Qodirov kabi obrazlar  
qaysi asar qahramoni?  
A) "To'rt maktub" B)  
"Hayotga muhabbat"  
C) "Bahor qaytmaydi" D)  
"Inson sadoqati"

26. Alimardon kimga uylanadi?  
A) Do'sti Anvarning sevgilisi  
Muqaddamga  
B) Do'sti Anvarning sevgilisi  
Xadichaga  
C) Do'sti Anvarning sevgilisi  
Hurixonga  
D) Do'sti Anvarning  
sevgilisi Saodatga

27. Alimardonning  
o'g'lining ismi nima edi?  
A) Shamshod B)  
Shovqiddin C) Shavkat  
D) Baxtiyor

28. Alimardonga: "Odam  
bolasi tug'ilgan paytida  
pokiza bo'ladi-ku. Uning  
umrbod shunaqa pokiza  
bo'lib qolishi sizga, menga,  
hammagaga bog'liq  
emasmi?", -degan gaplarni  
kim aytadi?  
A) Anvar  
B) Iqbol xola  
C) Muqaddam  
D) Mutual Qodirov

## ABDULLA ORIPOV

1. Quyidagi yozuvchilardan qaysi biri o'z tarjimayi holiga "Ko'rgan-bilganlarim" deya nom bergan?
- A) Tohir Malik B) O'tkir Hoshimov C) Abdulla Oripov D) M.Yusuf
2. "Mening tug'ilib o'sgan, bolaligim o'tgan joylar Qarshi (Qadimgi Nasaf) shahridan besh-o'n chaqirim shimalroq tomondagi Qo'ng'irtov etaklaridadir. Qishlog' imning nomini Neko'z deydilar..." Ushbu so'zlar kimning tarjimayi holidan olingan?
- A) O'tkir Hoshimov B) Tohir Malik C) Abdulla Oripov D) M.Yusuf
3. Quyidagi adiblardan qaysi birlari aynan bir yilda tavallud topishgan?
- A) O'tkir Hoshimov va Abdulla Oripov B) Tohir Malik va Abdulla Oripov C) Abdulla Oripov va Erkin Vohidov D) M.Yusuf va Abdulla Oripov
4. A.Oripov qaysi baxshining dostonlarini eshitib katta bo'lgan?
- A) Juma shoir B) Fozil shoir C) Polvonniyoz shoir D) Umur shoir
5. A.Oripov kimdan "Navoiy kitob"dagi Navoiy asarlarini tinglab katta bo'lgan?
- A) qo'shnisi Kamolxon eshondan B) onasi Turdixol ayadan C) otasi Orifboydan D) qo'shnisi Bibi momodan
6. "Maktabni oltin medal bilan bitirdim. Akalarim turli shaharlarga o'qishga ketib qolgani uchun otam meni qo'yib yuborgisi kelmasdi... 1958-yil Toshkent davlat universiteti filologiya fakultetining jurnalistikা bo'limiga kelib qoldim. Birinchi marta respublika bolalar gazetasida «Qushcha» degan she'rim bosilib chiggan..." misralari kimning tarjimayi holidan parcha hisoblanadi?
- A) Tohir Malik B) A.Oripov C) E.Vohidov D) O'tkir Hoshimov
7. A.Oripovning "Oq yo'l" va "Sharq yulduzi" she'rlari kimning e'tirofiga sazovor bo'ladi?
- A) Mirtemir B) M.Shayxzoda C) A.Qahhor D) Ozod Sharafiddinov
8. "Ayri ham tushdi ba'zan qalb bilan, iyomon bilan" misralari kimning qaysi she'ridan olingan?

A) M.Yusufning "Mehr qolur, muhabbat qolur" she'ridan  
B) U. Nosirning "Yurak" she'ridan  
C) A.Oripovning "Birinchi muhabbatim" she'ridan  
D) Z.Mo'minovaning "Muhabbat bor edi, muhabbat mavjud" she'ridan

9. A.Oripovning "Munojatni tinglab" va "Bur gut" she'rlari kimning e'tirofiga sazovor bo'ladi?

- A) Mirtemir B) M.Shayxzoda  
C) A.Qahhor  
D) Ozod Sharafiddinov

10. "Uyg'onguvchi bog'larni kezdim,  
Topay dedim qirdan izingni.  
Uchratmadim ammo o'zingni,  
— Sen bahorni sog'inmadingmi?  
misralari muallifi. kim?  
A) Zulfiya B) A.Oripov  
C) E.Vohidov D) O'tkir Hoshimov

11. A.Oripov she'riyat sabog'ini kimdan oladi?  
A) Mirtemir B) M.Shayxzoda  
C) A.Qahhor D) Ozod Sharafiddinov

12. "Holbuki orzulardan judo sam bo'lganim yo'q,  
Yulduzday kulganim yo'q, oy kabi to'lganim yo'q,  
Ecta xazon gul kabi sarg'ayib 'lganim yo'q", - degan so'zlar unning qaysi she'ridan lingan?

A) M.Yusufning "Mehr qolur, muhabbat qolur" she'ridan  
B) U. Nosirning "Yurak" she'ridan  
C) A.Oripovning "Birinchi muhabbatim" she'ridan  
D) Z.Mo'minovaning "Muhabbat bor edi, muhabbat mavjud" she'ridan

13. A.Oripovga «*Shoir, sizga bitta gapim bor.*  
*Ehtiyot bo'lgaysiz, ishqilib qarsaklardan taltayib ketmasangiz bo'lgani*, - degan gaplarni kim aytadi?

- A) Mirtemir B)  
M.Shayxzoda  
C) A.Qahhor D) Ozod Sharafiddinov

14. A.Oripovning "Sen bahorni sog'inmadingmi?" she'ri qaysi shaklda yozilgan?  
A) musallas B) murabba'  
C) muxammas D) musaddas

15. "Mana, bugun navro'zi olam,  
Do'stlarimga gullar tutarman,  
Qaylardasan, sevgili erkam...  
Qo'limda gul, seni kutarman,  
Umrin bo'yli chorlab o'tarman."

misralari kimning qaysi she'ridan olingan?  
A) H.Olimjonning "O'rik gullaganda" she'ridan  
B) A.Oripovning "Sen bahorni sog'inmadingmi?" she'ridan  
C) A.Oripovning "Birinchi muhabbatim" she'ridan  
D) Z.Mo'minovaning "Muhabbat bor edi, muhabbat mavjud" she'ridan

16. A.Oripovning "Birinchi muhabbatim" she'ri qaysi shaklda yozilgan?  
A) musallas B) murabba'  
C) muxammas D) musaddas

17. *"Dunyo degan shundayin anglab bo'lmas sir ekan, Goh keng ekan, gohida tuyuksiz qasr ekan, Lekin inson hamisha bir hisga asir ekan..."* misralari kimning qaysi she'ridan olingan?  
A) H.Olimjonning "Orik gullaganda" she'ridan  
B) A.Oripovning "Sen bahorni sog'inmadingmi?" she'ridan

C) A.Oripovning "Birinchi muhabbatim" she'ridan  
D) Z.Mo'minovaning "Muhabbat bor edi, muhabbat mavjud" she'ridan

18. *"Yo'lin yo'qotsa odam — muhabbatga suyangay, G'ussaga botsa odam — muhabbatga suyangay, Chorasiz qotsa odam — muhabbatga suyangay"*, misralari kimning qaysi she'ridan olingan?  
A) H.Olimjonning "O'rik gullaganda" she'ridan  
B) A.Oripovning "Sen bahorni sog'inmadingmi?" she'ridan  
C) A.Oripovning "Birinchi muhabbatim" she'ridan  
D) Z.Mo'minovaning "Muhabbat bor edi, muhabbat mavjud" she'ridan

## TOHIR MALIK

1. Tohir Malikning fantastik asarlari berilgan qatorni aniqlang?  
1) "Somon yo'li elchilar"; 2)  
"Zaharli g'ubor"; 3) "Chorrahada qolgan odamlar"; 4) "Falak"; 5)  
"So'nggi o'q".  
A) 1,2,3,4,5 B) 2,3,4,5 C) 2,4 D)  
1,2,3,4

2. Tohir Malikning detektiv asarlari berilgan qatorni aniqlang?  
1) "Charxpalak"; 2) "Bir ko'cha, bir kecha"; 3)  
"Chorrahada qolgan odamlar"; 4) "So'nggi o'q";  
5) "Shaytanat".

A) 1,2,4,5 B) 2,3,4,5 C) 2,4,5 D)  
1,2,3,4,5

3. "O 'zbekiston xalq yozuvchisi  
1946-yil dekabrda Toshkentda  
ziyoli oilada dunyoga keldi.  
Uning kitobga sezgan akasi  
birinchi sinfga borgan ukasiga  
hozirga qadar e'zozlab  
saqlayotgani — «Mard yigit»  
ertaklar to'plamini souga qildi"  
misralari kimning tarjimayi  
holidan parcha hisoblanadi?  
A) Tohir Malik B) A.Oripov  
C) E.Vohidov D) O'tkir  
Hoshimov

4. "... o'qigim kelardi, student  
bo'lib yurgim kelardi. Olim  
bo'lib oq «Volgavlarda kerilib  
yurgim kelardi». Alvido, bolalik”  
qissasida qaysi obrazning xuddi  
shunday orzu-armonlari bor edi?  
A) Turob B) Ergash  
C) Qamariddin D) Otaulla

5. Tohir Malik nechanchi  
sinfdan ijod ustida mashq qila  
boshlaydi?  
A) beshinchi B) to'rtinchi  
C) uchinchi D) ikkinchi

6. "Uning yonidan sira pul  
arimasdi. Bolalarni hamisha  
mehmon qilib yurardi. Uning  
vujudida ham mehr, ham  
vahshiylit yashiringan edi".  
Alvido, bolalik” qissasidagi  
ushbu ta'rif kim haqida?  
A) Turob B) Ergash  
C) Qamariddin D) Otaulla

7. Tohir Malikka -“O'zing  
bilmagan narsani yozma”,  
“Boshqalar yurgan yo'ldan  
yurma, o'z yo'lingni top”,-  
degan o'gitlarni kim  
aytgan edi?  
A) Mirtemir B) M.Shayxzoda  
C) A.Qahhor D) M.Ismoiliiy

8. Tohir Malikning qaysi  
qissasi rus tiliga tarjima  
qilinib, Moskvada va  
boshqa respublikalarda  
chop etildi?  
A) “Falak” B) “Zaharli  
g'ubor” C) “Chorrahada  
qolgan odamlar”  
D) “So'ngi o'q”

9. Quyidagi qaysi asardan  
“hech kim jinoyatchi bo'lib  
tug'ilmaydi, bolani atrof-  
muhit, jamiyatdagi turli  
illatlar jinoyatchiga  
aylantiradi” degan xulosa  
chiqadi?

A) “Shaytanat” B) “Zaharli  
g'ubor” C) “Chorrahada  
qolgan odamlar” D)  
“Alvido, bolalik”

10. “Men o'smirlar va  
yoshlarning jinoyat  
ko'chasiga kirib  
qolayotganligiga befarq  
qarab turolmayman.  
Bolalar axloq tuzatish  
koloniyalariiga har  
borganimda yuragim eziladi.  
Ozod, erkin yashab, o'qib,  
hunar

*o'rganadigan bolalar bu yerga  
qanday tushib qoldilar"*  
Yoshlar taqdiridan kuyinib  
aytilgan ushbu fikrlar muaalifi  
kim?

- A) Said Ahmad B) Abdulla  
Qahhor C) Tohir Malik D) O'tkir  
Hoshimov

11. "Alvido, bolalik" asari  
qahramonlari to'g'ri berilgan  
qatorni aniqlang.

- 1) Asror; 2) Qamariddin; 3)  
Shomil; 4) Dilfuza; 5) Turob; 6)  
Manzura; 7) Samad aka; 8) Zoir;  
9) Ergash.  
A) 1,2,3,5,6,8,9 B) 1,2,5,6,7,8  
C) 1,3,4,5,6,7 D) 1,2,3,4,5,6,7,8,9

12. "Baxtli bolalik" emas,  
"Alvido, bolalik" deya insho  
yozsak bo'lmaydimi deb so'ragan  
o'quvchi kim?

- A) Turob B) Manzura  
C) Zoirali D) Asror

13. "Alvido, bolalik" qissasida  
"sochi kalta qirqilgan, durkun,  
otasi bir ahvolda, onasi yo'q,  
ko'ngli chinakam yarimta"  
personaj nomi qaysi javobda  
berilgan?

- A) Dilfuza B) Muqaddam  
C) Qamariddin D) Manzura

14. "Nahot jinoyat olami ularga  
jozibali ko'rinsa. Men jinoyat  
olamini shaytonlar yetovidagi  
zulmkorlar mamlakati deb atab,  
«ehtiyyot bo'ling, jigarlarim, bu  
ko'chaga yaqin yo'lamang. Boshi  
berk bu ko'chaning adog'ida

*faqatgina azobli, xorli o 'lim  
topasiz», demoq niyatida  
asar yozdim. Yozganlarimni  
ogohlantirish deb qabul  
qilishlarini istardim”*

Jinoyat olami kimsalari  
taqdiridan kuyinib aytilgan  
ushbu fikrlar mualifi kim?  
A) Said Ahmad B) Abdulla  
Qahhor C) Tohir Malik D)  
O'tkir Hoshimov

15. Tohir Malikning "Alvido,  
bolalik" asari qaysi janrda  
yozilgan?

- A) roman B) doston C)  
qissa D) drama

16. Quyidagi qaysi asarda  
“Kecha qayerda edik yoxud  
har ehtimolga qarshi  
topilgan

bahonalar haqida hikoya”  
nomli bob uchraydi?

- A) "Shaytanat" B) "Zaharli  
g'ubor" C) "Bir ko'cha, bir  
kecha"  
D) "Alvido, bolalik"

17. "Bolalik — hayotning  
asl pallasi, undan ko'proq  
bahramand bo'lishga  
intiling.

*Asaldan keyin turli  
achchiqliklarga duch  
kelasiz”* kabi ibratlari  
fikrlarni qaysi asarda  
uchratish mumkin?

- A) "Bolalik" B)  
"O'tmishdan ertaklar" C)  
"Sariq devni minib" D)  
"Alvido, bolalik"

18. "Alvido, bolalik" qissasida kitob o'qishni jonidan yaxshi ko'radian obraz kim?

- A) Turob B) Manzura  
C) Zoirali D) Asror

19. "Alvido, bolalik" qissasining qaysi qahramoni akasining jasadini Afg'onistondan olib kelishganda onasi bunga chidolmay jinni bo'lib qolgan, yeti bola otasining qo'lida qolgan?

- A) Turob B) Manzura  
C) Zoirali D) Asror

20. "Alvido, bolalik" qissasida otasi ketib qolgan, onasi bilan turadigan obraz kim?

- A) Turob B) Manzura  
C) Zoirali D) Otaulla

21. "Alvido, bolalik" qissasida "*Men baxtliman, chunki otamningpuli ko'p*" deya olmaydigan personaj kim?  
A) Turob B) Ergash  
C) Zoirali D) Otaulla

22. "*Ota-onasi injener, uyida o'zi-yu singlisi. Gazetaga xabar yozadi. Nima istasa shunga erishadi*". "Alvido, bolalik" qissasidagi ushbu ta'rif kim haqida?

- A) Turob B) Manzura  
C) Zoirali D) Otaulla

23. "Alvido, bolalik" qissasida otasi aravakash, dars tugashi

bilan somonbozorga yuguradigan obraz kim?  
A) Dilfuza B) Ergash  
C) Zoirali D) Otaulla

24. "Alvido, bolalik" qissasida injiq otasining ikki oyog'i qirqib tashlangan, onasiz qolishning naqadar baxtsizlik ekanini tuygan obraz kim?

- A) Dilfuza B) Ergash  
C) Zoirali D) Asror

25. "Alvido, bolalik" qissasida otasi bilan to'yma-to'y sang'ib yuradigan, otasi to'ylarda o'yinchi xotinlarga suykaladigan personaj kim?

- A) Dilfuza B) Ergash  
C) Zoirali D) Asror

26. "Alvido, bolalik" qissasida Asrorga kim takror-takror "Seni o'qitaman, professor bo'lasan" derdi?  
A) pyanista otasi  
B) o'qituvchisi Samad aka  
C) Qamariddin D) Zoirning otasi

27. "Alvido bolalik" qissasida kim "... Yo'lto'sarlik qilmas edi. Ayniqsa, yosh bolalarga tegmas edi. Qizigi shuki, u yosh bolalarga tegishga yo'l qo'ymasdi, ammo biron-bir bolaning bu ishga qo'l urganini bilgach, uni jazolamasdi ham?"

- A) Turob B) Ergash  
C) Qamariddin D) Otaulla

28. "Dastlabki hikoyasi 1960-yilda «Gulxan» jurnalida chop etiladi. 1963-yilda Toshkent davlat universitetining kechki jurnalistika bo'limiga o'qishga kirib, kunduzi qurilishda duradgor, g'isht tashuvchi bo'lib ishlay boshlaydi." Ushbu so'zlar kimning tarjimayi holidan olingan?  
A) O'tkir Hoshimov B) Tohir Malik C) Abdulla Oripov D) M.Yusuf

29. 1949-yilda "xalq dushmani" sifatida qamoqqa olingan taniqli o'zbek adibi va tarjimoni Mirzakalon Ismoiliy quyidagi adiblardan qaysi birining tog'asi hisoblanadi?  
A) O 'tkir Hoshimov B) Tohir Malik C) Abdulla Oripov D) M.Yusuf

30. "Alvido, bolalik" qissasida kimning "marja" degan laqabi bor edi?  
A) Dilfuzaning B) Samar akaning C) Shomilning D) Manzuraning

31. Tohir Malikning qaysi asarida jinoyat ko'chasiga kirib qolgan insonlar tasvirlanadi?  
A) "Shaytanat" B) "Zaharli g'ubor" C) A va D javoblar D) "Alvido, bolalik"

32. "Qadimgi yunonlar odamni hayot ummonidagi qayiqqa, taqdirni esa shu qayiq

yelkanlariga urilib suruvchi shamolga qiyos etgan ekanlar". Ushbu so'zlar qaysi asarda uchraydi?  
A) "Shaytanat"  
B) "Zaharli g'ubor"  
C) "Bir ko'cha, bir kecha"  
D) "Alvido, bolalik"

33. Alvido, bolalik" qissasida Qamariddinning qanday nuqsoni bor edi?  
A) bir oyog'i kalta edi B) g'ilay edi C) doim so'kib gapirardi D) savodsiz edi

34. "Ota-onasiz o 'sayotgan bolalarning hayot falsafasi, hayot haqidagi, beimon otalar, bevafo onalar haqidagi tushunchalari ancha barvaqt shakllanadi. Ularning mitti yuraklarida bu beimonlarga, bu bevafolarga nisbatan nafrat ancha ilgari ko'z ochgan edi". Ushbu parcha qaysi asardan olingan?  
A) "Bolalik" B)  
"O'tmishdan ertaklar" C)  
"Sariq devni minib" D)  
"Alvido, bolalik"

35. "Alvido, bolalik" qissasida Qamariddinning onasi necha yoshida xabar oladi?  
A) 12 yoshida B) 11 yoshida C) 10 yoshida D) 9 yoshida

## MUHAMMAD YUSUF

1. “Qon yig’latdi qaysi bag’ritosh,  
Jayron, nega ko’zing to’la yosh?  
Oyog’ingga qoyib yotay bosh,  
Jayron, nega ko’zing to’la yosh?”  
misralari muallifi kim?

- A) M.Yusuf B) T.Sulaymon  
C) U.Nosir D) A.Oripov

2. H.Xudoyberdiyeva tili bilan  
aytganda “Yuraklarda  
*yurmagini,*  
*Oh, oldindan bilgan qush.*  
*Har o’zbekning yuragini,*  
*O’ziniki qilgan qush” kim?*  
A) M.Yusuf B) T.Sulaymon  
C) U.Nosir D) A.Qodiriy

3. “1954-yil 26-aprelda Andijon  
viloyati Qovunchi qishlog’ida  
tugilgan. 1971-yili maktabni  
tugatgach, Respublika rus tili va  
adabiyoti institutida tahsil  
oladi. Ijodiy faoliyati 1980-  
yildan boshlangan. 1997- yildan  
umrining so’nggi kunlariga  
qadar esa O’zbekiston  
Yozuvchilar uyushmasi  
raisining yoshlar bilan ishlash  
bo’yicha o’rinbosari lavozimida  
ishlagan” misralari kimning  
tarjimayi holidan parcha  
hisoblanadi?

- A) Tohir Malik B) A.Oripov  
C) E.Vohidov D) M.Yusuf

4. Quyidagi qaysi adiblar “Iltijo”  
nomli asar yozgan?  
A) T. Malik va M.Yusuf  
B) A.Oripov va To’ra Sulaymon  
C) E.Vohidov va To’ra Sulaymon

D) M.Yusuf va O’.Hoshimov

5. “Tanish teraklar”,  
“Bulbulga bir gapim bor”,  
“Iltijo”, “Uyqudagqi qiz”,  
“Halima enam allalari”,  
“Erka kiyik”, “Saylanma”  
kabi she’riy to’plamlar  
kimning ijod mahsuli  
hisoblanadi?  
A) M.Yusuf B) T.Sulaymon  
C) U.Nosir D) A.Oripov

6. M. Yusufga 1989-yilda  
qaysi she’riy to’plami  
uchun Respublika Yoshlar  
mukofoti berildi?  
A) “Uyqudagqi qiz”  
B) “Halima enam allalari”  
C) “Erka kiyik” D)  
“Saylanma”

7. M.Yusuf “Muhabbat”  
she’rida qaysi  
qahramonlarni tilga oladi?  
A) Tohir va Zuhra B)  
Kumush va Zaynab C)  
Layli va Majnun D) Otabek  
va Kumush

8. Muhammad Yusufning  
dastlabki she’rlari qaysi  
nashrda nechanchi yildan  
bosila boshlagan?  
A) “O’zbekiston adabiyoti  
va san’ati” gazetasida  
1976-yildan  
B) “Sharq yulduzi”da 1980-  
yildan

- C) "Guliston" jurnali"da 1976-yildan  
 D) "Tong yulduzi" gazetasida 1980-yildan
9. "Jayron", "Muhabbat", "Yangi yil kechasi" she'rlari muallifi kim?  
 A) Tahir Malik B) A.Oripov C) E.Vohidov D) M.Yusuf
10. "Yuraklarda yurmagini, Oh, oldindan bilgan qush. Har o'zbekning yuragini, O'ziniki qilgan qush". Ushbu she'r muallifi kim?  
 A) M.Yusuf B) T.Sulaymon C) H. Xudoyberdiyeva D) Z.Mo'minova
11. M.Yusufning "Jayron" she'ri qaysi shaklda yozilgan?  
 A) musallas B) murabba' C) muxammas D) musaddas
12. "Qancha ko'zlar menga zor edi, Na g 'am, na anduhim bor edi. Qushday yengil ruhim bor edi, Chok-chokidan so'kib qo'yding-ku". misralarida M.Yusuf nimaga murojaat qilyapti?  
 A) yolg'on dunyoga B) nafsga C) muhabbatga D) vaqtga
13. M.Yusufning "Muhabbat" she'ri qaysi shaklda yozilgan?  
 A) musallas B) murabba' C) muxammas D) musaddas
14. "Sen men uchun bir xayol eding,
- Yaxshi bor yo yaxshi qol eding.  
 Jon kerakmi — mana ol endi, Qiynarbo'lsang qiynab to'yding-ku" misralari muallifi kim?  
 A) Rauf Parfi B) A.Oriov C) M.Yusuf D) Cholpon
15. "Bilmam, nima edi maqsading, Menga bir just guling asrading. Birin otin Kumush atading, Birin otin Zaynab qo'yding-ku" misralarida qanday she'riy san'at qo'llangan?  
 A) tajohuli orif B) tazod C) husni ta'lil D) talmeh
16. M.Yusuf ijodiy faoliyatini qachondan boshlagan?  
 A) 1997-yildan C) 1976-yildan  
 B) 1980-yildan D) 1985-yildan
17. "Muhabbat, ey go'zal iztirob, Ko'chang kezdim sarson, domdirab, Yuzlarimga yuzlarining tirab, Ko'zlarimni boylab qo'yding-ku" Ushbu she'r muallifi kim?  
 A) M.Yusuf B) T.Sulaymon C) H. Xudoyberdiyeva D) Z.Mo'minova

18. "Sendan-da kumushroq  
sochimdag'i oq,  
Yilim kelmay turib, yilim  
ketmoqda,  
Ko'zda tabassum-u kiprikda  
titroq.  
*Men ham sal shoshdim-da,*  
*qaytaymi endi,*

*Kechagi yoshligim ertakmi  
endi*" misralari M.Yusufning  
qaysi she'ridan olingan?  
A) "Jayron" B) "Muhabbat"  
C) "Yangi yil kechasi" D)  
"Vaqt"

## JAHON ADABIYOTI XAZINASIDAN

### SA'DIY SHEROZIY

1. Sa'diy Sheroziyining asl ismi qaysi qatorda berilgan?  
A) Atoulloh B) Muslihiddin  
C) Muslim D) Husayn
2. Quyidagi qaysi adibning nomi butun Sharq-u G'arbdha mashhur bo'lib, hatto Yevropaning keyingi olimlari uning asrlariga murojaat etishgan?  
A) Fuzuliy B) Navoiy  
C) Sa'diy D) Maxtumquli
3. Quyidagi qaysi olim 1226-yil Bag'dodda tahsil oladi. So'ngra Janubiy Yevropa, Kichik va O'rta Osiyo, Xitoy va Hindiston mamlakatlariga 30 yil safar qiladi va buning natijasida tom ma'noda faylasuf olim, donishmand bo'lib yetishadi?  
A) Atoulloh Husayniy B)  
Muslihiddin C) Bahouddin  
Naqshband D) Sotti Husayniy
4. Kimning asarlarini tom ma'noda Sharq adabiyotida

- didaktik yo'nalishni boshlab berdi deyish mumkin?  
A) Atoulloh Husayniy B)  
Muslihiddin C) Bahouddin Naqshband D) Sotti Husayniy
5. Muslihiddinning "Keldimu" radifli g'azali necha banddan iborat?  
A) 7 banddan B) 8 banddan  
C) 9 banddan D) 10 banddan

6. "Ko'zlarim gar qayta ko'rmoqda nigorim chehrasin,  
Vah magarkim, murda tanga qayta jonim keldimu?!" misralari muallifini aniqlang.  
A) Fuzuliy B) Navoiy  
C) Sa'diy Sheroziy  
D) Maxtumquli

7. "Do'stlarimning suhbati xuddi olam jannati,

*Yo jahannamning o'ti  
nomunosib suhbati". Ushbu  
she'r muallifi kim?*  
A) Husayniy B) Muslihiddin  
C) Sakkokiy D) Sotti Husayniy

8. Sa'diy Sheroziy o'z  
she'rlarining birida umrining  
har soatini nima bilan shodon  
o'tishini aytadi va uni olam  
jannatiga qiyoslaydi?  
A) ijod B) sayr-u sayohat  
C) do'stlar davrasи  
D) moddiy mehnat

9. "Mol-u dunyo yaxshidur, tan  
sharif-u jon aziz,  
*Barchasidan ham baland yor  
vafodor hurmati*" misralari  
muallifini aniqlang.  
A) Fuzuliy B) Navoiy  
C) Sa'diy Sheroziy D)  
Maxtumquli

10. Muslihiddin kimlarni kitob  
ortilgan eshakka o'xshatadi?  
A) mol to'plab sarf etmaganlarni

B) zolim amaldorlarni  
C) o'qib o'qiganiga amal  
qilmaganlarni  
D) bo'ridek beklarni

11. "Mashaqqat chekmagan  
topmas xazina,  
*Tun ortidan kunduz kelar  
hamisha".*  
Ushbu she'r muallifi kim?  
A) Husayniy B) Muslihiddin  
C) Sakkokiy D) Sotti  
Husayniy

12. "Mol-dunyo qo'lga  
kirgizmoq hunarmas,  
Qo'lingdan kelsa gar bir  
dilni ovla",  
"O'tirg'il och-u bechora,  
yalang'och,  
*Vale nokasga aslo bo'lma  
muhtoj"* kabi o'gitlar  
muallifini toping?  
A) A, Navoiy B) Y.X. Hojib  
C) Muslihiddin D) Sayfi  
Saroyi

## JEK LONDON

1. "U asarlarida xalq  
ommasining o'z huquqlari uchun  
kurashini aks ettirgan,  
yoshligidayoq hayotning bor  
mashaqqatlarini boshidan  
kechirgan. Iqtisodiy ahvoli  
sabab universitetni tashlagan"  
Berilgan ta'rif qaysi ijodkorga  
tegishli?  
A) RaufParfi B) Shavkat Rahmon  
C) Jek London D) Chingiz  
Aytmamatov

2. Quyidagilardan Jek  
Londonning ocherklar  
to'plamini aniqlang.  
A) "Tubanlik kishilar" B)  
"Temir tovon" C) "Martin  
Iden" D) "Hayotga  
muhabbat"

3. Qaysi ijodkor o'z umrida  
150 dan ortiq hikoya  
yozgan bo'lib, hikoyalarida

asosan mamlakat shimoli va Okeaniya orollaridagi hayotni zo'r badiiy mahorat bilan tasvirlagan?

- A) Gyote B) A. Pushkin  
C) Jek London D) Chingiz Aytmatov

4. "Oq sukunat", "Qirq mil narida", "Otalar xudosi", "Sovuq bolalari" "Hayotga muhabbat" kabi hikoyalar muallifi kim?  
A) Jek London B) A. Pushkin  
C) Gyote D) Chingiz Aytmatov

5. Quyidagi qaysi ijodkorning qahramonlari har xil toifadagi, har xil fe'l-atvorli kishilar.  
Ular erkka intiladilar, o'z burch va majburiyatlarini har xil sharoitlarda sinab ko'radilar, hayot mashaqqatlarida toblanadilar, har qanday holatda ham odamiylikka xiyonat qilmaydilar?  
A) Raur Parfi B) Shavkat Rahmon C) Jek London D) Chingiz Aytmatov

6. Jek London o'zining ijodiy taoliyatini qachon boshlagan?  
A) 1889-yilda B) 1876-yilda  
C) 1898-yilda D) 1900-yilda

7. Jek London qayerga qilgan sayohatidan keyin "Tubanlik kishilar" ocherk to'plamini yozadi?

- A) Janubiy Amerikaga B)  
Fransiyaga C) Afrikaga D)  
Angliyaga

8. Jek London o'zining qaysi kitobida londonlik ishchilarining qashshoq hayotini tasvirlaydi?  
A) "Tubanlik kishilar"  
B) "Temir tovon" C)  
"Martin Iden"  
D) "Hayotga muhabbat"

9. Jek London o'zining qaysi asarida burjua jamiyatini qattiq tanqid ostiga oladi?  
A) "Temir tovon" B)  
"Tubanlik kishilar"  
C) "Martin Iden" D) A va C javoblar

10. Jek Londonning romanlari berilgan qatorni topping.  
A) "Oq sukunat", "Qirq mil narida"  
B) "Otalar xudosi", "Sovuq bolalari"  
C) "Hayotga muhabbat"  
D) "Temir tovon", "Martin Iden"

11. Kim o'zining hikoyalarida tabiatning asov kuchlariga qarshi mardona kurashuvchi kishilar hayotini zo'r badiiy mahorat bilan tasvirlaydi?  
A) Raur Parfi B) Shavkat Rahmon C) Jek London D)  
Chingiz Aytmatov

12. Jek Londonning qaysi hikoyasida hayotga bo'lgan muhabbatning o'lim

ustidan g'alabasi tasvirlangan?

- A) "Oq sukunat" B) "Otalar xudosisi"
- C) "Hayotga muhabbat"
- D) "Qirq mil narida"

13. "Hayotga muhabbat" hikoyasida suvda oyog'ini chiqarib olgan sheri giga hatto qayrilib ham qaramay o'z yo'lida davom etgan personaj kim?

- A) Tomas B) Montgomer
- C) Bill D) Diz

14. "... umid achchiq haqiqat bilan hisoblashishini istamas edi" so'zlari qaysi asardan olingan?

- A) "Oq sukunat" B) "Otalar xudosisi" C) "Hayotga muhabbat"
- D) "Qirq mil narida"

15. "Qo'llari yuqoriga chozildi, barmoqlari xuddi changak singari bukildi, lekin mehnati zoye ketdi. Tez va ishonch bilan harakat qilish uchun kuch kerak, unda esa kuch yo'q". Ushbu jumla qaysi asardan olingan?

- A) "Hayotga muhabbat"
- B) "Otalar xudosisi" C) "Oq sukunat"
- D) "Qirq mil narida"

16. "Odam ko'l makdagi kichkina baliqchani tutish uchun qilgan mehnati zoye ketganda ilk bor yig'lab yubordi". Ushbu jumla qaysi asardan olingan?

- A) "Hayotga muhabbat"
- B) "Otalar xudosisi" C) "Oq sukunat"
- D) "Qirq mil narida"

17. "... joni halqumiga tiqilganda ham o'limga bo'y sunishni istamasdan, hayotda uchrashi mumkin bo'lgan kurashlarning eng shiddatlisi ni quyidagi qaysi asar qahramoni yengib o'tadi?

- A) "Bahor qaytmaydi"
- B) "Alvido, Gulsari"
- C) "Sarob" D) "Hayotga muhabbat"

18. "Odam endi hayot uchun kurashmay qo'ydi. Undagi hayotning o'zi o'lishini istamas, shuning uchun ham uni ilgariga haydardi" satrlari qaysi asardan olingan  
A) "Bahor qaytmaydi" B)  
"Alvido, Gulsari"  
C) "Sarob" D) "Hayotga muhabbat"

19. "U hech narsani eshitmas, hech narsani tushunmas, qum ustida ulkan qurt singari buralar edi. U oldinga deyarli siljimas, lekin orqasiga ham qaytmasdi, buralib-buralib oldinga qarab harakat qilar va soatiga yigirma qadamdan yo'l bosardi". Ushbu jumla qaysi asardan olingan?  
A) "Hayotga muhabbat"

B) "Otalar xudosi" C) "Oq sukunat" D) "Qirq mil narida"

20. "U ovqatning mo'lligidan quvonar, boshqalarning og'ziga tushib yo'q bo'lib ketayotgan har bir luqma uni zo'r tashvishga solardi. Uning aqli joyida, lekin stol atrofida o'tirgan odamlarga nafrat bilan boqardi. Ovqatning tamom bo'lib qolishidan qo'rqib, bezovta bo'lardi" satrlari qaysi asardan olingan  
A) "Bahor qaytmaydi" B)  
"Alvido, Gulsari"

C) "Sarob" D) "Hayotga muhabbat"

21. Quyidagi qaysi asarda insonning yashashga bo'lgan tashnaligi uni yirtqich kabi hayvonning bo'g'zidan qon simirishga majbur etadi?  
A) "Hayotga muhabbat"  
B) "Qiyomat" C) "Oq sukunat" D) "Asrga tatigulik kun"

1."Bizning ovulimizda yetti pushtini bilish aqidasiga qat'iy rioxva qilinardi. Shu sababdan o'zimizdan oldin o'tgan yetti ajdodimizni bilish muqaddas burch ekanligi bolalikdanog ongimizga singdirilardi" misralari kimning tarjimayi holidan parcha hisoblanadi?  
A)Ch.Aytmatov B)A.Oripov  
C)E.Vohidov D)M.Yusuf

2."Bolalikda shuurga singdirilgan ona tiligina qalbni she'riyat bilan sug'orishi, insonda milliy g'ururning ilk kurtaklarini uyg'otishi va ajdodlar tilining naqadar serqirra va sermazmun ekanligini anglatishi mumkin" misralari muallifi kim?  
A)M.Yusuf B)T.Sulaymon  
C)Ch.Aytmatov D)A.Oripov

3. "1937- yil otam qataq'on qilindi. Oilamiz ovulga ko'chib keldi, shu vaqt dan men uchun qiyinchiliklarga to'la asl hayot maktabi boshlandi. Men juda erta ishlay boshladim: 10 yoshimda dehqon mehnatining barcha zahmatini tatifdim" misralari kimning tarjimayi holidan parcha hisoblanadi?  
A)Tohir Malik B)A.Oripov  
C)E.Vohidov  
D)Ch.Aytmatov.

4. "Bolalikda men hayotni yorqin, go'zal tasavvur etgan bo'lsam, endi u ko'z o'ngimda o'ta achchiq, og'ir, beshafqat tarzda namoyon bo'ldi. Men xalqimning ruhiy va jismoniy jihatdan

*nihoyatda zo'riqqañ davrlardagi  
ahvol-ruhiyatini o'z ko'zim bilan  
ko'rdim*" misralari muallifi kim?

- A)M.Yusuf    B)T.Sulaymon  
C)Ch.Aytmatov    D)A.Oripov

5.14 yoshida qishloq kengashiga  
kotib, urush yillari RayFOda  
soliq agenti, keyin bug'doy  
yig'imida traktorchilar brigadasi  
hisobchisi bo'lib ishlagan  
mashhur ijodkorni aniqlang?  
A)Mirtemir    B)Erkin Vohidov  
C)Ch.aytmatov    D)G'afur  
G'ulom

6."Yoshligimda badiiy  
adabiyotga oshno bo'lgan edim,  
shu boismi mакtabda erkin  
mavzularagi insholarni  
bajonidil yozardim. Institutda  
o'qish davomida shuni aniq  
sezdimki, badiiy adabiyot meni  
o'ziga tamoman band etgan edi"  
misralari qaysi ijodkorga  
tegishli?  
A)Rauf Parfi    B)Shavkat  
Rahmon    C)Shuhrat  
D)Chingiz Aytmatov

7.Chingiz Aytmatovning  
qissalari berilgan qatorni  
aniqlang.  
1)«Jamila»; 2)«Qizil durrali  
sarvqomatim»; 3) «Bo'tako'z»;  
4)«Birinchi muallim»; 5)«Erta  
qaytgan turnalar»; 6)«Momo  
yer»; 7)«Alvido; 8)Gulsari»;  
9)«Oq kema».  
A)1,3,5,6,7,8,9    B)2,4,6,8,9  
C)2,3,4,5,7,9    D)1,2,3,4,5,6,7,8,9

8.Chingiz Aytmatovning  
romanlari berilgan qatorni  
aniqlang.

- 1)«Jamila»; 2)«Asrga  
tatigulik kun»;  
3)«Qiyomat»; 4)«Birinchi  
muallim»; 5)«Erta qaytgan  
turnalar».  
A)1,2,3,5    B)2,3    C)2,4,5  
C)2,3,4,5

9.Ch.Aytmatovning  
asarlari dunyoning nechta  
tiliga tarjima qilingan?  
A)40 dan ortiq    B)50 dan  
ortiq    C)60 dan ortiq  
D)70 dan ortiq

10.Chingiz Aytmatov  
nomini jahonga mashhur  
qilgan asari qaysi qissasi  
bo'ldi?  
A)"Oq kema"    B)"Jamila"  
C)"Bo'tako'z"    D)"Momo  
yer"

11.Chingiz Aytmatovning  
40 dan ortiq tilga tarjima  
qilingan asarini aniqlang.  
A)"Asrga tatigulik kun"  
B)"Jamila"    C)"Bo'tako'z"  
D)"Momo yer"

12.Qaysi asarni fransuz  
tiliga tarjima qilgan Lui  
Aragon «muhabbat haqida  
yoziлgan jahondagi eng  
ajoyib qissa» deb  
baholaydi?  
A)"Bahor qytmaydi"  
B)"Sarob"    C)"Raymonda"  
D)"Jamila"

13."Xotin degan tangrining  
berganiga shukur qilib,  
ro'zg'orida birini ikki qilib  
yursa, shuning o'zi katta davlat.  
O'z qadr-qimmatningni bilsang,  
sira kam bo'lmayсан, doim  
matabang baland bo'ladi"  
Ushbu so'zlar qaysi asardan  
olingan?  
A)"Bahor qytmaydi" B)"Sarob"  
C)"Raymonda" D)"Jamila"

14."Jamila"da qaysi  
personajning sevgisi biror  
kishiga ishqil tushib, o'sha  
odamga ato qilingan sevgi emas,  
balki insonni yaratib, uni  
kamolga yetkazgan keng  
olamga, yorug' dunyoga bo'lgan  
cheksiz, jo'shqin sevgi edi!?  
A)Jamilaning B)Usmonning  
C)Doniyorning D)Seitning

15."... inson bolasi o'z ona  
tuprog'ini shunchalik seva  
olganligi uchun ham tiz cho'kib,  
o'sha tuproqni xuddi o'z  
onangdek quchoqlab o'pging  
keladi. Ana shunda, birinchi  
marta yuragimda qandaydir  
yangi bir his uyg'onib, qalbimni  
o'rtab, qani endi o'sha yerning  
nuqaddasligini, uning ko'rkin  
seza bilsam, seva bilsam, uning  
madhiyasini tarannum  
gilolsam" kabi fikrlar qaysi  
asardan olingan?  
A)"Yuzma-yuz" B)"Ona vatan  
nog'linchi" C)"Raymonda"  
D)"Jamila"

16."Jamila" qissasi  
qahramonlari berilgan  
qatorni aniqlang.  
1)Sodiq; 2)O'razmat; 3)Seit;  
4)Doniyor; 5)Usmon;  
6)Jamila.  
A)1,3,4,5,6 B)4,5,6  
C)2,3,5,6 D)1,2,3,4,5,6

17.Jamilani yaylovdagi  
chorvadorlar to'y  
munosabati bilan  
o'tkazilgan poygada unga  
yetolmay qolgani uchun  
olib qochib kelgan  
qahramon qaysi?  
A)Sodiq B)Usmon  
C)Doniyor D)Seit

18.Qaysi asar  
qahramonining xatti-  
harakatlarida allaqanday  
jo'shqinlik, erkaklarga xos  
fazilat bor edi?  
A)"Bahor qaytmaydi"  
B)"Sarob" C)"Raymonda"  
D)"Jamila"

19."... chet yerlarda ko'p  
yillar sarson-sargardon  
bo'lib, o'z el-yurtini ko'rish  
ishtiyogi bilan yashagan,  
shu quvonchli damni  
intazorlik bilan kutgan  
odamgina o'z ona  
tuprog'iga shunchalik mehr  
qo'yishi, uni shu qadar  
seva olishi mumkin" kabi  
fikrlar qaysi asardan  
olingan?

A)"Yuzma-yuz" B)"Ona vatan  
sog'inchi" C)"Raymonda"  
D)"Jamila"

20. . . *balki sevgi degan narsa  
inson har tomonlama kamolotga  
yetib, aql-idroki to'lgandan keyin  
paydo bo'ladigan bir  
tuyg'umikin? Bu ham shoir yoki  
rassom ilhomiga o'xshab insonga  
kuch-qudrat bag'ishlab, yangi  
orzu-umidlar, istiqbol sari  
yetaklovchi bir kuch  
emasmikin?"*  
Ushbu parcha qaysi asardan  
olingan?  
A)"Bahor qaytmaydi"  
B)"Sarob" C)"Raymonda"  
D)"Jamila"

21. "Bolalik nafaqat  
quvnoq davr, bolalik —  
inson shaxsi  
*shakllanishining ilk davri  
hamdir*" misralari kimning  
tarjimayi holidan olingan?  
A)M.Yusuf B)T.Sulaymon  
C)Ch.Aytmatov  
D)A.Oripov

22. "Aytishlaricha,  
qiyinchilik ko'rmaguncha  
yaxshi kunlarning qadriga  
yetmaysan" Ushbu so'zlar  
kimga tegishli? A)M.Yusuf  
B)T.Sulaymon  
C)Ch.Aytmatov  
D)A.Oripov

## ILOVA LUG'AT

(maktab va litsey-kollej darsliklaridagi matnlar bo'yicha)

### A

**Abdulhaq Homid** (1852—1937) — mashhur turk shoiri  
**abir** — xushbo'y modda, anbar  
**abrimishim** — ipak  
**abri nayson** — yomg'irli ko'klam  
**abror-yaxshi kishilar**  
**abyot** — baytlar  
**adam-yo'qlik**  
**addoi-duo qiluvchi**  
**adl-adolat**  
**a'do** — dushman  
**adu(v)-dushman**, yov aylamoq  
**afgor** — yaralangan, jarohatlangan, majruh; o'rtangan  
**afifa-pokiza qiz**  
**aflok** — falaklar, osmonlar  
**afruz** — kuydiruvchi; yorituvchi  
**afsar** — podshohilik toji  
**aftoda** — zaif, nochor  
**afg'on** — nola, fig'on  
**afgor** - jarohatlangan, majruh  
**afsar** — podsholik toji, jig'a  
**afsurda** — ruhsizlangan, so'ligan, so'lg'in, ilviragan, tushkun, o'nggan  
**afzun-ortiq**  
**ahad-yakka**, yagona  
**ahbob-do'stlar**, yorlar, sevimlilar  
**ahkom** — hukmlar, qonunlar  
**ahl** — istiqomat qiluvchi  
**ahli fazl-** fazilathi kishilar  
**ahli tamiz-fahm** egalari  
**ahli tasavvuf** — so'fiylar  
**ahli vuquf** — voqif, xabardor bo'lmoq  
**ajam-arab** bo'limgan xalqlar  
**ajun** — olam, dunyo  
**ajzchi** — yo'l ko'rsatuvchi  
**akbar** — eng ulu'g, eng katta  
**akmal** — eng mukammal, eng yetuk  
**akobir** — ulug'lar, kattalar  
**Akrambek** — Rijoizoda Akram (1847—1914) — «g'arbchi» jadidchi  
**ainoir**  
**al** — qo'l

**al(ol)-qizil**  
**a'lam** — bilimdon  
**alfoz** — lafzning ko'pligi  
**alhaq** — borliqning haqiqati, haqiqiy, bor, mavjud  
**alhol** — hozirda, shu paytda  
**alif** — eski alifboning birinchi harfi; abjad hisobida 1 ga teng  
**Allahu Akbar** — Allah buyuk  
**almisoq-juda qadimgi**, eski  
**alolo** — g'avg'o, shovqin-suron  
**alomon** — omonlik berish; omonlik berishga chaqiriq  
**alqov** — maqtov  
**altof** — lutflar, marhamatlar, yumshoqliklar, yaxshiliklar  
**alvon** — qizil ip gazlama  
**amlok** — mulklar, yer-suвлar, kishi tasarrufidagi buyumlar  
**amn** — tinchlik, omonlik  
**amo** — ko'r  
**amori** — odam tashish uchun tuyu yoki filga ortilgan kajava  
**amri ma'ruf** — yaxshilikka undash  
**amsol-o'xshashlar**, monandlar  
**amvoj** — mavjlar, to'lqinlar  
**amvol** — mollar, ashyolar  
**anbar-yoqimli**, xushbo'y qora modda  
**anbarafshon** — anbar sochuvchi  
**anbarbor** — qop-qora va isli, anbar isini tarqatuvchi  
**anbiyo-nabilar**, payg'ambarlar  
**andalib-bulbul**  
**andesh** — fikr, o'y; mulohaza qilmoq  
**andi-kelgindi**  
**andisha-ketini** o'ylab qilingan mulohaza, ehtiyyotkorlik  
**andom** — gavda, jism, qomat, qiyofa  
**anduh** — g'am, qayg'u  
**anduz** — oluvchi

anfos — nafaslar  
 angusht - barmoq  
 anis — do'st, yor  
**Anjolus (Andalus)** — Ispaniyaning qadimiy nomi  
 anjom — oqibat, oxir  
 anjum — yulduzlar  
 anjuman — majlis, yig'in, bazm  
 anjum sipahi — yulduzlar qo'shini  
 ano — mashaqqat, qiyinchilik, azob, uqubat, kulfat  
 anosir — unsurlar (suv, havo, tuproq, o't)  
 anqo-Qof tog'ida yashgan afsonaviy qush nomi, o'zi yo'q narsa  
**anqog'a shapig'**-nihoyatda tansiq, kam  
 ang'iz-ekinni o'rib olgandan so'ng tikkayib qolgan poyasi  
**apoxtar** — (Avestoda ) do'zax  
 aqbo — dovon, qiyinchilik  
 aqli qosir-aqli zaif  
 aqrabo — yaqinlar, qarindoshlar  
 aqvol — so'zlar  
 arab alfozi — arab tili; arab so'zları  
 arbadasoz — to'polonchi, g'avg'oga moyil  
 arjumand — qadrli, hurmatli, e'tiborli, eng aziz  
 arkon-ustun  
**arkoni davlat** — davlat arboblari  
 aroda — arosatda qolgan  
 arsa — maydon  
 art-tepa, dovon  
**arus(e)** — kelin, kelinchak  
 arz-1)shikoyat; 2)yer sharining bir qismi  
 arz to samo — yer-u osmon  
 arg'umoq-toy, ot  
 arsh-falakning eng yuqori qatlami; oly taxt  
 arg'uvon-qizil gulli daraxt, qizil yuz ma'nosida  
 archi — agarchi  
 asig' — foyda, naf  
**Asmoi husna-** Ollohnning go'zal ismlari  
 asno — vaqt, payt, holat  
 aso — hassa

asov-bo'yusundirilmagan, o'rgatilmagan  
**asror** — sirlar  
 asru — juda, haddan ziyod, ortiq darajada  
 as'hah - haqiqat  
 as'hob-hamsuhbatlar  
**atfol** — go'daklar, yosh bolalar; ishq atfoli — yosh oshiqlar  
**at'imma** — taomlar  
**avaxta-turma**  
**avbosh** - bebosh, sayoq bezori, daydi  
**Avesto**-o'rnatalig, muqarrar qilingan hayotning asosiy yo'riqnomasi  
**avfoj**- to'dalar, guruhlar  
**avhom** — qo'rquv  
**avliyo** - valiyning ko'pligi  
**avom** — umum, omma, olomon, xalq, oddiy kishilar  
**avroq** — varaqlar, sahifalar; barglar  
**axgar** — qizarib yonib turgan olov; laxcha cho'g'  
**axiy** — birodar, oshna  
**axtar** — yulduz  
**Axuna Varya**— zardushtiylikda e'tiqod duosi. U islomdag'i kalimayi vahdat va kalimayi shahodat singari vazifalarni ado etgan  
**Axuramazda**-Zardushtiylikning oly, ezbilik xudosi. U bu dinda yaratuvchi, xoliq, yakka-yu yagona xudo sifatida tan olingen  
**axzar** — ko'm-ko'k, yashil  
**axzarvash** — yashiltob  
 ayl — o'n  
**aylondur** — aylantir  
**aymoq va ahshom** — xilma-xil xesh-urug'lardan deyilmochi  
 ayn — ko'z  
**ayog** - oyoq  
**ayoq** — qadah, soqiy va oyoq ma'nolarida  
 kelishi mumkin  
**ayoqchi** — may quyuvchi, soqiy

kosagul

**Ayyomi ajuz-qishning so'ngi haftasi**  
**Ayyub-sabr** timsoli bo'lgan payg'ambar  
(badanini qurt bosgan, sabr ila undan xalos  
bo'lgan)

ayg'ir-uch-to'rt yoshli erkak ot  
ag'yor-begonalar, boshqalar, g'ayirlar;  
raqiblar

**azbaski** — chunki, shuning uchun

**azimul jussa** — katta jussali

**azmanaiy qadimdan** — eski  
zamonlardan

**azru-mansabdan olish**

**a'rof-jannat** va do'zax oralig'i

**Asha** — haqiqat timsoli. Sraosha uning  
hamrohi. Ular kishilarni yaxshilikka  
undovchi ma'budlardir

**ashal** — eng oson, qulay

**ashavan** — rostlik, to'g'rilik, haq,  
haqiqat so'zlarining sinonimi

**ashi'ayi** — shu'lalar

**ashjor** — daraxt

**ashk** — ko'z yoshi

**ashk xun** — ko'z yoshi qon

**ashrof-e'tiborli kishilar**, ulug'lar

## B

**bad** — yomon

**ba'd-keyin**, so'ng

**badho'**-yomon qiliq

**badnom** — yomon otliq

**badr** — to'lin oy

**badxoh** — yomonlik talabgori, yovuz  
niyathi

**bahar range** — har qalay

**bahim** — to'rt oyoqli hayvon

**Bahor** — joy nomi

**bahoyim** — hayvonlar

**bahr** — daryo, dengiz

**bahrayn** — bahr(dengiz)ning ikkiligi,  
ikki dengiz

**bahri xudoro** — xudo haqqi

**Bahrom-Mars** sayyorasi, Mirrix

**bajid** — jiddiy

**bajo** — 1. o'rniga, joyiga; 2. o'rinli, mos  
keladigan

**bakovul** — bosh oshpaz

**baldayi mahfuza** — qo'rg'on shahar

**bale** — ha, barakalla singari  
tasdiq ma'nosini bildiruvchi so'z  
**baliyat-balolar**, ofatlar, ozorlar  
**balosho'r** — balo keltiruvchi  
**Balva** — joy nomi

**Bani bashar** — odam farzandi

**banogoh** — birdan, to'satdan

**banogo'sh** — qulq solinchog'i,  
sirg'asi

**baq'alar** — kambag'al talabalar,  
musofirlar yashaydigan hujralar

**baqar** — mayda pul ma'nosida

**baqo** — davom etish, saqlanish

**bardor** — ko'tarish

**barf** — qor

**barhamzan** — yo'gotuvchi, ostin-  
ustun qiluvchi, nobud qiluvchi

**baron** — uning ustiga

**Barot** — hijriy yil hisobida  
sakkizinchchi oy bo'lgan

sha'bonning o'rtasi, bayram kuni

**barot** — yorliq

**barq** — chaqin; yashin

**barri Arab** — Arab yeri

**barra-(forscha)** qo'zichoq

**barr-u** — yer yuzi

**barter** — mol almashtirish

**barumand** — bahramand,  
foydanuvchi

**base** — juda

**basir-butov**, ko'rmaydigan

**basta** — bog'liq, band, bog'langan

**batsiq-g'arb**, mag'rib

**baxshish-sadaqa**, ehson

**bayt ul-hazan** — g'am uyi;  
Yaqubning ayriliqdagi hayiti

**bazl** — in'om, saxiylik

**bazmi majolis** — ilohiy ishq

**bazmi**

**bazur-qiyinchiliksiz**, bemalol

**bazo'r-zo'rg'a**

**bashar** — inson, odamzod

**bebok** — shafqatsiz;

qo'rqmasdan

**bedav-o'ynoqi**, uchqur

**bedil** — o'ta darajada oshiq,  
maftun

**bedod** — zulm; adolatsizlik

**bedordil** — qalbi, shuuri uyg'ooq  
**begarona** — cheksiz, bahosiz, hadsiz  
**behbud-sog'lomlik**  
**behisht oso** — jannatga o'xhash  
**behroq** — yaxshiroq  
**bekas** — hech kimi yo'q  
**bekaslik** — kimsasizlik, g'ariblik,  
yolg'izlik  
**bemoya** — sarmoyasiz  
**bemuhab** — parvo  
**benavo** — faqir, notovon, bechora,  
baxtsiz  
**benazir** — tengsiz, o'xhashi yo'q  
**beqayd-erkin**  
**bermon** — bermayman  
**besar-u po** — besaranjom, ovora  
**besubut-va'dasida turmaydigan**  
**Besutun** — Farhod qazigan tog' nomi  
**bexirad-aqlsiz**  
**bexor** — tikansiz  
**bezobita** — tartibsiz  
**besha** — to'qay, o'rmon  
**beshumor** — sanoqsiz, ko'p  
**biaynih** — go'yo, xuddi, kabi  
**bid'at-eskilikdan qolgan rasm-rusm**  
**bihisht-jannah**  
**bihor** — dengizlar  
**bikr** — qiz bola, toza, bokira ma'nosida  
**bilfe'l-o 'zicha, o'zboshimcha**  
**bihamdilloh** — Ollohga maqtov  
**bilga - dono**  
**bilig-bilim**  
**bilmon-bilmayman**  
**Bilqis-Sulaymon payg'ambarning**  
**suyukli sevgilisi**  
**binni** — o'g'li  
**binoyi xayr** — xayrli (yaxshi)  
**qurilishlar**  
**bir nav'i** — bir narsa qilib  
**bistar** — to'shak  
**bitig** — yozma, yozma asar  
**bistar** — ko'rpa, to'shak  
**bisyor** — ko'p; juda  
**biyik** — ulug', buyuk  
**biym** — qo'rquv, xavf  
**bob, bobo** — ulug' mashoyix, shayx,  
pir, valiy  
**bobarg** — bargli

**bod** — shamol  
**boda** — may, sharob  
**bodi xazon** — xazon yeli; kuz  
shamoli  
**bodiya** — cho'l, dasht, sahro  
**bodpoy - eloyoq**  
**boj** — savdo solig'i  
**bol afshon** — qanot qoquvchi  
**bolo** — yuqori  
**bom** — tog'  
**boqa** — qaraganda  
**boqiy** — davomli, uzluksiz,  
abadiy  
**bor** — yuk  
**borgoh** — dargoh  
**borkash** — yuk tashuvchi,  
hammol  
**bot** — tez, ildam, darrov  
**botil** — puch; noto'g'ri, asossiz  
2. Qalbaki yo'ldan borish,  
adashish  
**botin** — ich, ko'ngil  
**botmon-og'irlik o'lchov birligi;** 1  
botmon 8 pudga teng  
**bovar qilmoq** — ishonmoq  
**bovli** — boylam, dasta  
**bovujud** — shunday qilib,  
shunday bo'la turib  
**Boxtar-g'arb, g'arb tomon**  
**bog'ot** — bog'lar  
**bozigar** — firibgar  
**bud** — borliq  
**bud-nobud** — bor-yo'q  
**budun-xalq**  
**bulbuloso** — bulbultabiat,  
bulbuldek, bulbul singari  
**bulmoq** — topmoq  
**bulon-yovvoyi ot**  
**bum** — boyqush  
**bum** — zamin, yer, quruq joy  
**bu nav** — bu xil (da); bu tarz  
**burhon** — dalil, hujjat, guvoh,  
dastak  
**burnt** — mo'ylab, murut  
**buroq-** Muhammad (s.a.v.) me  
kuni mingan ot  
**burqa** — yuzga tutiladigan  
parda, niqob

**burudat** — sovuq  
**butmogan** — tuzalmagan;  
tugatmagan; o'smagan  
**buti siyminbar** — kumush tanli  
sanam  
**butramoq**-tarqalmoq, ketmoq  
**butrotmoq** — tarqatmoq, to'zitmoq,  
parokanda qilmoq  
**buxl** — baxillik  
**buxor** — bug', tuman  
**buzrug** — ulug', katta  
**bug'z** — g'azab  
**Bushyasta** — Zardushtiylikda  
dangasalik timsoli  
**bo'gu-dono**  
**bo'rк** — telpak  
**bo'ryo** — bo'yra  
**bo'yla** — bunday  
**Bo'yla bag'atarxon** — To'nyuquqning  
unvoni  
**bo'z-ko'kka** moyil oq rang  
**bo'zlamoq**-zor-zor yig'lamoq

## D

**da'b** — odat, qiliq, xislat  
**dabiston-maktab**  
**daf** — qaytarish, ketkazish  
**daf'atan-kutilmaganda**; yana  
**dafi** — qaytarish, rad etish  
**dafna-doim** yashil bo'lib turuvchi  
xushbo'y daraxt; lavra  
**dahr-ochun**, dunyo  
**dahri dun(parvar)** — teskaricha,  
pastkash dunyo  
**dajjol-o'taketgan** yomon odam  
**daler-dovyrak**  
**dallayi muxtola** — makkora,  
qo'shmachi  
**damodam** — dam-badam, uzlucksiz,  
ketma-ket  
**dani** — past  
**dangona** — ulfatchilik joyi  
**dar** — eshik  
**darang bo'lmoq** — to'xtamoq  
**darband** — darvoza, eshik oldi; qal'a  
**dardisar** — boshog'rig'i  
**dar go'sh** — quloqda  
**darmonda** — dar qolgan; hayron,

qiyan ahvolda qolgan;  
nochorlikda, aro yo'lda qolgan  
**darranda-sut emizuvchi**  
hayvonlar  
**darun** — ich, ichki  
**darvesh** — 1. faqir, yo'qsil, 2.  
tariqatda faqirlig yo'li  
**dasisa-hiyla**, nayrang  
**dastomuz** — qo'lga o'rgatilgan  
**dastor** — salsa  
**dastrast** — qo'li tegmoqlik  
**dast topmag'on** — qo'lga  
kirimagan  
**dast topmoq** — qo'lga olmoq  
**davlatxoh** — xayrxoh, do'st  
**davr** — davra ma'nosida va g'am,  
falak  
**davron gardishi** — davrning  
aylanishi, ya'ni zamonning zayli,  
tuzumning sharoiti  
**davvor** — davr etuvchi,  
aylanuvchi (gumbaz)  
**daxl** — aloqa, aralashish  
**daxli bejo** — o'rinsiz aralashish  
**dayr** — butxona, ko'chma  
ma'noda, mayxona va umuman  
dunyo  
**dag'i** — 1. tag'in, yana; 2. hamda  
  
**degul** — emas  
**dekada-o'n kun**, o'n kunlik davr  
**delvagay** — yengil  
**desyatina-yuza o'lchov birligi**; 1  
desyatina 1,09 getktarga teng  
**digar** — o'zga, boshqa  
**dilafgor** — dili xasta, dili vayron  
**dilbar** — ko'ngil eltuvchi,  
mahbub  
**dilgir** — ranjigan, xafa, bo'g'ilgar  
**diljam** — xotirjam qat'iyatli,  
o'ziga ishongan  
**diljamliq** — xotirjamlik, ko'ngli  
to'qlik  
**dilkash ilhon** — yoqimli ovozlar  
ashulalar, xonishlar, sayrashlar  
**dilkusho-ko'ngil ochuvchi**  
**dilsiton** — dilni oluvchi,  
ko'ngilni o'ziga asir etuvchi,

dilbar, ko'ngil ovlovchi; sevgili  
 dilosoy — ko'ngil ovlovchi  
 dilovar — qo'rmas, botir  
 dilovez — yoqimli  
 diltang-xafa, xomush  
 dilxoh — ko'ngil istagan, yoqimli  
 diydayi giryon — yig'layotgan ko'z,  
 yig'loqi ko'z  
 diyda namnok — ko'zi yoshli  
 diydor talab — xudo diydorini  
 ko'rishga talabgor  
 Dizzax - Jizzax  
 dobon — dovon  
 dod — adolat  
 dodar — uka  
 dofi — daf qiluvchi  
 dol-egilgan, bukilgan  
 dol — dalil, dalolat  
 dolu — to'rzuoz  
 dom — tuzoq  
 doman(a) — etak  
 domod — kuyov  
 donish — bilim, ma'lumot  
 donishoyin — donishmand  
 doroyi — egasi, boshlig'i  
 dorulqazo — qozixona  
 doxil — tarkibi  
 dog'uli-ayyor  
 dorug'ay kutubxonaiy humoyun —  
 podsho kutubxonasining boshlig'i  
 dud — tutun  
 dun — past, razil, nokas  
 durafshon — dur sochuvchi  
 durahd — ahida amal qilmaydigan  
 durar — katta marvarid  
 durbosh — tahdid  
 durd — quyqa  
 durdona — marvaridning bir donasi  
 durfishonlig' — dur sochish, ya'ni  
 yosh to'kish  
 durj — quti  
 durnisor — dur sochuvchi  
 durposh — dur kabi sochilgan  
 durri samin — qimmatbaho gavhar  
 durri g'alton — yumaloq dur  
 durroj-qirg 'ovul  
 dushmankomlig' — dushman,  
 dushmancha

dushvor-mushkul, qiyin  
 dushvorlig' — qiyinchilik,  
 og'irlilik, mushkullik  
 do'gar — to'kar  
 do'non-3-4 yashar erkak ot

E

edar — etar  
 egn — yelka  
 ehmol — qiyinchili, mashaqqat  
 ehtimom — ahamiyat berish  
 ehtisob — hisob-kitob, tahlil;  
 taqilash  
 ehtisob ahli — taftishchilar  
 elig-hukmdor  
 emgak — mehnat, mashaqqat  
 emin — omon, amonda, tinch,  
 xavfsiz  
 erdam-fazilat, yaxshi xislat  
 Erhubbi — islomgacha bo'lgan  
 davrdagi avliyo  
 erik-mard, botir, erkin  
 ev-uy  
 evrulmoq — aylanmoq,  
 o'girilmoq  
 etdigumdandir —  
 etganimdandir, qilganimdandir  
 e'tidol — mo'tadil  
 e'timod-ishonch  
 Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu  
 amal birligi- "Avesto" dagi bos  
 g'oya  
 e'zid-Oolloh  
 e'zoz — qadrlash, hurmat  
 engay — kelish, qo'nish, mehn  
 bo'lish  
 eng — yuz, yonoq

## F

falaktoz — falakka chopuvchi  
 ko'kka ko'tariluvchi  
 fam — og'iz  
 fan — hunar  
 fano omoda bo'ldi —  
 yo'qolishga tayyor bo'ldi (o'lar  
 holatga yetdi)  
 faqih — din ilmi bilimdoni  
 faqr — kambag'allik, yo'qsilli

kamtarlik  
faqir — musofir odam, sirdosh  
maslakdosh topmagan, o'zini begona  
his etgan kishi, haqparast darvesh  
**farang**-Yevropa  
**farahgustar** — quvontiruvchi  
**fard** — yakka, yolg'iz, ajralgan  
**fargard** — kesik yoki bo'lak, qism  
**Farhod** — bu so'z afsonaviy  
Farhodning sifatlari: tog' qazuvchiligi,  
qahramonligi, sabot, matonatini  
ifodalaydi  
**faroz** — balandlik  
**farog'** — tinchlik, xotirjamlik, rohat,  
istirohat; bo'shash, ozodlik  
**farog'at** — osudalik, tinchlik; rohat;  
ozodlik  
**farrux** — baxtli, saodatli, omadli,  
go'zal, chiroylli, ulug'  
**farruxoyin** — yaxshilik keltiruvchi,  
baxtiyor qiluvchi  
**farsuda** — eskirgan; ezilgan; horg'in,  
holsizlangan, qiyngangan  
**farxunda** — saodatmand, yaxshi,  
muborak  
**farkundaroy** — dono, oqil  
**farzona** — donishmand  
**farsh** — to'shash, yotqizish  
**fasil** — devor ma'nosida  
**fasona** — afsona  
**fatgon** — fitna qiluvchi, maftunkor  
**fath** — g'alaba  
**fatonat** — zehn  
**fatton** — fitna qiluvchi, maftunkor  
**Fag'fur** — Xitoy xoni Pog'dixon.  
She'riyatda ko'pincha Xitoy xoni  
ma'nosida ishlatalidi  
**fash** — sallaning pechi  
**fikan** — soluvchi, tashlovchi  
**filhaqiqat** — darhaqiqat, haqiqatan  
**filhol** — o'sha zahoti  
**fi

og'urslar** — qadim yunon olimlari  
**fiqh** — islom huquqshunosligi  
**fir'avn-qadimgi** Misr podsholarining  
umumiy nomi, dunyoga mehr qo'yib  
Xudoni esdan chiqargan shoh timsoli  
**firdavs-jannat**  
**fribomez** — yolg'onsifat

**firoq** — ayriliq  
**fivor** — qochish  
**firuz-g'olib**, zafar quchgan  
**fitna** — to'polon, g'avg'o, janjal  
**foniy-o'tkinchi**  
**foqa** — kambag'allik  
**forig'** — tinch, xotirjam, ozod,  
xoli  
**forug'**bol-xotirjam, ehtiyojsiz  
**foytun-izvosh**  
**funun-fanlar**  
**furug'** — shu'la, porloqlik  
**Fusaxolar** — so'zga chechan  
odamlar, go'zal so'zlovchilar  
**futuh** — g'alaba, xushnudlik 2.  
ochilish, kuchayish  
**futur** — halokat, shikast, zarar  
**fuzun** — ortiq, ziyoda, ko'p  
**fo'ta** — ipak o'ramabelbog'

## G

**ganj** — xazina, boylik  
**garan** — og'ir, qadrli  
**gardanshikasta** — bo'yni egik  
**gardon-aylanadigan**  
**gardun** — osmon gumbazi, falak;  
dunyo, olam  
**garduni nofarjom** — oqibatsiz,  
bevafo, notugal falak  
**garm** — issiq, qiziq, qizg'in  
**gavharafshon** — gavhar sochish  
**gayr** — o'zga, boshqa, begona, yet  
**gayur** — jasur  
**gazand** — zarar, ziyon-zahmat,  
ofat  
**gazanda-zaharli**, chaqadigan  
hasharotlarning umumiy nomi  
**gazof** — bema'ni, behuda  
**gasht** — aylanish, kezish, sayr  
etish  
**gesuyi musalsal** — halqasimon,  
zanjirsimon, jingalak soch  
**getinamo** — olamni ko'rsatuvchi  
**gila** — gina, o'pkalash  
**gino** — boylik  
**gird** — atrof  
**gireh** — chigal, tugun

**giribon** – kiyim yoqasi  
**giribon chok** —yoqasi vayron  
**giriftor** — yo'liqqan; uchragan, asir bo'lgan, band bo'lgan  
**girih** — tugun  
**girihgir** — tugunli  
**giryon-yig'layotgan**  
**gisu-o'rilgan soch**  
**gizo** — oziq, yegulik  
**Gohlar** (Zardushtning qo'shiqlari):  
 Zardusht she'rlari va ibodat payti ijro etiladigan matnlar  
**gom** — qadam, odim  
**gov** — ho'kiz  
**gudoz** — eruvchi, kuyuvchi  
**guftor** — so'z, so'zlash  
**guhar** — gavhar  
**guharrezlik-shirinso'zlik**  
**gulafshon** — gul sochuvchi  
**gulbun** — gul tupi  
**gulbuni ummid** — umid niholi  
**gulbog'** — gulzor, chamanzor  
**gulbong** — baland, yoqimli ovoz,  
 bulbul ovozi  
**gulfom** — gulrang  
**gulgun** — gulrang, qizil  
**gulpo'sh-gul** sochuvchi  
**gulgun-gul** yopingan  
**gulrux** — gul yuzli  
**guluzor** — gul yuzli  
**gulo'** — tomoq  
**gum** — yo'qolish  
**gumnom** — nom-nishonsiz  
**gumrah** — yo'ldan adashgan  
**gungurt-qora-sariq tus, qo'ng'ir**  
**gunogun** — rang-barang, xilma-xil  
**gustox** — sur (kishi), yuzsiz  
**guzar-o'tish, ketish**  
**guzar aylamoq** — kechmoq  
**go'r-yovvoyi eshak, qulon**  
**go'star** — yoyuvchi, taratuvchi  
**Go'y** — daryo nomi  
**go'yi siymin** — kumush koptok  
**go'shoviz** — qulorda osig'liq, sirg'a

## H

**habib** — do'st, juda yaqin o'rtoq  
**"Habib us-siyar"** — «Sevimli

do'stning tarjimai holi demakdir. Xondamir o'zining bu katta asarida Arab, Eron, O'rta Osiyo, Xuroson tarixining olam paydo bo'lganidan to XVI asrgacha o'tgan eng muhim davrlari haqida so'z yuritadi  
**habis** — dushman, yomon odam  
**hadadfur xora** — qattiq toshdar iborat nishon  
**hadis** — shuhurat, ovoza  
**hakim** - 1. faylasuf; 2.  
 donishmand, alloma; 3. tabib  
**hal** — aralash, ezilgan, tuyilgan  
**halqayı ushshoq** — oshiqlar halqasi  
**hamd** — maqtov, olqish  
**hamin bas** — shu yetarli  
**hammol** - yuk tashuvchi  
**hamnishast** — hamsuhbat, ulfa:  
**hamnishin-hamsuhbat**  
**hamroz-sirdosh**  
**hamyoza** — xomuza  
**hamzabon** — tildosh; dildosh  
**hangom** — chog', payt, g'animat payt  
**hangomi safo** — soflik vaqtı  
**haqir** — tuban, past, xor;  
 bechora  
**haqoyiq** — haqiqat  
**harim** — haram  
**haram** — 1. kirish man etilgan joy, ichki hovli yoki uy; 2. urush o'ldirish, mol so'yish man etilgan muqaddas joy  
**harif** — sherik; o'rtoq, ulfat  
**harimi vasl** — vasl harami  
**hariq** — kuyuvchi, yonuvchi  
**haros** — qo'rquv  
**harrof** — so'zchi, chechan  
**harza** — behuda, bekorchi so'z  
**harzago'y-sergap**  
**hasin** — o'tib bo'lmaydigan;  
 mustahkam  
**hassos** — hissiyat, chuqr tuyg  
**havo** — orzu, istak, havas  
**havodorliq** — takabburlik  
**havodis** — hodisalar, voqealar

o'zgarishlar, yangiliklar  
**havoparvard** — 1. orzumand. 2.  
parvozni istovchi  
**hayrat etmon** — ajablanmayman  
**hayvon suyi** — tiriklik suvi (afsonaviy  
suv)  
**hayyoti gardun** — osmon chodirdozi  
**hazin** — qayg'uli, mungli, g'amgin,  
hasratli  
**hazira** — xilxona  
**hazorə - ming**  
**hazardastən** — bulbul  
**hazratda** — hazratdargoh, podsho  
huzuri  
**hazratida** — huzurida, oldida  
**hechkas** — hech kim  
**hifz** — saqlash, qo'riqlash  
**hifzi jon** — jonni saqlash tumori  
**hijob** — parda  
**hijron** — ayriliq  
**hikmatmaob** — hikmatparast  
**hilm** — muloyimlik  
**hilol-yangi chiqqan oy**  
**hilol abro'** — hilol (oy) dek qoshli  
**Hinduston maxsusı** —  
Hindistondagina bo'ladigan  
**Hiri** — Hirotning erkalatma shakli  
**hirmon** — mahrumlik, bebahralik,  
benasiblik, yetisha olmay qolish;  
umidsizlik  
**hirqat** — kuyish; g'am, qayg'u  
**hirzi jon** — jonni saqlovchi tumor  
**hisni** — qo'rg'on, qal'a, istehkom  
**hisor** — qal'a, qo'rg'on  
**hodiy** — to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi  
**hojat** — zaruriyat, ehtiyoj  
**hokxor** — 1. kamtarin, oddiy, sodda;  
2. xor, tuban  
**holə** — oyning qo'rg'onlashi  
**holo** — hozir, endilikda  
**hosid** — hasadchi, birovning yutug'ini  
ko'rolmaydigan kishi  
**hotam-saxiylik**  
**hub(b)** — don, dona  
**hubob** — suv yuzidagi pufakcha  
**hubob** — ko'pik  
**hudhud-** sassiqpopishak  
**hulla** — nozir va nafis kiyim; mato

**humo** — davlat qushi. baxt  
**humoyunfol** — kelajagi qutin  
baxtli  
**hunardushman** — hunarni,  
san'atni sezmaydigan  
**huqqayi yoqut** — yoqut quticha  
**hur** — jannat qizi  
**huvaydo** — aniq ko'rinish  
turadigan; aniq, ravshan, paydo,  
ko'rinish  
**huy** — huy tortib nola chekmoq  
**ho'y** — fig'on

## I

**ibo** — tortinish, ko'nmaslik, uyat,  
hayo  
**ibroniy-yahudiy**  
**ibtido** — boshlanish  
**iglik** — kasal, betob  
**iflos** — qashshoqlik, pulsizlik,  
sinish, hech narsasi qolmaganlik,  
muhtojlik  
**ifrot-me'yordan oshishlik,**  
haddidan oshish  
**ifsho** — fosh, oshkor qilish  
**ihtiroq** — yonish, alanga  
**ijobat** — qabul qilish  
**ijtinob-o'zini chetga olish,**  
tortinish  
**ikroh** — jirkanish, xunuk  
hisoblash; istalmagan, yomon  
ko'rilgan ishni majburan bajarish  
**ikrom** — 1. karam (oliyanoblik  
qilish); 2. izzat qilish  
**iktifo** — kifoya qilmoq  
**ilig** — qo'l  
**ilmi hol va ilmi qol** — ilm  
turlari  
**ilvasin-qarchig'aysimon yirtqich**  
qush  
**ilg'amoq** — hujum bilan bormoq  
**imdad-yordam, ko'mak**  
**infiol** — hayajonlanish  
**ingek-sigir**  
**inju** — marvarid, dur  
**Inju o'g'uz** — Sirdaryoning  
O'rxun-Enasoy obidalaridagi  
nomi nomi  
**inonmoq** — ishonmoq

**inoyat** — lutf-u ehson, mehribonchilik,  
 marhamat, yordam, iltifot, bag'ishlash  
**inbisot** — shodlik, xursandlik  
**inbisot anduz** — shodlikka to'la  
**intiboh** — ogohlaniş va ogohlantirish  
**intiho** — oxir, so'ng  
**inchka** — ingichka  
**iqbol** — davlat, boylik; omad, yaxshi  
 kelajak  
**iqlim** — mintaqa, qit'a (qadim olimlar  
 yer yuzini jug'rofiy yetti iqlimga  
 ajratganlar)  
**iqomat** — yashash  
**iqtido** — ergashish  
**irfon-bilish**, tanish  
**irin-lab**  
**irodat** — xohish, istak, qasd, muridlik,  
 berilish  
**irtifo** — ko'tarilish, yuksalish  
**irtifo'** — ko'tarilish, yuksalish;  
 balandlik  
**irshod** — to'g'ri yo'l ko'rsatish  
**Iskandar** — jahongir Aleksandr  
 Makedonskiy (358—323)  
**ismat** — poklik, ma'sumlik  
**isor** — bag'ishlash; in'om qilish,  
 ayamay taqdim qilish  
**isqot** — olib tashlash, soqit qilish  
**isror-qat'iy** talab  
**istifodat** — foydalanish, ilm olmoq  
**istihqoq** — biror narsaga loyiqlik  
**istiloh** — atama, termin  
**istimo'** — eshibosh  
**istig'for** — xudodan gunohni  
 kechirishni so'rash, qilgan gunohlariga  
 tavba qilish  
**istig'for qilg'il** — tavba qil  
**istig'no** — 1. e'tiborsizlik, beiltifotlik;  
 2. muhtoj bo'lmaslik hissi 3. noz,  
 tortinish  
**itgan** — yo'qolgan  
**itob-ta'na**, ma'lomat; qahr, g'azab,  
 qyinoq  
**itolg'u** — ovchi qush  
**ittihod** — birlik  
**ixfo** — yashirish, berkitish, maxfiy  
**ixroj** — surgun  
**ixtilot** — aralashish, bordi-keldi qilish

**i y a r t i b** — ergashtirib  
**iyd** — bayram  
**iydi qurbon** — qurbon hayiti  
**iymanmas** — iymanmaydi,  
 hazar qilmaydi  
**izzat** — azizlik, qadr-qimmat  
**ishkol** — chigal, qiyinchilik,  
 mushkullik  
**ishrat paymonalari** —  
 xursandchilik qadahları  
**ishtiboh** — shak-shubha, gumon  
**ishvagar** — ishva qiluvchi

## J

**jabbor(jabro', jobir)-jabr**  
 qiluvchi  
**jabin** — manglay  
**jafogustar** — jafo qiluvchi,  
 jafokor  
**jahonafruz** — jahonni yorituvchi  
**jaldu** — mukofot  
**jalodat** — ulug'lik, bahodirlik  
**jamriy** — past tabaqa vakili  
**jaras** — qo'ng'iroq, karvon  
 tuyasidagi qo'ng'iroq  
**jarima** — gunoh  
**jasta** — sakragan, irg'ib chiqqan  
**javlon-jang**, urush  
**javshan** —sovut  
**Jayxun** — Amudaryoning  
 qadimgi nomi  
**jazba** — jalg etish  
**jej ko'rmoq-yomon ko'rmoq**  
**jiba** — urush kiyimi, Sovut  
**jiblajibon-** ingichka va uzun  
 dumli chumchuqsimon qush  
**jilvagoh** — jilva (nur) joy  
 yaltirab ko'rinish o'rni; ko'rinish  
 joyi  
**jinohi tayr** — qanotli parranda  
**jinon-jannat**  
**jismi so'zon** — o'rtanayotgan  
 vujud  
**jivor** — yon, atrof  
**jodu** — sehr, avrash  
**joh** — mansab, amal, martaba  
**joh ahli** — mansab, amal egalasi  
 adabiyotda ma'rifatsiz kishilar

**john** — mansab, martaba  
**jola** — yomg'ir, do'l  
**jom** — qadah, may piyolasi  
**jomi Jam-afsonaviy** podshoh Jamshid  
ixtiro qilgan jom, ichidagi mayi  
tugamaydigan va olamni ko'rsatib  
turadigan qadah  
**jomi jamoli soqiy** — soqiy jamolining  
jomi  
**jonso‘z-jon o‘rtovchi**, azob beruvchi  
**jonib(ig‘a)** — tomon, taraf, jihat  
**jov** — yov  
**jovid(on)** — abadiy, mangu, doimiy  
**jozib** — tortuvchi; jozibali  
**jozim** — jazm qiluvchi  
**jud** — in'om, ehsan; qo'li ochiqlik,  
saxiylik  
**juhud-yahudiy**  
**junun-telbalik**, majnun, savdoyilik  
**junun dafi** — telbalikni daf etish  
**jura** — qultum  
**justujo'y** — qidirish  
**juu** — ochlik; ishtaha  
**juvonnard-oliyhimmat**, saxiy  
**juz** — bo'lak, qism, fasl, daftar  
(qo'lyozma kitoblarda)  
**juzdon-papka**  
**jung** — katta kema  
**Jo'n** — daryo nomi  
**Jo'npur** — daryo nomi  
**jo'sh** — yonmoq, chanqamoq; qaynash;  
majozan g'ulg'ula, g'avg'o

## K

**kaf** — kaft  
**kafi poy** — oyoq tagi  
**kahrabo-sariq rangli ma'dan**  
**kaj** — teskari  
**kajnihod** — yomon xulqli, yomon  
tabiatli  
**kajraftor** — makkor, teskari  
aylanuvchi, egri yo'lga yuruvchi  
**“Kalila va Dimna”** — mashhur masal  
va hikoyalar to'plamidir, Hindistonda  
Bidpoy  
**Kalimulloh-Xudo** bilan so'zlashgani  
uchun Musoga berilgan nom

**kaliso** — xristianlar ibodatxonasi;  
cherkov  
**kalom** — so'z  
**kamand** — arqon, ip; tuzoq,  
sirtmoq,  
**kamin** — pana, xilvat joy  
**kanora-chet**, chekka, qirg'oq  
**karib** — yaqinlashgan  
**karih** — jirkanch  
**karimuttarafayn** — ikki  
taraflama ulug', ya'ni ham ota,  
ham ona tomonidan  
**temuriyzoda-H. Boyqaro**  
**kark** — karkidon  
**karkas-uzoq yashovchi**  
o'laksaxo'r qush, qora grif  
**kas** — kishi, shaxs, kimsa  
**kasb ro'zi** — har kungi ish,  
hunar; mashg'ulot  
**kasir** — mo'l-ko'l, barcha  
**kasrat** — mo'llik  
**kavkab-najm**, yulduz  
**kavkabiston** — tiniq, yulduzları  
charaqlab turgan osmon  
**kavsar-jannatdagi buloq nomi**  
**kashfi asrori nihon** — yashirin  
sirni ochish  
**kashshof** — kashfiyotchi  
**kent** — shahar  
**keraga** — o'tovning chetanga  
(to'qima devor) o'xshatib  
ishlangan devori  
**kerish** — yoy ipi  
**kilk-qamish qalam**  
**kimyo** — yonish ilmi, misning  
olov ta'sirida oltinga aylanishi  
**kin** — kek, o'ch; kuch; adovat  
**kinakash** — adovat qiluvchi  
**kinaxoh** — kekchi  
**kirdor** — qilg'iliq, ish  
**kiromi** — aziz  
**kiromiy qadr** — azizlik,  
hurmatga sazovorlik  
**kisvat** — kiyim  
**kiyna** — adovat  
**kiz** — kiygiz  
**kish** — olmaxon  
**kishti** — kema, qayiq

**kishtibon** — kemachi  
**kishvar-mamlakat**  
**koh** — somon  
**kohil** — yalqov  
**koj** — shapaloq  
**kokuli qullob** — gajak soch, kokil  
**kola** — mato  
**kom** — tanglay; og'iz; maqsad, orzu  
**komgor** — baxtli, qudratli, bahramand  
**komron** — o'z maqsadiga erishgan,  
 baxtli;  
**kor ozmo** — ish ko'rgan, tajribali  
**totib** — ro'yxat tuzish, qo'lyozmalarini  
 ko'chirish bilan shug'ullangan shaxs  
**kozib** — yolg'onchi  
**kosh** — koshki, zora  
**kudurat** — g'am  
**kuffor** — kofirlar  
**kufroni ne'mat-nonko'rlik**  
**kuhan** — eski, qadimgi  
**kuhulat** — o'rta yasharlik  
**kulbayi xammor** — may do'koni, may  
 sotiladigan do'kon (uy)  
**kulla** — cho'qqi, tog' cho'qqisi  
**kulliyot** — biror narsaning yig'indisi,  
 to'plam  
**kulola** — jingalak soch  
**kund** — o'tmas  
**kunda pix** — to'nkaday qo'pol  
**kunj** — burchak ma'nosida  
**kuruh** — 2 km chamasida  
**kushtgir** — kurashchi  
**kushti** — kurash  
**Ko'hak suyi-hozirgi Zarafshon**  
**ko'hi dard** — dard tog'i  
**Ko'hkan-tog' qazuvchi; Farhodning**  
 laqabi  
**ko'hsor** — tog'li joylar  
**ko'kramoq-na'ra tortmoq**  
**ko'k toqi** — ko'k gumbazi  
**ko'lok** — to'lqin; bo'ron  
**ko'ni-rost, to'g'ri, haqqoniy**  
**Ko'ragoniy** — so'zma-so'z ma'nosi  
 kuyov degani. Ulug'bekka, xotinlaridan  
 biri mo'g'ullardan bo'lgani uchun  
 berilgan nom. Chingizxonidan keyin urf  
 bo'lgan. Amir Temur ham Bibixonimga  
 uylangani uchun "Ko'ragoniy" edi

**ko'tah** — kalta, qisqa  
**ko'ch-urug'**, zot  
**ko'chak-u buzruk** — kichig-u  
 katta

**L**

**lafz** — so'z  
**laim-past**, gado, xasis  
**lak-yuz ming**  
**la'l** — qimmatbaho tosh; majozan  
 lab  
**la'li** — qimmatbaho qiziltosh, lab  
 ma'nosida ishlatiadi  
**lanqa** — ta'na  
**lappos-to'ladan kelgan**  
**latif-chiroli**, kelishgan, pokiza  
 nozik  
**lavand** — dangasa, yalqov  
**lavh** — taxta, yozuv taxtasi  
**lakte** — parcha  
**layli-tungi**  
**lang-cho'loq, oqsoq**  
**liqo** — yuz  
**lison** — til: g'ayb lisoni —  
 g'oyibning tili  
**litograf** — bosmaxonada harf  
 teradigan uskuna  
**livoyi ishtihor** — vivo —  
 bayroq; livoyi ishtihor — shuhrat  
 bayrog'i  
**loba** — tilyog'lamalik qilish;  
 nayrang, firib  
**loda-esi** past, ahmoq  
**lojaram-noiloj**  
**lolabor** — lola yog'diruvchi,  
 qizartiruvchi  
**lolakor** — lola ekuvchi; qon yos  
 sochuvchi  
**lolavor** — loladay qizil  
**lomakon** — makonsiz, ma'na  
 olam  
**"Lo" o'qi** — "lo" yo'q demakdir.  
 ishora o'qi inkor etish ma'nosi  
 anglatadi  
**log'ar** — oriq  
**lu'luyi xushob** — lu'lu —  
 marvarid, gavhar; tiniq, porloq  
 toza gavhar- u marvarid;

**lutf** — muloyimlik, rahmdillik, yaxshi muomala, marhamat

## M

**mab hut** — hayratlangan

**madhush** — behush

**madoris** — madrasalar

**ma'dum** — yo'q bo'lish

**maf hum** — fahmlangan, tushunilgan

**ma'no**, mazmun

**maf osil** — bo'g'in — bod (revmatizm)

kasalligi

**mafqu dul tanam** — o'lja, g'animat

**magas** — chivin, pashsha

**magoq** — o'rnak, namuna, mash'al

**mahbas-hibsxona**

**mahbub** — sevimli kishi, yor

**mahd** — beshik

**mahfil** — joy

**mahjabin** — oy peshona, peshonasi

chiroyli, go'zal

**mahjur** — hijronda qolgan, ayrilib

qolgan; uzoqlashgan; mahrum

**mahkumi** — bir hokimning hukmi

ostidagi (kishi)lari

**mahlulde** — eritilgan

**mahmil** — tuya va boshqa ulov ustiga

o'rnatalgan, odam o'tiradigan, usti yopiq kajava; kajavadagi yuk

**Mahmud Abdul Boqiy** (1526—1600)

— usmonli shoir, «*Sumbul qasidasu*» muallifi

**mahram** — yaqin do'st; sirdosh, ishonchli kishi

**mahtob** — oydin

**ma'hud** — mashhur; odatdagi; qadimgi

**mahv** — yo'qolish, bitish

**mahvash** — jamoli oyga o'xshash, oydek go'zal, oyjamol

**mahwashqa** — oyday go'zal

**mahzar** — hozir bo'lish; hukmnoma

**mahz** — xolis; yolg'iz

**mahzun-g'amgin**

**mahshar-qiyomatda insonlar**

to'planadigan maydon

**majruh** — jarohat(lı)

**ma'jun** — turli giyohlardan

tayyorlanadigan ichimlik

**maknun** — yashirilgan, maxfiy

**makr** — hiyla, firib

**malakut** — podshohlik

**malohat ganji** — go'zallik

xazinası

**malomat** — ta'na

**maloyik xo'y luq** — farishta

axloqli

**mal'un** — la'nati, la'natlangan

**mamlu** — to'lgan, to'la

**mamolik** — mamlakatlar,

yurtlar

**ma'mura** — obod joy, mamlakat

ma'nolarida

**man** — kim, kimi-ki

**mani** — mustahkam qal'a

**mankub** — baxtsiz, azobda

qolgan, qiyinchiliklarga yo'liqqan,

xarob

**Mansur** — Mansur Xalloj (X asr)

**ma'nus** — odatlangan

**manzuri** — ko'zlagani, ma'qul

topgani

**mansha'**-boshanish

**manshur** — yoyilgan,

tarqatilgan; yorliq, farmon

**maoni** — ma'nolar, mazmun,

siyrat

**maqdur** — qudrat, quvvat

**maqobir** — qabrlar

**maqom** — turar joy, to'xtash;

rutba, daraja, o'rin

**maqosid** — maqsadlar, niyatlar,

muddaolar

**maqrun** — yaqinlashgan, yaqin

**maqsud** — qasd qilingan, niyat

qilingan narsa; maqsad, istak,

murod, orzu

**maqtul** — qatl etilgan, o'ldirilgan

**maraz** — kasallik

**mardud** — rad qilingan

**mardudidur** — rad etgan,

haydalgan

**mardum-el**, xalq; ko'z qorachig'i

**marg** — o'lim

**markab** — ulov

**markuz** — mustahkam

**ma'ruf-ta: iqli**, atoqli, mashhur

**Masih** — silab tiriltiruvchi; Iso  
 payg'ambarning laqabi  
**maskun** — kishilar yashab turgan joy,  
 turarjoy  
**maslub** — ajratib tashlangan  
**masnad** — 1) suyanchiq; 2) taxt; 3)  
 hukmdorlik o'rni  
**"Masnaviy"** — Jaloliddin Rumiyning  
 mashhur asari  
**masof** — jang maydoni  
**masoyib** — musibatlar  
**masti lo'yaqil** — hushsiz mastlar  
**mas'ud** — saodatl, baxtli  
**"Matla ul-anvor"** — Xusrav Dehlaviy  
 "Xamsa"sining birinchi dostoni  
**matofi** — tavof aylamoq, ziyorat  
 qilmoq  
**javlud** — tug'ilgan  
**ma'vo** — makon  
**mavojib** — belgilangan (haq, maosh)  
**mavazi** — mavzelar, joylar  
**mavsum** — ismlangan, nomlangan  
**maxdum** — ulug' zot, martabali kishi  
**maxmur-mast**  
**maxuf** — qo'rqinchli, vahimali  
**maxzan** — xazina saqlanadigan joy  
**"Maxzan ul-asror"** — Nizomiy  
 "Xamsa"sining birinchi dostoni  
**may** — ilohiy fayz timsoli, soqi — pir  
 ma'nosida  
**maygun** — may rangli, qizil rangli  
**mayi nob** — tiniq may  
**maykada** — mayxona  
**mayxora** — mayxo'r  
**mazallat** — xo'rlik, xorlik, pastlik  
**mazammat** — uyaltirish, kulgi qilish  
**mazhar** — ko'rinish  
**mazkur edi** — gapirilar edi  
**Mazori Shoh** — hozirgi Shohi Zinda  
**mazra** — ekinzor  
**mashom** — burun, dimog'  
**mashriq** — sharq  
**mash'uf** — aqsiz, devona  
**mashvarat** — kengash, maslahat  
 panoh — himoya, muhofaza  
**mashshoq** — sozanda  
**mashshota-pardozchi**  
**mehnat** — g'am

**mehnat vuquf** — voqiflik  
**mehnat shomi** — azob tuni  
**mehr** — muhabbat; oftob, quyoshi  
**mehri anvar** — eng porloq nur  
**mehri xovar** — Sharq quyoshi  
**me'mori san'at-go'zal** binola  
 qurish san'ati  
**meng-xol**  
**mengiz** — yuz  
**midod** — siyoh  
**mihan** — mehnatlar  
**mijmar-chó'g'don**  
**mijoz** — xulq, tabiat  
**miskin** — 1. kambag'al,  
 bechorahol; 2. mungli, hazin  
**misqol** — qadimiy og'irlik o'lcham  
 birligi, 1 misqol 4,5 gram  
 atrofida bo'ladi  
**miyon** - bel  
**miz** — taxta, stol  
**mistar-chizg'ich**, lineyka  
**Mitra** — Quyosh xudosini  
 ismi, u kuch-qudrat, baxt-saoda  
 ramzidir  
**mizbon** — bu so'z asli fors  
 «miz» — stol, xontaxta so'zi  
 shaxsni ifodalovchi «-bo'li  
 qo'shimchasidan yasalgan bo'li  
 u mehmon uchun tuzatilg'an  
 dasturxon sohibini anglatadi  
**mig'far** — jangda kiyiladigan  
 bosh kiyimi, dubulg'a  
**mo** — suv  
**moado** — ...dan boshqa  
**mobayn** — o'rta, oralig  
**mohi tobon** — porlab turgan o'rta  
**mohtob** — oy yoritib turgan o'rta  
 oydin  
**molik** — hukmdor, shoh  
**molomol** — to'la, limmo-lim  
**mone** — to'siq  
**mosivo** — hech vaqosiz, yo'qsil  
**Muallim Nojiy** (1850-1893)  
 "sharqchi shoir"  
**muabbad** — abadiy  
**muuanbar** — xushbo'y, anbarli  
**muannas** — xotin jinsi  
**mubaddal** — almashingan,

**o'zgartirilgan**  
**mubham** — noaniq  
**mudavvar** — aylana, yumaloq  
**mudbir-baxtsiz**  
**muddaiy** — da'vegar, da've qiluvchi,  
raqib  
**mufassal-batafsil**, to'liq  
**muflis** — qashshoq  
**muftaxir** — faxrlanuvchi, quvonuvchi  
**mug** — mayfurush  
**muharram** — 1. qamariy yil oyning  
arabcha nomi; 2. man qilingan mirza  
ruxsat etilmagan  
**muhib** — sevuchchi, do'st tutuvchi  
**muhlik** — halok qiluvchi, o'diruvchi  
**muhsin** — ezgu niyatli, ezgu ishlar  
qiluvchi  
**muhtasham** — boy, hashamatli  
**mujda** — xabar  
**mujgon-kiprik**  
**mujib** — sababchi, bois  
**mujovir** — Makkada yoki biror  
mozorda turg'un bo'luvchi  
**mukarram** — karamli, karam egasi;  
buyuklik, himmat egasi; hurmatli,  
obroli  
**mulk** — mamlakat, yurt  
**mullama** — yaltiratilgan  
**multamas** — iltimos qilingan,  
so'ralgan  
**munaqqash** — naqsh bilan bezatilgan,  
naqshdor  
**munavvar** — nurli, yorug'  
**munfail** — xijolat  
**munis** — do'st, ulfat, hamdam  
**munojot** — yalinish, yolvorish  
**munqasim** — qismlarga ajratuvchi,  
bo'luvchi, taqsimlovchi  
**munqod** — bo'yin eguvchi,  
bo'ysunuvchi, itoat etuvchi  
**muntahi** — oxiriga yetuvchi  
**muntaqil** — o'tuvchi, ko'chuvchi  
**muntashir** — yoilgan, tarqalgan  
**munzal** — indirilgan, yuqorida  
tushirilgan  
**munshilar** — kotiblar  
**muomalot** — muomalalar, bordi-  
keldilar

**muqavviy** — madadkor  
**muqayyad** — bog'langan,  
bandga solingen  
**muqbil** — baxtli  
**muqim** — turib qolish  
**muqobala-qarshilik**  
**murabbiy** — tarbiyachi  
**muraqqa** — yamalgan, quralgan  
(to'n haqida)  
**muravvaq** — tiniq, to'la  
**muroqaba-mushohada**  
**murur** — o'tish, yurish  
**murshid** — to'g'ri yo'lga soluvchi,  
yo'l ko'rsatuvchi; so'fiylikda —  
pir, eshon  
**musallah-qurollangan**  
**musallam** — qarshilik qilmay  
ma'qullangan, e'tirof etilgan  
**musalsal** — zanjirga o'xshash  
**musavvar** — surat chizilgan  
**musaxxar-sehrlangan**  
2. zabit etilgan, bo'ysundirilgan  
**Mus'haf-Qur'on**  
**musohib-hamsuhbat**  
**mustafid** — bahramand, foyda  
oluvchi  
**mustafo** — tanlangan  
**mustahiq-munosib**, loyiq  
**musta'jil** — shoshuvchi  
**mustavli** — zabit etuvchi;  
yoilgan  
**mustag'raq** — garq bo'lish  
**mutaassir-ta'sirlanuvchi**  
**mutaharrik** — harakatlanuvchi,  
qimirlab turadigan  
**mutavajjih bo'lmoq** —  
yuzlanmoq, yo'l olmoq  
**mutazarir** — zararlangan, zarar  
ko'rgan  
**mute** — itoat etuvchi  
**mu'tod** — o'rganish, odat 2.  
**o'zgargan**  
**mutrib** — cholg'uchi, qo'shiqchi  
**muttako** — suyanchiq,  
suyanadigan narsa  
**muvalhish-mudhish**  
**muwajjah** — ma'qul, yoqimli,  
yaxshi

**muvososo** — yaxshilik; murosa, kelishish  
**muxtalif** — turli-tuman  
**muxtalifmazhab** — xilma-xil aqidaga  
**mansub**  
**muxtasar** — kichik, ixcham  
**muzaffar** — g'olib  
**muzahhab** — zarhal qilingan  
**muzaxona-muzey**  
**muzmar-yashirin**  
**muztarib** — iztirobdha qolgan,  
 tinchsizlangan  
**mug<sup>4</sup>** — otashparast; mayfurush  
**mug<sup>5</sup>bacha** — mayxonachining  
 yugurdak xodimi, may tashuvchi  
**mug<sup>6</sup>laq** — tushunib bo'lmaydigan  
**mug<sup>7</sup>naziri** — tengi  
**mug<sup>8</sup>oyir-xilof**, teskari  
**musharrat** — sharaflı, sharaflash  
**mushavvash** — tashvishlanish  
**mushaxxis** — ijrochi, aktyor  
**mushfiq** — shafqatli, mehribon  
**mushkin** — mushk hidli; mushk  
 rangli; qora soch  
**mushkin tanob** — mushkli (isli) arqon  
**mushovir-maslahatchi**  
**mushtariy** — oluvchi, xaridor  
**mushti xokam** — bir siqim tuproqman  
**mushtzan-urushhqoq**  
**muchaa-a'zo**, organ  
**munglashmoq** — mungli ovoz  
 chiqarmoq, mungli yig'lamoq,  
 dardlashmoq  
**mo'bad** — otashparastlar boshlig'i,  
 obid  
**mo'r(cha)** — chumoli  
**mo'tod** — odad, mo'tod bo'lmoq —  
 odatlanmoq  
**mo'y-soch**

## N

**nabard** — urush, jang  
**nabotot** — o'simliklar  
**nadim** — xizmatkor, mahram  
**nafarmon-och** binafsha rang  
**nafir** — nola, faryod  
**nafs** — yemak-ichmak, mol-mulkka  
 hirs qo'yish  
**naft** — qora moy, neft

**nafyi** — rad etish, inkor qilish  
**nahr-dunyo**  
**najib-ulug'**, zoti toza  
**najjor-duradgor**  
**nakxat** — xushbo'y hid  
**namudor** — ko'rinadigan,  
 ko'rinib turgan  
**Narya Sanha** — mifologik  
 qahramon nomi, Mitranning  
 yordamchisi  
**nas** — farmon; «nun» bilan «sod»  
 harflari qosh bilan ko'zga ishora  
 qiladi  
**nasab** — nasl, urug'  
**nasim-tonggi** shabada  
**nasrin** — oq ochiladigan bir xil  
 gul  
**navard** — yuruvchi, kezuvchi  
**navbar** — yangi yetilgan meva,  
 yangi o'sayotgan o'simlik  
**navha** — tovush chiqarib  
 yig'lash, ulish, mungli yig'i, nola  
**navohi** — atroflari  
**navola** — rizq, ehson  
**navozish-mulozamat**, marhamat  
**navxat** — miyig'ida kulgan  
**navxosta** — go'zal qomatli, yosh  
 yigit  
**naxl** — ko'chat, nihol  
**naxli** — ko'chat  
**naxvat** — kibr-u g'urur  
**naziri** — tengi  
**nazm** — she'r  
**nazm etar** — nazm yaratadi,  
 she'r yozadi  
**nazohat** — tozalik, soflik  
**naz(z)ora** — nazar tashlash  
**na'sh** — tobut  
**nag'ma** — kuy  
**nang-u nom** — or-nomus  
**nekxoh** — niyati yaxshi, ezzguli  
 istovchi  
**ne sud** — nima foyda  
**netong-neabaj**  
**nigahboni** — qarovchi,  
 qo'riqlovchi  
**nigin-uzuk**, muhr  
**nigun-egilgan**; teskari

**nihon** — yashirin, pinhon  
**niliy-ko'k**, zangori, moviy  
**nisor** — sochish; chochqi  
**nixsor** — yuz, aft-angor  
**niyoz** — tilak, iltimos; yolvorish; orzu  
**nizor** — bo'sh, nozik; oriq, ozg'in  
**nisheb** — pastlik  
**nishot-shodlik**  
**nishotabzoy** — xursandlik paydo qiluvchi  
**nishotafzo** — xursandlik, xush kayfiyat, rohat paydo qiluvchi  
**nob** — toza, tiniq, sof  
**nobotli** — novvotli  
**nodira** — noyob, qimmatli  
**nof** — foydali, naqli  
**nofa** — mushk  
**nogoh** — birdan, to'satdan  
**nohamvor** — notejis  
**nokom** — bebahra, mahrum  
**nol** — qamishqalam ichidagi qiltiriq  
**nomavzun** — kelishmagan  
**nopadid** — ko'rinmas, maxfiy; tayinsiz  
**nor** — erkak tuyu  
**nor** — olov; badandagi qizg'ish dog'  
**nosih** — nasihatgo'y, o'git beruvchi  
**nosur** — bitmaydigan yara  
**notavonlik** — kuchsizlik, zaiflik  
**notiqa** — nutq so'zlovchi  
**novak** — kamonning o'qi, kiprik, ko'z qarashi. Shuningdek, yorning  
qarashiga ishora. Uning har bir kiprigi o'qqa qiyoq etiladi  
**novakandoz** — o'q otuvechi, mergan  
**novaki mujgon** — kiprik o'qi  
**nozili** — ayon bo'lish; bajo qilmoq  
**nochiz** — arzimas  
**nufur** — nafrat  
Nuh-rivoyatga ko'ra eng uzoq umr ko'rgan payg'ambar  
**nuhuft(a)** — yashirin, maxfiy sir  
**nukta** — nozik ma'noli so'z  
**nuktasanj** — ma'nolarni nozik biluvchi  
**nuktasaro** — go'zal va ma'noli so'zlovchi  
**numizmat** — qadimgi tangalarni tekshiruvchi mutaxassis

**nuql** — gazak (zakuska)  
**nuqud** — naqd  
**nusrat** — zafar, g'alaba  
**no'sh** — ichish; totli, chuchuk  
**no'shono'sh** — surunkasiga ichish  
**no'shxand** — shirin va chiroyli kulgi

**O**

**obi kavsar** — kavsar hovuzining suvi  
**obila** — po'rsildoq, qavarish  
**Odampur** — joy nomi  
**odosh** — tamom  
**ofiyat** — sog'lik, salomatlik  
**ofoq-ufqlar**, dunyo  
**ohi sard** — sovuq oh, sovuq nafas  
**oj** — 1) fil tishi; 2) oq, ravshan, yorug'  
**olamoroy** — olamni bezatadigan; olam aro  
**olachiq** — chayla, kapa  
**olud-qorishgan**  
**om** — omma, xalq  
**omoj** — maqsad  
**omuz** — o'rganuvchi, biluvchi  
**Oq Tarmal** — hozirgi Xua Kem  
**oraz** — yuz  
**orosta** — tartibli  
**os** — juni oq va yumshoq bir hayvon va uning terisidan ishlangan po'stin  
**Osaf-Sulaymon** — payg'ambarning dono vaziri  
**osib** — ziyon  
**osiy** — 1. bo'ysunmaydigan, itoat qilmaydigan; 2. gunohkor  
**osiyo-(forscha)** tegirmon  
**osiyo sang** — tegirmon toshi  
**osig'-foyda**  
**osor** — belgilar, asarlar  
**otashdam** — otash nafas, o't tutashuvchi  
**otashi so'zon** — yonib turgan, yolqinli olov  
**otqu** — pokiza

**ovloq** — ov qilinadigan joy  
**ovidon** — doimi, mangu  
**ovuch** — hovuch, kaft, changal  
**oyilmoq** — ayrilmoq  
**oyin** — urf, odat  
**oyo** — so'roq va taajjubni anglatuvchi  
ko'makchi so'z: yoki, balki, ehtimol kabi  
ma'nolarda qo'llanadi  
**ozurda** — ozor chekkan, ranjigan  
**ozurdajon** — joni ozor chekkan,  
ranjigan  
**og'oz**-boshlash  
**oshiyon** — in, uya  
**oshub** — g'avg'o, to'polon  
**oshufta** — yoyilgan, taralgan  
**oshuftahol** — parishonhol  
**oshyon** — qavat

## P

**pahr** — kunning to'rtdan biri  
**padidor** — paydo bo'lgan, ko'ringan  
**pajmurda** — ezilgan  
**palang-qoplon**  
**pandim** — undash, nasihat  
«Panj ganj» — «Besh xazina». Bu  
yerda Nizomiying «Xamsa»si  
**parand** — ipakdan to'qilgan yupqa  
kiyimlik  
**parastishgoh** — (Avestoda) qishloq  
ahlining o'z tangrilariga qurbanlik  
qiladigan joyi  
**parastor** — 1) topinuvchi; 2)  
xizmatkor; 3) sevuvchi  
**pargola** — parcha-parcha, bo'lak;  
titilgan, yumdalangan  
**pargor-sirkul**; yetti qat osmon  
**parixon** — baxshilik, duixonlik, duo  
bilan go'yoki yomon ruhlarni quvish  
**parishon** — tarqoq, sochilgan,  
yoyilgan; yakson etilgan,  
umidsizlantirilgan  
**parishon qil** — yoy, soch  
**parron** — uchuvchi  
**partav** — nur, shu'lа  
**partavfikan** — nur taratish  
**Parvonachi-Xonlik** zamonida yirik  
mansablardan. Ko'pincha podsho  
qoshida bo'lib, farmonlarni yozib turar,

ishlar haqida podshoga hisob  
beradi  
**parcham** — o'rilgan soch, zulf,  
kokil  
**paydar-pay** — birin-ketin  
ketma-ket, uzluksiz  
**payk** — xabarchi  
**paykar** — haykal, jussa, gavda  
**paykon** — kamon o'qining uchi,  
o'q uchidagi metall boshqoq, tikon;  
kiprik  
**paymon** — ahd, va'da  
**paymona** — may piyolasi, qadah  
**payrav** — ergashuvchi  
**payg'om** — xabar, darak  
**payvasta** — tutashgan; bu yerda  
ketma-ket ma'nosida  
**pesha-kasb-hunar**  
**pesh-u pas** — old-orqa, tevarak-  
atrof  
**pech** — o'ralish, buralish; qiyshi  
**pech aylamoq** — to'lг'anmoq  
**pech-u tob** — to'lг'anmoq  
**pech-u xam** — o'ralgan,  
buralgan, chuvalgan (zulfga  
tegishli)  
**pir** — keksa, qari  
**piri mug'on** — mayxonachi  
**pirohan** — ko'ylik  
**Piyog** — joy nomi  
**porso-xudojo'y**, taqvodor kishi  
**pos** — hummatini qilmoq, sadoqat  
**po(y)basta**-kishanlangan,  
tutqunlangan  
**poypo'si** — so'zma-so'z:  
yoqdan bo'sa olish, m a j o z a  
n: xushomad, ta'zim  
ma'nolarida  
**poya** — martaba  
**poshikasta** — ojiz, notavon  
**purdil** — o'ziga ishongan, ko'nish  
to'q  
**purxam** — notejis  
**purhosil** — serhosil  
**purmardum** — odami ko'p  
**purnam** — ko'zlar yoshga to'li  
**purob** — lim-lim tola yosh  
**purtob** — yarqiroq

**purshar-serg'alva**  
**pushta** — tepalik  
**po'ya** — yugurish  
**po'shida** — maxfiy, yashirin, bekik

## Q

**qabab** — qamab  
**qabo** — ko'ylik ustidan kiyiladigan yengil ust kiyimi  
**qaboyil** — qabilalar  
**qabza** — changal, dasta, tutam  
**qadoq** — qadimiy o'lchov birligi: 1 qadoq 400 g atrofida bo'lgan  
**Qadr** — ramazon oyining «Laylat ul-qadr» (qadr kechasi) deb ataladigan 27-qutlug' kuni  
**qaroq-ko'z qorachig'i**  
**qari(y)b** — yaqin  
**qarilab** — ulg'aytirib, yoshiga yosh qo'shib  
**qarin** — yaqin (kishi)  
**qarn-bir** avlod umri; asr  
**qaromug'** — yovvoyi o'simlik turlaridan biri  
**qarqaro o'tag'asi** — podsholik jig'asi  
**qasaba** — qishloq; aholi yashaydigan kichik joy -  
**qasri rafi** — yuksak qasr  
**qassomi azal** — taqdirni belgilovchi, taqsimlovchi  
**qat** — kesish, uzish; kerish  
**qat'i silayi rahm** — qarindosh-urug'ning oldidan o'tmasdan degan ma'noda  
**qatla** — marta, karra, dafa  
**qat'o** — qat'iy, hech qachon, aslo  
**qaviy** — kuchli  
**qaysar-Xoqon;** Rum hukmdorlari unvoni (asosan Y.Sezar)  
**qazo** — o'lim  
**qibla yoni** — qibлага yoni  
**qiroq** — qirg'oq, chet  
**qirg'ilach-qaldirg'och**  
**qitol-urush,** jang; P.Mahmudning laqabi  
**qiyyor** — qirqish  
**qohir** — qahr-g'azab ko'rsatuvchi, qahrlangan

**qomus** — mukammal, to'liq lug'at  
**qonun** — maxsus musiqiy asbob  
**qopungda-eshicingda**  
**qoqim** — terisi mayin, oq junli hayvon terisidan tikilgan po'stin  
**Qorun-behisob** boylik to'plagan xasis boy, xasisligidan uni yer yutgan  
**qosir** — qusur, qisqa, kalta, kuchsiz, ojiz  
**qotilish** — qo'shilish  
**Qoyin** — joy nomi  
**qubur** — qabrular  
“**Qudsiya**” — poklik, muqaddaslik  
**qu'dum** — qadamning ko'pligi  
**qullob** — qarmoq, ilmoq, changak  
**qulon** — ovlanadigan bir xil hayvon, yovvoyi eshak  
**qulzum** — dengiz  
**qumosh** — kiyim  
**qurb** — yaqinlik, yaqin bo'lish  
**qurratul ayn** — ko'zning oq-qorasi  
**qurtulmoq** — qutulmoq  
**qutbi tariqat** — tariqat tayanchi, qutb — falak mehvarining ikki tomonidan har biri,  
qavmning kattasi va boshlig'i-Jomiy (Navoiy ta'rifi)  
**Qusam Ibn Abbos** — sahabalardan. Muhammad payg'ambarning amakivachchasi  
**qo'lni hamoyil etmoq** — quchmoq  
**qo'nolg'a** — qo'nish joyi, qo'noq  
**qo'noq** — mehmon  
**qo'ldosh** — yordamchi  
**qo'tuloyin** — qutilay  
**qo'sh** — qadah

## R

**rabot-qo'rg'on;** ko'ch.dunyo  
**raf** — yuksak  
**rafiq-do'st**  
**raftor-yurish;** yuz

**ragi** — tomir, qon tomiri  
**rahil** — jo'nash  
**rahn** — garov  
**rahnamoy** — yo'l boshlovchi  
**rahrav** — yo'l boshlovchi  
**raiyat** — xalq  
**rajo-umid**, tilak  
**ram** — cho'chimoq, hurkmoq  
**ram qilmoq** — cho'chib qochmoq  
**ramida** — hurkkan, cho'chigan,  
qo'rqqan, hurkib qochgan  
**rangin** — rangdor, tovlanib turadigan;  
go'zal  
**ranj** — ozor, alam; mehnat  
**Ranxa** — Sirdaryoning «Avesto»dagi  
nomi  
**raoyo** — xalqlar  
**raqam qilmoq** — yozmoq, bitmoq  
**rasad** — observatoriya  
**rasan** — ip, chilvir, arqon  
**rasul-elchi**  
**ravo** — munosib; yuruvchi, ketuvchi  
**ravon** — jon, ruh; tiriklik  
**ravon** — yuruvchi, boruvchi, ketuvchi;  
oquvchi  
**ravza-bog'**  
**ravzayi rizvon** — jannat bog'i  
**raxna-darz**, teshik, yoriq  
**raxt** — yuk, asbob-anjom  
**raxsh** — juda chopqir ot: olachipor,  
chiroyli ot  
**raxhon** — yaltiroq, porloq  
**rayohin** — rayhonlar  
**razm** — jang  
**razmgoh** — urush, jang maydoni  
**razmovar** — usta jangchi  
**rang** — tomir  
**rezume-qisqa xulosa**  
**ribo** — pulni foizga qo'yish  
**rif'at(i)-martaba**  
**rifq-lutf**  
**rind** — olam ishlaridan chekinib, xudo  
yodida sarxush yuradigan kishilar  
**rind sarxayli** — rindlar sardori  
